

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

Jumanov Xayitmurot Toshniyozovich

**IQTISODIY BILIM
ASOSLARINI O‘QITISH
METODIKASI**

O‘quv qo‘llanma

Toshkent – 2021

Mazkur qo'llanmada iqtisodiy savodxonlikning tarixiy-milliy va ijtimoiy asoslari tahlili, talabalarga iqtisodiy ta'lim berishning hozirgi holati, bo'lajak mutaxassislarda iqtisodiy savodxonlikni rivojlantirishning psixologik-pedagogik omillari, talabalarda iqtisodiy savodxonlikni rivojlantirish mazmuni va komponentlari, iqtisodiy savodxonligini rivojlantirishning amaliy-didaktik vositalari, pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish mazmuni, natijalari va ularning tahlili bayon qilingan.

**Taqrizchilar: B.T.Salimov-TDIU “Sanoat iqtisodiyoti” kafedrası
professori, i.f.d.**

**O.Sh.Ismailov- Nizomiy nomidagi TDPU “Iqtisodiy bilim
asoslari” kafedrası dotsenti, i.f.n.**

**O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining
2020–yil “14“ avgustdagi “418” – sonli buyrug'iga asosan Iqtisodiy bilim
asoslarini o'qitish metodikasi o'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi tomonidan litsenziya berilgan nashriyotlarda nashr
etishga ruxsat berildi.**

MUNDARIJA

	KIRISH	4
I BOB	NOIQTISODIY OTM TALABALARIDA IQTISODIY SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	12
1.1.	Iqtisodiy savodxonlikning tarixiy-milliy va ijtimoiy asoslari tahlili	12
1.2.	Noiqtisodiy OTM talabalariga iqtisodiy ta'lim berishning hozirgi holati	21
1.3.	Bo'lajak mutaxassislarda iqtisodiy savodxonlikni rivojlantirishning psixologik-pedagogik omillari.....	34
	I bob bo'yicha xulosalar	42
II BOB	TALABALARDA IQTISODIY SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-USLUBIY VA AMALIY ASOSLARI	44
2.1.	Talabalarda iqtisodiy savodxonlikni rivojlantirish mazmuni va komponentlari	44
2.2.	Iqtisodiy savodxonlikni rivojlantirishning metod va shakllari	57
2.3.	Talabalarda iqtisodiy savodxonlikni rivojlantirishning amaliy-didaktik vositalari.....	66
	II bob bo'yicha xulosalar	77
III BOB	PEDAGOGIK TAJRIBA-SINOV ISHLARI VA ULARNING NATIJALARI TAHLILI.....	79
3.1.	Pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va uning mazmuni.....	79
3.2.	Pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalari va tahlili	96
	III bob bo'yicha xulosalar	106
	XULOSA.....	108
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	115

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Respublikamizda amalga oshirilayotgan chuqur iqtisodiy islohotlar natijasida jamiyatimiz taraqqiyotining takomillashgan asoslari yaratilmoqda va milliy mustaqilligimiz poydevori yanada mustahkamlanib bormoqda. Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tashabbusi bilan ishlab chiqilgan va amaliyotga qo'llanilayotgan "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi"da xalqimiz hayot darajasini yuksaltirishning aniq mexanizmlari belgilab berilganligini, ushbu strategiyaning nafaqat xalqimiz, balki dunyo jamoatchiligi e'tiborini o'ziga jalb etgan muhim hujjatga aylanganligini alohida ta'kidlab o'tamiz.

Harakatlar strategiyasida ta'lim sifatini oshirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish masalalari alohida o'rin egallaydi. Shuningdek, bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan "Har bir oila-tadbirkor", "Yoshlar kelajagimiz" hamda "Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili" davlat dasturlari ijrosini ta'minlashdan ko'zlangan asosiy maqsad yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularni jamiyatimizning barcha sohalarida bo'layotgan innovatsion yangilanishlarning bevosita ishtirokchilariga aylanishga yanada kengroq jalb qilishdir.

Shu nuqtai-nazardan yoshlarning bilim va iqtidorini chuqurlashtirish, ularning kelgusida malakali kadrlar bo'lib, O'zbekistonni yanada rivojlantirishdagi ishtirokini ta'minlash maqsadida ta'lim jarayoniga ilg'or innovatsion-zamonaviy yondashuvlar joriy etilmoqda, shunga javoban o'quv jarayonlarini sifatli va samarali tashkil etish va amaliyotga joriy etishda natijaviylikka e'tiborni qaratishimiz zarur.

Ushbu jarayonda milliy iqtisodiyotimizning o'ziga xos xususiyatlarini nazariy va amaliy jihatdan chuqur bilish o'ta dolzarb masaladir. Bozor iqtisodiyoti hayotimizda tobora keng ko'lam olayotgan sharoitda bo'lajak kichik mutaxassislar ko'p qirrali bilimga ega, chuqur mushohada va mulohaza asosida qarorlar qabul

qilishga qodir, o'z kasbini puxta egallagan kadrlar bo'lishi shart. Bu esa, o'z navbatida mustaqil davlatimiz kelajagi bo'lmish yoshlarni tarbiyalashda va ularning barkamol inson bo'lib shakllanishida o'qituvchilar, muhandis-pedagoglar, pedagog-olimlar zimmasiga o'ta muhim vazifalarni yuklaydi. Zero, o'sib kelayotgan hozirgi avlod barkamol va etuk inson bo'lishi uchun bozor iqtisodiyoti bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni chuqur egallashini, to'g'rirog'i, iqtisodiy savodxon bo'lishini zamonning o'zi taqozo etmoqda.

Bo'lajak kichik mutaxassislarning iqtisodiy tayyorgarligini oshirish ancha dolzarb masala bo'lib, u bozor iqtisodiyotining o'ziga xosligi bilan belgilanadi. Har qanday kasb egasi bozor iqtisodiyoti asoslarini chuqur bilishi hamda kasbiy-iqtisodiy malakalarni yaxshi egallashi kerak. «Iqtisodiyot odami»ni yaratish va tarbiyalash, rivojlantirish kun tartibining muhim masalasiga aylanar ekan, turli hayotiy vaziyatlarda va xo'jalik-tarmoq tizimlarida faoliyat ko'rsatayotgan mutaxassis-kadrlarning iqtisodiy qarashlari, ularning kasb-koridan qat'iy nazar, shaxsiy-kasbiy shakllanishining sharti va asosi iqtisodiy bilim hisoblanadi. Individning insoniy va fuqarolik holati, iqtisodiy ahvoli, moddiy imkoniyati, yashash tarzi, iqtisodiy fikrlash usuli, iqtisodiy madaniyati iqtisodiy savodxonligiga bog'liq bo'ladi, desak aslo mubolag'a bo'lmaydi.

Zero «Inson iqtisodiyot uchun emas, balki iqtisodiyot inson uchun» degan hikmatli gap bejiz aytilmagan. Bu hikmatomuz fikr mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub iqtisodiy islohotlarning mohiyat va maqsadini ifodalaydi. Uni hayotga joriy etish esa, o'z sohasining bilimdoni bo'lgan har bir mutaxassisning insoniy burchidir. Buning uchun esa yangicha iqtisodiy fikrlash, boqimandalik psixologiyasidan xolilik, tadbirkorona ish yuritish, o'z taqdiri va baxt-saodati uchun mas'ullikni xarakterlovchi hayotiy nuqtai-nazar, boshqacha aytganda, iqtisodiy savodxonlik zarur bo'ladi. Shuning uchun kasb-hunar kollejlarning yuqori bosqich talabalari «Iqtisodiy bilim asoslari», «Iqtisodiyot asoslari», «Iqtisodiy savodxonlik» kurslarini o'rganib, nafaqat o'zlarining iqtisodiy savodxonligini oshirishga bo'lgan ehtiyojini qondiradi, balki bozor iqtisodiyotining mavjud bo'lishi tartib-qoidalarini ham o'zlashtiradi, shuningdek,

o'zida iqtisodiy tafakkur tarzini shakllantiradi hamda bozor iqtisodiyoti munosabatlarini chuqur o'rganadi. Birinchidan, bu kurslar bo'lajak kichik mutaxassislarning iqtisodiy savodxonligini oshiradi, ikkinchidan, ularning bozor munosabatlariga o'tishning O'zbekiston modelini to'liq o'zlashtirishlari uchun katta imkoniyatlar beradi.

Bozor iqtisodiyoti o'z ishini puxta biladigan mutaxassis, tadbirkor va ishbilarmon kadrlarga ehtiyoj tug'dira boshladi. Mana shu zaruriyat barcha kasb egalariga, eng avvalo, iqtisodiy bilimlarni egallashi, mahalliy resurs (zaxira)lar hajmi va turlarini chuqur bilishini, bozor imkoniyati va ehtiyojini o'rganishni taqozo etadi. Bozor shart-sharoitlari va iqtisodiyotning o'ziga xos xususiyatlarini bilmaydigan tadbirkor to'g'ri va asosli tarzda ish yurita olmaydi va oxir-oqibatda muvafaqqiyatsizlikka uchraydi.

Shu o'rinda Respublikamiz birinchi Prezidenti I. A. Karimovning quyidagi so'zlarini keltirib o'tish joizdir: «...biz shunday mas'uliyatli o'tish davrini o'tmoqdamizki, juda qisqa muddatlarda rivojlangan mamlakatlar safiga qo'shilib olishimiz kerak. Bu tarixiy zaruratdir. Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot esa, ko'p jihatdan odamlarning iqtisodiyot ilmi bilan qurollanishiga, iqtisodiy idrok kuchiga ega bo'lishlariga bog'liq bo'lib qoldi» (12).

Respublikamiz iqtisodiyoti yangicha munosabatlarga o'tish bosqichida turgan sharoitda bu masala juda ahamiyatlidir. Holbuki, bu masalalarni hal etish, eng avvalo, yoshlarda iqtisodiy savodxonlikni, tamomila yangicha iqtisodiy fikrlashni rivojlantirishning g'oyat dolzarb vazifa ekanini ko'rsatadi. Chunki bozor iqtisodiyoti davrida iqtisodiy savodxonlik nafaqat olimlar, balki barcha soha mutaxassislari uchun zarur bo'lgan xususiyatdir. Shunday ekan, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimida «Iqtisodiy bilim asoslari» fanini o'rganish alohida ahamiyat kasb etadi. Albatta, bu fan talabalarning zamonaviy iqtisodiy tafakkurining shakllanishiga xizmat qiladi. Biroq hozirgi zamon iqtisodiy bilimlar zaminida tarixiy-iqtisodiy g'oyalar, zamonaviy qarashlar, ta'limotlar, eng muhimi iqtisodiy faoliyatning amaliy jihatlari katta o'rin tutadi.

Bozor munosabatlariga o'tish sharoitida O'zbekistonda kichik va o'rta biznes sohasi bilan shug'ullanuvchi ishbilarmonlarga talab yanada ortmoqda. Bu o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, o'rta umumiy ta'lim muassasalari oldiga ham bir qator yangi vazifalarni qo'ydi. Ulardan biri kichik va o'rta bisnes uchun malakali mutaxassislar tayyorlash, ularni zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy bilimlar bilan qurollantirishdir.

Biznes va fermerlik ishi, shubhasiz, iqtisodiy bilim va iqtisodiy savodxonlik bilan uzviy bog'liq. Iqtisodiy bilimlarsiz xo'jalikni yuritib ham, uni boshqarib ham, samarali natijalarga erishib ham bo'lmaydi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishchi va mutaxassislar mehnat bozori talablariga moslasha olishi kerak. Ular mehnatining bozorga ta'siri ko'p jihatdan raqobatbardosh tovarlar yarata olishlari va faoliyatning yangi yo'nalishlarini kengaytirishi bilan baholanadi. Bu esa, tadbirkorlardan chuqur iqtisodiy savodxonlikni, uzoqni ko'ra bilishni talab etadi. Bundan kelib chiqadiki, kasb-hunar ta'limi muassasalarida iqtisodiy ta'limning asosiy maqsadi talabalarga faqatgina iqtisodiy bilim berishdan iborat emas, balki ularda zamon talablari asosida keng ko'lamdagi iqtisodiy savodxonlikni rivojlantirishdir. Chunki bugungi iqtisodiy savodxonlik har bir mutaxassis: ilmiy xodim, pedagog, shifokor, muhandis va boshqalarning amaliy faoliyatda muhim ahamiyatga ega ekanligini hayotning o'zi ko'rsatib turibdi. Bu dolzarb masalani hal etish uchun esa, ta'lim muassasalari, ayniqsa, kasb-hunar kollejlari iqtisodiy ta'lim-tarbiya berishning zamonaviy texnologiyalarini ishlab chiqish, pedagogik izlanishlar olib borish zarur. Ana shundan kelib chiqqan holda biz noiqtisodiy yo'nalishdagi noiqtisodiy OTM talabalariga iqtisodiy ta'lim berish, ularning iqtisodiy savodxonligini rivojlantirish muammosini ilmiy-pedagogik nuqtai-nazardan o'rganish zarur ekanini alohida ta'kidlab o'tmoqchimiz. Bu pedagogik o'quv jarayoni mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Respublikamizda bozor munosabatlarini qaror toptirish sharoitida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari talabalariga iqtisodiy ta'lim-tarbiya berish masalalarini o'rganish maqsadida keyingi yillarda iqtisodiy yo'nalishdagi

fanlar bo'yicha yaratilgan dasturlar, darsliklar, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, olib borilgan ilmiy-pedagogik o'quv ishlari natijalari o'rganildi. A. O'lmasov, A. Vahobov, A. Abdullaev, A. Soliev, U. Inoyatov, G. Nazarova, M. Mirsaidov, N. Yo'ldoshev, S. G'ulomov, V. G. Matveev, B. T. Salimov, H. T. Ahmadxo'jaev, N. Sanaev, N. Kamolova va boshqa ko'plab iqtisodchi-olimlar o'z ishlarida o'rta iqtisodiy OTM talabalariga iqtisodiy bilim berish muammosini yoritganlar.

N. Sanaev, G'. Sanaev, A. N. Abdullaev, A. A. Ismoilov, A. I. Ishnazarov, A. Ergashev, H. Aybeshov, X. Abdullaeva, H. Madrahimov, R. Madrahimova, T. Tashmurodov va boshqalarning ishlari iqtisodiy ta'lim berishning amaliy masalalarini, kasbiy-iqtisodiy bilim berish muammolarini yoritishga bag'ishlangan.

Iqtisodiy ta'lim berish metodikasi va unga yangi pedagogik texnologiyalarni tadbiq etish muammolari bilan esa A. O'lmasov, N. Xo'jaev, O'. Rashidov, U. I. Inoyatov, R. Hakimov va boshqalar shug'ullanishgan.

Umuman, aytish mumkinki, iqtisodiy ta'lim-tarbiya berish iqtisodiy savodxonlik muammosi butun dunyo iqtisodchilari, sotsiologlari, faylasuflari, psixologlari, pedagoglarini doimo qiziqtirib kelgan muammolardan biridir. Barcha soha olimlari iqtisodiy savodxonlikning jamiyat taraqqiyoti uchun o'ta muhim va zarurligini e'tirof etadilar.

Iqtisodiy ta'lim-tarbiya masalalarining uzoq tarixiy ildizlari bo'lib, sharq mutafakkirlari Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Amir Temur, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Jaloliddin Davoniy, Husayn Voiz Koshifiy, Ahmad Donish, Abdulla Avloniy asarlarida ham aks etgan. Tarixiy meroslarimizda iqtisodiy g'oyalarning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati va muhimligini, shuningdek, yoshlarga iqtisodiy ta'lim berish, ularni «ustoz-shogird» tamoyili asosida tarbiyalash masalalari haqida ko'plab fikr-mulohazalar bayon etilgan.

E. Foziev, B. Qodirov, M. Davletshin, V. Karimova, L. S. Vigotskiy, S. L. Rubinshteyn va boshqalar o'z ilmiy ishlarida talabalarda umumiy savodxonlik va aqliy qobiliyatni rivojlantirish, ularni kasbga yo'naltirishning

psixologik asoslari haqida e'tiborga molik fikrlarni ilgari surishgan bo'lishsa, R. Jo'raev, H. Rashidov, A. Xodjaboev, K. Mirsaidov, Yo. Haydarov, N. Sayidahmedov, N. Nishonaliev, E. Choriev, N. Shodiev, R. Hakimov, D. Zohidovalar ilmiy-o'quvlarida talabalarda kasbiy bilim va malakalarni rivojlantirish, malakali kadrlar tayyorlash masalasini ilmiy-uslubiy jihatdan tahlil etishgan.

Lekin talabalarda iqtisodiy savodxonlikni rivojlantirish muammosi maxsus o'rganilmagan. Bundan tashqari, umumiy o'rta ta'lim maktablari va kasb-hunar kollejlari qatnashida iqtisodiy ta'lim berishdagi izchillik va muvofiqlikni o'rganish ham muhim masaladir. Zero, bugungi kunda zamonning mutaxassislariga bo'ladigan talabi tobora ortib bormoqda, jamiyatdagi iqtisodiy-ijtimoiy shart-sharoit, iqtisodiy munosabatlar, iqtisodiy tizimlar jadal rivojlanmoqda. Shu bois kasb-hunar kolleji bitiruvchilarida iqtisodiy savodxonlikning shakllanish jarayoni, ularda iqtisodiy savodxonlikni rivojlantirishning shakl va uslublari, yosh avlodni amaliy mehnat faoliyatiga tayyorlash va boshqa masalalar chuqur tahlil etilishi maqsadga muvofiq.

Albatta, boshqa soha olimlari ham iqtisodiy tafakkur, aqliy qobiliyat, iqtidor yangilik yaratish, kashfiyotlar asosi ekanini isbotlashga harakat qiladilar. Bu ularning kasb-hunar ta'limi nazariyasi va amaliyoti, kasbiy ta'lim, mehnat ta'limi, kasbga yo'naltirish muammolariga ilmiy yondashuvlarida namoyon bo'ladi.

Kasb-hunar kollejlari qatnashida ta'lim sifatini boshqarish va nazorat qilishning nazariy va tashkiliy-uslubiy asoslari U. I. Inoyatov tomonidan o'rganilgan. R. R. Hakimovning ilmiy-o'quv ishining ob'ekti-iqtisodiy OTM talabalarida tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish jarayonidir. Xususan, olim N. Kamolova pedagogika kollejlari qatnashida iqtisodiy bilim va ko'nikmalarni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini umumiy pedagogik nuqtai-nazardan o'rgangan bo'lsa, X. Xudoyqulov boshlang'ich sinf o'quvchilarini iqtisodiy tarbiyalash masalalarini o'rganish bo'yicha ilmiy-pedagogik o'quv ishlari olib borgan. Lekin gap shundaki, yuqorida nomlari tilga olingan

olimlarning birortasi ham o'z ishida noiqtisodiy yo'nalishdagi noiqtisodiy OTM talabalarida iqtisodiy savodxonlikni rivojlantirish muammosi, umuman, iqtisodiy savodxonlik masalasi bo'yicha mutlaqo so'z yuritmaydi. Shuningdek, boshqa ilmiy-o'quvlarda ham yuqoridagi muammo, ya'ni iqtisodiy savodxonlik tushunchasi, uni rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik va iqtisodiy-kasbiy ahamiyati, ilmiy-uslubiy, psixologik-pedagogik asoslari kasbiy faoliyat bilan uzviy tadqiq etilmaydi. Holbuki, iqtisodiy savodxonlik muammosi xorijiy mamlakatlar, xususan, Rossiyaning pedagogik olimlari tomonidan turli yo'nalishlarda tadqiq etilgan. 8-sentyabrning butun dunyo miqyosida Xalqaro iqtisodiy savodxonlik kuni sifatida nishonlanishi ham bejiz emas, albatta.

Bularning barchasi iqtisodiy ta'lim muammosini chuqur tahlil etishni taqozo etadi. Vaholanki, noiqtisodiy yo'nalishdagi noiqtisodiy OTM talabalariga iqtisodiy bilim berish metodlarini ishlab chiqish muammosi, ularda iqtisodiy savodxonlikni rivojlantirish masalasi bizning pedagogikamizda hali nazariy jihatdan ham, amaliy jihatdan umuman tadqiq etilmagan. Masalaning boshqa tomoni ham borki, bu bizda ilgari talabalarga bozor munosabatlari bo'yicha iqtisodiy ta'lim-tarbiya berilmagani, shu bois bu borada iqtisodiy ta'limning moddiy, ilmiy-uslubiy va pedagogik asoslari ishlab chiqilmaganligi bilan bog'liq. Ta'lim sohasidagi islohotlarning dastlabki yillarda faqat A. O'lmasovning kollej o'qituvchilari va iqtidorli talabalari uchun «Iqtisodiy bilim asoslari»dan bilim berish bo'yicha uslubiy qo'llanmasi yaratilgan edi, xolos. Garchand keyingi yillarda noiqtisodiy OTM talabalari uchun iqtisodiy yo'nalishda qator darslik va qo'llanmalar yaratilgan bo'lsa-da, lekin ularning ko'pchiligida kasbiy-iqtisodiy va iqtisodiy savodxonlik masalalari deyarli tilga olinmaydi. Bu va boshqa muammolar kasb-hunar ta'limi tizimida o'quvchilarga iqtisodiy bilim berish masalasini chuqur o'rganish, ilmiy-uslubiy qo'llanmalar va tavsiyalar yaratish, ilmiy-o'quv ishlari olib borish borasida hali juda ko'p ishlar qilinishi lozimligini ko'rsatadi.

Noiqtisodiy yo'nalishdagi kasb-hunar kollejlari iqtisodiy fanlarni o'qitish, xususan, talabalarning iqtisodiy savodxonligini rivojlantirish nazariyasi va

metodikasiga doir o'quv ishlarining deyarli olib borilmaganini, noiqtisodiy yo'nalishdagi noiqtisodiy OTM talabalari ta'lim oluvchilarida iqtisodiy savodxonlikni rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqish zarurat ekanini, shuningdek, mazkur muammo echimini topish borasidagi izlanishlar, shakllangan zamonaviy ilmiy-pedagogik tasavvurlarni e'tiboga olib, ko'p yillik tajribalar asosida biz ushbu o'quv qo'llanmani yaratishni maqsad qilib qo'ydik.

I-BOB. OTM TALABALARIDA IQTISODIY SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

1.1. Iqtisodiy savodxonlikning tarixiy-milliy va ijtimoiy asoslari tahlili

Insoniyatning tarixiy taraqqiyoti ko'rsatadiki, butun dunyoda savodxonlik masalasiga katta e'tibor berilgan. Savodxonlik aholi savodxonligi, savodxonlikni oshirish, savodsizlikni tugatish va boshqa tushunchalar bunga misol bo'la oladi. Ammo ba'zi pedagog olimlarning e'tirof etishlaricha, keyingi yillarda ayrim guruhdagi yoshlarning savodxonlik darajasi biroz bo'lsa-da pasaygan. Pomir davlat universiteti dekani, filologiya fanlari doktori Yelina Kotsovaning e'tirof etishicha, «bugungi yoshlar - vedeoavlodlardir». Bunga u videokliplarni, ommaviy axborot vositalarida yo'l qo'yiladigan xatolarni, haqiqiy savodxon o'qituvchilarning kamayganligi va ayrim ota-onalarning farzandlari o'qishiga unchalik e'tibor bermasligini sabab qilib ko'rsatadi. Uning nazarida savodxonlikni oshirish yo'llaridan biri bu - mashq (trening)dir.

Savodxonlik, xususan, iqtisodiy savodxonlik qadimda nafaqat savdogarlarga, jamiyatni boshqaruvchilarga, din ahillariga, balki xo'jalik faoliyati bilan mashg'ul bo'lgan barcha shaxslarga o'ta zarur bo'lgan. Buni qadimgi yodgorliklar, obidalar, qo'lyozmalar va boshqa manbalar tasdiqlab beradi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish mamlakat aholisi va ayniqsa, yoshlarning iqtisodiy bilimini oshirish hamda insonparvarlik g'oyalari asosida yangicha fikrlaydigan shaxs tadbirkorlarni rivojlantirish masalasini qo'ydi.

Zero, mamlakatni rivojlantirish uchun iqtisodiy ta'lim-tarbiyaning tarixiy ildizlarini, zamonaviy iqtisodiyot, biznes, marketing asoslarini yoshlarga chuqur o'rgatish zarur.

Tarixiy ma'lumotlardan ayonki, buyuk ajdodlarimiz iqtisod va iqtisodiy ta'lim-tarbiyaga oid ko'plab g'oyalarni ilgari surishgan. Chunki iqtisod har bir kishi, har bir oila, jamoa va jamiyat hayotida muhim o'rin tutadi. U nafaqat insonning bugungi hayotini, balki kelajagini ham belgilab beradi. Axir, xalqimiz «etti o'lchab, bir kes», «oldin iqtisod, keyin siyosat», degan hikmatlarni bejiz

aytmagan. Demak, jamiyatda iqtisodiy tafakkurni rivojlantirish katta ahamiyatga ega ekanligini ajdodlarimiz juda yaxshi bilishgan. Qadimgi zardushtiylik dinining muqaddas kitobi bo‘limish «Avesto»da, islom ta’limotida, «Buyuk ipak yo‘li» haqidagi ilmiy-badiiy asarlarda iqtisodiy ta’lim-tarbiyaga oid ko‘plab mulohazalar ilgari surilgan.

Iqtisodiy tafakkurni rivojlantirishda iqtisodiy ta’lim-tarbiyaning tarixiy ildizlari — ulug‘ ajdodlarimizdan meros bo‘lib qolgan o‘lmas asarlar bizga bebaho manba bo‘lib xizmat qiladi. O‘rta Osiyoda iqtisodiy fikrlarning shakllanishi buyuk ensiklopedist-allomalar va mutafakkirlar - Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy, Zahriddin Muhammad Bobur va boshqalarning nomi bilan uzviy bog‘liq.

Ular o‘z asarlarida mehnatning ijtimoiy taqsimotiga katta o‘rin ajratishgan. A. N. Forobiy boyliklarni insonning ishlab chiqarishda ishtirokiga qarab adolatli taqsimlash tarafdori bo‘lgan, urush va qullikni qarolagan, davlatlararo iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish g‘oyasini ilgari surgan [16, 144-b].

Abu Rayhon Beruniy inson ehtiyojini faqat pul, mol-dunyo bilan emas, balki mehnat, izlanish, yaratish, qurish, bunyod qilish, ilm olish, bilish orqali qondirish lozimligini e’tirof etadi.

Mutafakkir Yusuf Xos Hojib o‘zining «Qutadg‘u bilig» (Saodatga eltuvchi bilimlar) asarida bola tarbiyasi haqida to‘xtalib shunday yozadi: «Farzand qanchalik bilimli, aqlli-hushli bo‘lsa, iqtisodni yaxshi o‘zlashtirsa, ota-onaning yuzi shunchalik yorug‘ bo‘ladi» [124, - 250 b].

Yuqorida aytilgan fikrlar asosida ulug‘ bobokolonlarimiz ota-onalarning o‘z farzandlariga kasb-hunar va bilim o‘rgatish kerakligini ta’kidlaydilar. Toki ular o‘zlari qiziqqan kasb va hunarni o‘rganib, hayotdan ta’lim olib, bilimdon bo‘lsinlar, chinakam insoniy go‘zallikka erishsinlar, boqimandalikka, yalqovlikka, o‘g‘irlik va boshqa yomon ishlarga o‘rganmasinlar.

Bugungi kunda davlatimizning ta’lim-tarbiya muammosiga, ayniqsa, ta’limning yangi turi bo‘lmish o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limiga juda katta

e'tibor berayotgani, zamonaviy kollejlarni qurilayotgani yoshlarimizga bo'lgan g'amxo'rlik timsolidir. Ulug' allomalarimizning e'tiroficha, kasb-hunar-daromad manbai. Ammo kasb-hunardan dunyoda faqat boylik va mol-dunyo to'plash uchun emas, ezgulik va vatan taraqqiyoti uchun foydalanish kerak. Demak, boylik ham dono hunar egalariga va bilimdon tadbirkorlarga munosibdir.

Ulug' shoirimiz Alisher Navoiyning iqtisodiy g'oyalari uning «Chor devon» «Hamsa», «Mahbubul-qulub», «Vaqfiya», «Munshaat» va boshqa asarlarida o'z ifodasini topgan. Uning fikricha, mehnat — jamiyatning asosiy belgisi, uni ishlab chiqaruvchilar rivojlantiradi. Shuning uchun ularga ortiqcha soliqlar solinmasligi, savdo-sotiqning rivojlanishi uchun bozorlardagi mahsulotlar bahosi me'yorida bo'lishini ta'minlash lozim. Bundan ko'rinadiki, shoir jamiyat boyligining manbaini mehnatda deb biladi va soliqlarni oshirishga qarshi chiqadi, moliyaviy tartib-intizomni mustahkamlash, savdo-sotiqni rivojlantirish tarafdori. A. Navoiyning fikricha, adolatli iqtisodiy siyosat feodal jamiyatidagi qiyinchiliklar, ziddiyat va muammolarni bartaraf qilish imkonini beradi [15, 244 b].

A. Navoiy o'zining «Mahbubul-qulub» asarida jamiyatning rivojlanishida savdo-sotiq, tijorat ishlarining ahamiyatini alohida ta'kidlaydi. «Savdogar, — deb yozadi buyuk allomamiz, — yolg'iz foydani niyat qilmasligi», «savdo qilib foyda topaman», «mol va pul ko'paytiraman deb ortiqcha kema surmasligi», «mol va pul ko'paytiraman deb jonsarak bo'lmasligi kerak», «savdogar boj-xiroj berish o'rniga o'z molini yashirib, o'z obro'sini to'kmasa yoki topgan-tutganini merosxo'rlari sotib sovrishi uchun to'plab qo'ymasa yoki biror yomon hodisa qo'zg'ash uchun sarflamasa, jamg'arma yaxshi bo'ladi» [15, 244 b].

A. Navoiyning savdogarlar to'g'risidagi ushbu so'zlari xuddi bugungi kundagi tijoratchilar uchun aytilgandek tuyuladi. Yuqorida bayon etilgan fikrlarga asoslanib, iqtisodiy ta'lim jarayonida talabalarga quyidagi xulosalarni bayon etish mumkin:

*Birinchi*dan, savdo, bozor, tijorat, mahsulot ishlab chiqarish, muomala jarayoni (oldi-sotdi) iqtisodiyotni rivojlantirishda etakchi ahamiyat kasb etadi, tovarlar taqchilligini tugatishga xizmat qiladi.

*Ikkinchi*dan, savdo-sotiq davlat byudjeti daromadining manbai, mamlakat iqtisodiy qudratining tayanchlaridan biridir. Zero, savdogarlar davlat xazinasiga boj-xiroj to‘lab turishlari bilan moliyaviy munosabatlarda muhim o‘rin tutadilar.

*Uchinchi*dan, ulug‘ shoir savdogarlarni insofga, diyonatga chaqiradi, ulardan faqat o‘z foydasini ko‘zlab ish tutmasligini talab qiladi.

Albatta, bunday mulohazalar ma’nosini kasb-hunar kollejlarini bitirib, iqtisodiyotning turli tarmoqlarida faoliyat ko‘rsatadigan yosh mutaxassis-tadbirkorlarga tushuntirish foydadan xoli bo‘lmaydi.

Tijoratning muhim nazariy asoslaridan biri qiymat qonuni bo‘lib, qiymatning o‘lchovi puldir. A.Navoiy baho mahsulot etishtirishga sarflangan mehnatga emas, balki talab-taklifga ham bog‘liq ekani haqida fikr yuritadi. Shu bilan birga, ayrim savdogarlar o‘z tashabbusi bilan narx-navoni haddan tashqari oshirib yuborganini qayd qiladi. Tovar-mahsulot narxini bunday oshirgan sotuvchilarga nisbatan jazo choralarini ko‘rishni ko‘zda tutib, insof va adolat tarozisi bilan narxni tartibga solishni tavsiya qiladi. A. Navoiy mamlakat ichki bozorining rivojlanishi tashqi bozorga bog‘liqligini ko‘rsatib o‘tadi. Shu munosabat bilan shoirning Astroboddan Husayn Boyqaroga yo‘llagan xati diqqatga sazovardir. U xatda shunday yozilgan:

«Yana ulkim, devoniylarga hukm bo‘lsakim, atrofdin kelgan bozurgon (savdogar)larning jonidan rioyat qilsalar (ularning manfaatiga zarar etkazilmasin[15, 244 b].

Mashhur davlat arbobi va ulug‘ shoir Zaxriddin Muhammad Bobur o‘zining «Mubayn» nomli asarida iqtisodiy faoliyat va mehnat haqidagi fikrlarini ilgari surgan. Bu asar aholidan soliq undirishda asosiy qo‘llanma vazifasini

o‘tagan. Unda soliq tizimining tamoyillari bayon etilgan, soliq olish tartibi va hajmi ko‘rsatib berilgan.

Ali Abu ibn Sino o‘zining buyuk «Tib qonunlari» asarida iqtisodiy tarbiya haqida so‘z yuritib, bola tarbiyasida mehnatning ahamiyatiga alohida urg‘u beradi. «Agar oila boshlig‘i, — deydi ibn Sino, — tajribasizlik yoki nohaqlik qilsa, u oila a‘zolarini yaxshi tarbiyalay olmaydi va uning oqibatida bundan-da yomon natijalar kelib chiqadi». Uning fikricha, bola tarbiyasi yaxshi yo‘lga qo‘yilsa, oila baxtli bo‘ladi. Oilaning eng muhim vazifasi bola tarbiyasi hisoblanadi [13, 302 b].

Olim o‘zining dono fikrlari bilan barcha boyliklar halol mehnat bilan ortirilishi, ota-onalar o‘z farzandlarini kasb-hunarga o‘rgatishi va undan olingan daromad orqali halol yashash kerakligini, iqtisodiy faoliyatsiz, iqtisodiy savodxonliksiz muvaffaqiyatga erishish mumkin emasligini ta’kidlaydi.

Sohibqiron Amir Temur davrida xiroj yig‘ish va soliq olishda adolatli qonun-qoidalariga to‘liq amal qilingan. O‘sha davrda hosil pishib etilmasdan ilgari raiyatdan mol-xiroj olish man etilgan. Agar raiyat soliq yig‘uvchi bormasdan oldin soliqni o‘zi keltirib bersa, soliqchi yuborilmagan. Agar soliq yig‘uvchini yuborishga majbur bo‘lishsa, u holda soliqlarni buyruq berish yoki yaxshi so‘zlab olishlik, odamlarni kaltak, arqon bilan urib, so‘kmaslik zarurligi uqtirilgan. Soliq to‘lamaganlarni bandi etib, zanjir bilan kishanlashlik taqiqlangan. A. Temurdan qolgan merosni har tomonlama o‘rganib, uning dono pandu-nasihatlari ma’nosini tushunar ekanmiz, o‘sha davrda mamlakatda mehnatga bo‘lgan barcha yaroqli fuqarolarni ish bilan ta’minlash zarurligi aniq ko‘rsatilganini bilib olamiz. Bu har bir kishi qalbida g‘urur tuyg‘usini uyg‘otadi.

Mirzo Ulug‘bekning iqtisodiy dunyoqarashida pul islohoti alohida o‘rin tutadi. Shuning uchun u pul zarb qiluvchi korxonaga qurdiradi. Qizig‘i shundaki, pul birliklarining nomini ana shu korxonaga joylashgan shahar — Buxoro xalq atamasi bilan atashni lozim topadi (masalan, donaki, adliya, nimdonaki adliya, dudonaki adliya kabi). Pul birligining vazni pul qiymatiga qarab, 2,3 – 8,6 gramm og‘irlikda

berilgan. Bunday iqtisodiy tadbir mamlakatda tovar-pul munosabatlarining rivojlanishiga, xalqaro savdo ravnaqiga, milliy mulkning barqaror bo'lishiga xizmat qilgan. Ulug' bobakalonimiz Mirzo Ulug'bekning pul islohoti borasidagi birinchi tajribasi izsiz qolmadi. Mustaqil O'zbekistonimiz ham o'z milliy valyutasini chiqarishda ana shu tarixiy merosga asoslandi [145, -100 b).

Ulug' ajdodlarimizning iqtisodiy qarashlarini o'rganish nafaqat talabalarning nazariy bilimlarini boyitadi va chuqurlashtiradi, balki ularni milliy qadriyatlar, vatanparvarlik, tejamkorlik, iqtisodiy savodxonlik ruhida tarbiyalash uchun xizmat qiladi. Eng muhimi, talabalar o'sha davr xususiyati va muammolari to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'ladilar. O'tmishda ajdodlarimiz orttirgan tajribalarga tayanib, bugungi kundagi dolzarb iqtisodiy masalalar echimini topish borasida mushohada yuritishga o'rganadilar.

O'rta asrlarda islom dini Markaziy Osiyoda ilm-fan, savdo-sotiq, iqtisodiyot rivojiga katta ta'sir ko'rsatdi. U vaqtlarda iqtisodiy faoliyat yuritishda islom qoidalariga qat'iy amal qilingan. Xususan, savdo-sotiqda aldash, sudxo'rlik, birovning mulkiga xiyonat qilish katta gunoh hisoblangan. IX-XV asrlarda Markaziy Osiyo tafakkur markaziga aylandi. Bu davrlarda butun dunyoga tanilgan mutafakkirlar yashab ijod etdi. Ular asarlarida iqtisodiyot, tijorat, mulkdorlik, hunarmandchilik sirlari, qarz olish, qarz berish, meros taqsimlash, etim-yesirlarga muruvvat ko'rsatish, xayr-ehson qilish, soliq turlari va miqdori, halol mehnat qilish, kasb egallash, dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanish haqida ibratli fikrlar bayon etilgan. Ular bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgan emas.

Sharqda iqtisodiy tafakkurning rivojlanishida tarixchi va faylasuf Ibn Xaldun Abdurahmon Abu Zayd Muhammadning hissasi katta (Ibn Xoldun asli arab bo'lib, tarix taqozosi bilan Amir Temur bilan uchrashgan (unga asir tushgan) va suhbatlashgan, uning g'oyalaridan bahramand bo'lgan).

Uning mashhur «Kitob ul-ibar» («Ibratli misollar kitobi») asarida tarixiy-ijtimoiy taraqqiyotning moddiy tamoyillarga asoslanishi, hamkorlikdagi ishlab chiqarish faoliyati, «jamiyatning moddiy tovarlar ishlab chiqaruvchilar jamoasidan

iborat» ekani, hunarmandchilik, fan va san'atning rivojlanishi mehnat unumdorligining o'sishi bilan bog'liqligi haqida mulohazalar bildirilgan. U hunarmandlar o'z kasbiy malakasini doimo oshirib borishi, iqtisodiy, diniy va dunyoviy ilmlardan xabardor bo'lishini e'tirof etib, ular uchun 12 banddan iborat axloqiy qoidalar ishlab chiqqan. Unda hunarmandlarning ust-boshini toza tutishi, pok vijdonli bo'lishi, o'z vaqtida toat-ibodat qilishi, piru-ustozdan yordam so'rashi, olimlar bilan do'st bo'lishi, hisob-kitob ishlarini to'g'ri tashkil etishi, ertalab va kechqurun shogirdlarini o'qitishi, xushmuomalali bo'lishi, ehson-sadaqa berishi, ustaxonasini toza tutib, huzuriga keluvchilarni izzat-ikrom bilan kutib olishi va hurmat bilan kuzatishi haqida fikrlar bayon etilgan [134, 29-b].

Ibn Xoldun Abdurahmon e'tirof etishicha, «oddiy» va «murakkab» mehnatni, yaxshi va yomon buyumni turlicha baholash, «zaruriy» va «qo'shimcha mahsulot», «mehnat» va mehnat «qiymati» tushunchalarini bir-biridan farqlash lozim. U tovarning qiymati va iste'mol qiymati tushunchalarini ta'riflaydi. Uning fikricha, oldi-sotdi bitimida teng ayirboshlash qoidasiga amal qilinishi kerak. Bunda sarflangan mehnat e'tiborga olinadi. «Agar mahsulot hunarmandchilik ishi natijasi bo'lsa, uning bahosi sarflangan mehnat qiymatiga teng», «daromad qiymati» esa, sarflangan mehnatga bog'liq bo'ladi. Buyumning boshqa buyumlar orasida tutgan o'rnini uning kishiga qanchalik zarurligi bilan belgilanadi. Tovar qiymatiga xom-ashyo qiymati, mehnat vositalari, oraliq tovar ishlab chiqaruvchilar mehnatining qiymati kiradi. U tovar-pul munosabatlarini tahlil etib, narxlar bozorga olib chiqilgan tovarlarga bo'lgan talab va ehtiyojga, sotuvchi bilan xaridorning o'zaro manfaatli aloqalariga bog'liqligini, shuningdek, soliq tizimini tartibga solish katta ijtimoiy ahamiyatga ega ekanini ta'kidlaydi.

Demak, islom huquqshunosligida tovarning iste'mol qiymati tan olingan, uning qiymati va bahosi bir-biridan farqlangan.

Nizom ul-Mulkning «Siyosatnoma» asarida hukmdorlar, amirlar, amaldorlar va qozilarning mansabini suiste'mol qilib, isrofgarchilikka yo'l qo'yishi, soliq islohoti, davlat mablag'larini saqlash va sarflash, hisob-kitob ishlari haqida aniq fikrlar bildirilgan.

XIX asrda yashab ijod etgan Tilla Shayx ota ham Toshkentdagi Tilla Shayx masjidini o'zining mablag'iga qurdirib, uni mo'min-musulmonlar ixtiyoriga bergan. Bunday xayrli ishlar islom dini sharoitida savdogarlar va ulug' insonlarning oddiy xalqqa hurmati va yaxshilikka bo'lgan mustahkam e'tiqodidan dalolat beradi.

Yoshlarga iqtisodiy ta'lim-tarbiya berishda ulug' zotlarning ezgu amallari va ishlarini ibrat qilib ko'rsatmoq lozim. Buning uchun esa oilada, xususan, ta'lim muassasalarida iqtisodiy ta'lim jarayonida iqtisodiy savodxonlikning tarixiy-milliy va ijtimoiy ildizlari haqida to'laroq ma'lumot berish lozim.

Albatta, Sobiq sho'rolar ittifoqi davrida ham vatanimiz iqtisodiy ta'limi ancha rivojlandi. Lekin bunda iqtisodiyotni boshqarish buyruqbozlikka asoslangan bo'lib, iqtisodiy faoliyat reja asosida va markazlashtirilgan holda olib borilardi. O'zbekiston o'z mustaqilligiga erishgach, iqtisodiy g'oya mutlaqo yangi mazmun kashf etdi. Bu mamlakatimining birinchi Prezidenti I. A. Karimovning bozor iqtisodiyotiga o'tishning «O'zbek modeli»ning besh asosiy tamoyilida yorqin namoyon bo'ladi. Unda O'zbekiston Respublikasining bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos xususiyatlari, mavjud muammolarni bartaraf etishning yo'llari batafsil ifodalab berilgan. Bular:

- iqtisodning siyosatdan xoli bo'lishi;
- davlat – bosh islohotchisi va tashabbuskor ekanligi;
- qonun ustuvorligini ta'minlash –iqtisodiy islohotlarning asosi;
- kuchli ijtimoiy siyosat –iqtisodiy islohotlar kafolati;
- bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tish–O'zbekiston iqtisodiyotini isloh qilish modelining asosi.

O'zbekiston Respublikasining bozor munosabatlariga o'tishning «O'zbek modeli»ning nazariy asoslari birinchi Prezidentimiz I. A. Karimovning «O'zbekiston. Yangilanish va taraqqiyot yo'lidan», «O'zbekiston – kelajagi buyuk davlat», «O'zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o'tishining o'ziga xos yo'li», «O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lidan» kabi asarlarida keng yoritilgan.

Shuningdek, bugungi kunda mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan ilgari surilayotgan «ochiq iqtisodiyot» tamoyili hamda innovatsion g'oya va texnologiyalar asosida tezkor rivojlanish dasturlarini ishlab chiqishga qaratilgan bir qator asarlarida taraqqiyotimizning nazariy va amaliy asoslari yanada boyitib borilmoqda. Bu dasturiy asarlar iqtisodiyot nazariyasining rivojlanishiga va iqtisodiy savodxonlikning ortishiga katta hissa qo'shadi.

Albatta, mustaqillikdan keyin iqtisodiy ta'lim-tarbiya muammosiga bag'ishlangan qator kitoblar nashr etildi va ilmiy maqolalar e'lon qilindi. Bunda olimlardan S. S. G'ulomov, Sh. Z. Abdullaeva, A. Qodirov, J. Jalolov, N. Tuxliev, A. Chjen, N. Beknzov va boshqalarning nomini tilga olib o'tish mumkin.

Mustaqillikdan keyin O'zbekiston Respublikasining hamdo'stlik mamlakatlari, xususan, Rossiya Federatsiyasi bilan do'stona munosabatlari, turli sohalardagi o'zaro aloqalari tobora chuqur ildiz otmoqda. Biz buni dunyodagi nufuzli oliy o'quv yurtlaridan biri hisoblangan G. A. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot akademiyasi misolida ko'rishimiz mumkin. U Rossiya va O'zbekistonda iqtisodiyot ta'limini rivojlantirishda ko'prik vazifasini o'taydi.

Hozirda iqtisodiyot ta'limida muhim ahamiyatga ega bo'lgan «Iqtisodiyot nazariyasi» kitobi Rossiyaning ko'zga ko'ringan olimlari, xususan, akademiya prezidenti, akademik, V. I. Vidyapin, akademik G. P. Juravlyova, shuningdek, o'zbekistonlik olimlar, akademiklar, S. S. G'ulomov, M. Sh. Sharifxo'jaev, Q. Abdurahmonov hamkorligida yaratilgan. Bu kitobdan har ikki davlat iqtisodchi mutaxassisleri keng foydalanadilar.

Jamiyatning ijtimoiy taraqqiyotida iqtisodiy savodxonlikning o'rni beqiyosdir. Ayniqsa, hozirgi bozor iqtisodiyot sharoitida uning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Iqtisodiy savodxonlikning ortishi esa, iqtisodiy ta'limning rivojlanayotgani va uning to'g'ri yo'lga qo'yilayotganidan dalolat beradi. Aslida boshqarish usullarida fan-texnika yutuqlari va ilg'or tajribalaridan foydalanib, samarali mehnat qila bilish ham iqtisodiy savodxonlik darajasini belgilaydi. Zero, keng ma'noda, iqtisodiy savodxonlik moddiy va ma'naviy boyliklarni ishlab

chiqarish bilan bog‘liq. Chunki ularsiz inson ijtimoiy sub’ekt sifatida rivojlana olmaydi.

Hozirgi zamon jamiyatidagi iqtisodiy savodxonlik iqtisodiy munosabatlardagi teran o‘zgarishlarni istifoda etadi. Buni iqtisodiy munosabatlar va iqtisodiy faoliyat mazmuni ko‘rsatib turibdi. Iqtisodiy hayot iqtisodiy savodxonlik bilan o‘zaro chambarchas bog‘liq ekan, demak, hamisha jamiyat a‘zolari, xususan, talaba-yoshlarning iqtisodiy savodxonligini rivojlantirish dorzarb masalalardan biri bo‘lib qolaveradi.

Ammo gap shundaki, jamiyat a‘zolarida iqtisodiy savodxonlikni rivojlantirish juda murakkab va ko‘p qirrali jarayondir. Bunda iqtisodiy ta’lim va tarbiyaning izchilligi va uzviyligi muhim o‘rin tutadi.

1.2. Talabalarda iqtisodiy ta’lim berishning hozirgi holati

O‘zbekiston o‘zining ijtimoiy–iqtisodiy rivojlanishining yangi bosqichiga qadam qo‘ydi. Uning taraqqiyotini ta’limning ko‘p qirrali va keng qamrovli takomillashuviz tasavvur qilish qiyin. Ta’lim mazmunini takomillashtirish va uning samaradorligini oshirish Kadrlar tayyorlash milliy dasturi mohiyatidan kelib chiqadi. Erkin fikrlovchi, ijodkor, milliy mustaqilligimiz g‘oyalariga sodiq bo‘lgan barkamol shaxsni tarbiyalash esa, uning iqtisodiy savodxonligini oshirish bilan uzviy bog‘liq. Ana shu nuqtai-nazardan qaraganda har tomonlama etuk shaxsni tarbiyalab voyaga etkazishda ta’lim samaradorligi alohida ahamiyat kasb etadi.

Uzluksiz ta’limning yangi turi bo‘lmish o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi tizimida bo‘lajak kichik mutaxassislarning iqtisodiy savodxonligini oshirish dolzarb muammo hisoblanadi.

Garchand talabalarda iqtisodiy bilimlarni rivojlantirish, iqtisodiy madaniyatni rivojlantirish, iqtisodiy savodxonlikni rivojlantirish, tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish tushunchalari bir-birlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lsa-da, lekin ular ma’no-mazmun jihatdan bir-birlaridan keskin farq qiladi. Ularning har biri muammo sifatida o‘rganish uchun o‘quv ob’ekt bo‘la oladi. N. Ye.

Yasenkonning e'tirof e'tishicha, iqtisodiy savodxonlik talabaning umumiy savodxonligining tarkibiy qismi bo'lib, uning jamiyat xo'jalik faoliyatida ongli ravishda ishtirok etishiga imkon beruvchi shaxsiy sifatlari, shuningdek, iqtisodiy bilimi, ko'nikma va malakasi darajasini belgilaydi [147, -345 b]. Shuningdek, iqtisodiy savodxonlik yoki iqtisodiy ma'rifat tushunchasi S. Garaev, Ye. Yu. Nikonova, A. S. Nisimchuk va boshqalarning ishlarida qarab o'tilgan.

Bundan tashqari, G. P. Basharina, E. S. Belyaeva, L. La, N.B. Melnikova, V. M. Manoxov, Sh. A. Muzentov va boshqa ko'plab olimlarning ishlari fakultativ mashg'ulotlarda matematik hisob-kitoblarni qo'llash orqali talabalarning iqtisodiy savodxonligini oshirish masalasiga bag'ishlangan.

Iqtisodiy savodxonligini oshirish deyilganda talabalarga faqat chuqur va murakkab iqtisodiy bilimlar berishni emas, balki ularni axborot-kommunikatsion texnologiyalardan va zamonaviy ta'lim usullaridan foydalanib, zaruriy o'quv materiallari asosida o'qitish, mustaqil bilim olish va amaliy faoliyatga o'rgatish nazarda tutiladi. Chunki endilikda talabalarga minimum bilim berish va ularni turli xil amaliy faoliyatda qo'llash uchun maksimum imkoniyat yaratish tamoyiliga amal qilinmoqda. Ushbu hol ham pedagogik, ham didaktik jihatdan dolzarb hisoblangan muammolarni yuzaga keltirdi. Bu esa, pedagogika fanida erishilgan yutuqlarni yangicha sharoitda ijodiy qo'llashni taqozo etadi.

Noiqtisodiy OTM talabalarining iqtisodiy savodxonligini oshirish yo'llarini izlash, ularni amalga joriy etish iqtisodiy ta'lim nazariyasi va uslubiyatining dolzarb muammosi bo'lib turibdi. Talabalarning iqtisodiy savodxonligini oshirish muammosi keng qamrovli bo'lib, u o'ziga xos echimlarini talab etadi.

Bugungi kunda nafaqat umumiy o'rta ta'lim maktablari, balki noiqtisodiy OTM talabalining ham iqtisodiyot fanidan olgan bilimi davr talabi darajasida emas. Bu muammoning sabablarini ilmiy-pedagogik nuqtai-nazardan tahlil etish va iqtisodiy savodxonligini oshirish zaruratini ko'rsatadi.

Noiqtisodiy OTM talabalarining iqtisodiy savodxonligini oshirishdan maqsad ularning fanga bo'lgan qiziqishini rivojlantirish, ularni vatanparvarlik va insonparvarlik ruhida tarbiyalashdir. Ilmiy-o'quv ishimizning asosiy g'oyasi

ham iqtisodiy savodxonligini oshirish orqali barkamol avlodni tarbiyalashga hissa qo'shishdan iborat.

Talabalarga iqtisodiy ta'lim-tarbiya berish muammosi ko'pgina pedagog-olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Biz o'z pedagogik faoliyatimizda orttirgan tajriba va kuzatishlarimizga asoslanib, muammoni o'z nuqtai-nazarimizdan tadqiq etishga harakat qildik.

Ilmiy adabiyotlar va dissertatsiya ishlarini tahlil etish natijalari shuni ko'rsatdiki, birinchidan, bugungi kunda ta'lim mazmuniga, o'qitish uslubiyatiga, amaliy ta'limga talab mutlaqo o'zgargan, ikkinchidan, talabalarning iqtisodiy savodxonligini oshirish ko'p qirrali bo'lib, kadrlar tayyorlash milliy dasturi va yangi yaratilgan davlat ta'lim standartlari asosida pedagogik muammo sifatida o'rganilmagan, uchinchidan, uzluksiz ta'lim tizimidagi mustaqil ta'lim turi bo'lmish o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimi, xususan, noiqtisodiy yo'nalishdagi noiqtisodiy OTM talabalarining iqtisodiy savodxonligini oshirish masalasi tadqiq etilmagan.

Kasbga oid fanlapni o'qitishga bag'ishlangan ilmiy-metodik ishlapni o'rganish natijalari ko'rsatadiki, o'quv mashg'ulotlapini o'qitishning yangi usullapidan foydalanib, aniq amaliy ishlanmalapga tayangan holda tashkil etish lozim. Talabalar iqtisodiy savodxonligining shakllanish darajasi shundagina jadal kechadi. Bu esa, ta'lim muassasalarida iqtisodiy yo'nalishdagi dapsliklapning jiddiy pavishda qayta ishlab chiqilishini taqozo etadi. Kelgusida yapatiladigan o'quv qo'llanmalap, ayni paytda mavjud qo'llanmalapdan tuzilishi va mazmuni, o'quv matepiiallapining takomillashganligi bilan fapq qilishi kepak.

Yangicha iqtisodiy fikrlash tapbiya japayonining tamoyillari, vosita va usullapini qayta ko'pib chiqishni, savodxonlikka odatdagi va zaruriy me'yor sifatida yondoshishni talab etadi. Chunki ta'lim muassasalaridagi tapbiya funksiyasi bilim bepish, hap tomonlama pivojlangan shaxsni shakllantipish kabi me'yoriy vazifalarni amalga oshirishni taqozo etadi.

Iqtisodiy savodxonlik nafaqat o'zlashtirilgan iqtisodiy bilimlar hajmi, balki ulardan amalda qanday foydalana olish uquvi bilan ham xarakterlanadi.

Biroq pedagogik o'quv natijalari shuni ko'rsatadiki, ta'lim muassasalari talaba-yoshlarida iqtisodiy savodxonlikni rivojlantirish borasida o'ziga xos qator muammolar mavjud.

*Birinchi*dan, ta'lim muassasalarida zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida iqtisodiy ta'lim-tarbiya berish metodikasi, uning usul va shakllari, didaktik ishlanmalar bugungi zamon talablari darajasida ishlab chiqilmagan.

*Ikkinchi*dan, ko'pincha iqtisodiy savodxonlik talaba-yoshlarning iqtisodiy yo'nalishdagi fan (yoki kurs)larni o'zlashtirish natijalari va pedagogik kuzatishlar natijasi orqaligina baholanadi. Holbuki bo'lajak mutaxassislarda iqtisodiy savodxonlikning yuqori darajada shakllanishi juda uzoq vaqtni taqozo etadi.

*Uchinchi*dan, iqtisodiy savodxonlikni rivojlantirish tizimi, garchand chuqur o'ylanib ishlab chiqilgan yoki aniq maqsadga qaratilgan bo'lsa-da, lekin u darhol o'z natijalarini bermasligi mumkin. Chunki uning natijalari ob'ektiv va sub'ektiv sabablarga bog'liq bo'ladi.

*To'rtinchi*dan, talaba-yoshlarning savodxonligi va shaxsining shakllanishi boshqa kishilar, oila, ijtimoiy muhit, qolaversa, butun jamiyatning ta'siri ostida kechadi.

Demak, bundan kelib chiqadiki, noiqtisodiy OTM talabalarida iqtisodiy savodxonlikni rivojlantirish vazifalarini belgilashda hozirgi vaqtda iqtisodiy savodxonlikning turli ijtimoiy-madaniy vositalar va kuchlar ta'sirida shakllanishini e'tiborga olish zarur.

Bizningcha, ushbu vazifani amalga oshirish uchun pedagogika va boshqa o'quv fanlari, xususan, iqtisodiy yo'nalishdagi fanlardan tayyorlanadigan dastur, darslik va qo'llanmalarga iqtisodiy savodxonlikni rivojlantirish bilan bog'liq mavzular, o'quv materiallari va ularning nazariy tahlillari kiritilishi zarur.

Bugungi kundagi yangicha iqtisodiy fikrlash tarzi iqtisodiy ta'lim-tarbiyani tashkil etish jarayonini, uning tamoyillari, vosita va usullarini mutlaqo qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda.

Bizning nazarimizda iqtisodiy tarbiya iqtisodiy ta'limdan bir muncha orqada qolgandek tuyuladi. Shuning uchun ham, iqtisodiy tarbiya iqtisodiy savodxonlikka

bo'lgan yangicha munosabatni o'z ichiga olmog'i lozim. Chunki iqtisodiy ta'lim-tarbiyaga faqat bilim berish, har tomonlama rivojlangan shaxsni rivojlantirish vazifalarigina emas, balki yana qator ijtimoiy-madaniy funksiyalar ham yuklanadi. Bu masalalar esa, iqtisodiy madaniyatni rivojlantirish bilan uzviy bog'liqdir.

Albatta, noiqtisodiy OTM talabalarida iqtisodiy savodxonlikning shakllanishi juda ko'p omillarga, xususan, iqtisodiy ta'lim-tarbiyaga va ayniqsa, quyidagi yo'nalishdagi amaliy faoliyatlar sifatiga bog'liq:

1. Talabalarning muomala-muloqot qila olish madaniyatini rivojlantirish orqali ularni madaniy-ijodiy faoliyat sohasida iqtisodiy savodxonlikka o'rgatish;

2. O'qituvchi va talabaning birgalikdagi iqtisodiy-madaniy faoliyati; iqtisodiy faoliyat bilan bog'liq mustaqil ishlarni tashkil etish, bashariyatning madaniy tajribasiga hissa qo'shish ehtiyojini qondirish;

3. Talabalarda keng iqtisodiy-madaniy tafakkurni rivojlantirish .

Iqtisodiy tarbiya tizimida quyidagilar nazarda tutiladi:

-iqtisodiy va mehnat tarbiyasi birligini ta'minlash, nazariyani amaliyot bilan bog'lash;

-ishlab chiqarish ta'limini, talabalarning yozgi ta'tildagi ijtimoiy foydali mehnatini iqtisodiy bilim va topshiriqlar bilan boyitish;

-sinfdan tashqari ishlarda iqtisodiy ta'lim-tarbiyani rivojlantirish (ta'lim muassasasi moddiy boyliklarini asrab-avaylash haqida suhbatlar, xo'jalik yuritish, soliq, sarf-xarajatlar, moddiy boyliklarni tejash bilan bog'liq turli musobaqalar, tadbirlar tashkil qilish).

Shubhasiz, bularning barchasi talabalar faolligini oshirib, iqtisodiy savodxonligini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Professor A. O'lmasovning ta'kidlashicha, ko'pgina o'qituvchilar iqtisodiy bilim berishning an'anaviy, ya'ni ilgari qo'llanilgan usullarni yaxshi o'zlashtirib olishgan, lekin ular o'qitishning yangi texnologiyasidan etarli darajada xabardor emaslar. Shuning uchun nazariy darslarda dialog usulini qo'llash, iqtisodiy topshiriqlarni bajarish va masalalar echish, ko'rgazma vositalaridan foydalanish, kichik guruhlar bahsini tashkil etish, videolavhalarni sharhlash, rolli o'yinlar,

amaliy o‘yinlar, kompyuter o‘yinlari, mustaqil bilim olish va boshqalar iqtisodiy ta’lim samaradorligi oshiradi [129, 3-7].

Noiqtisodiy yo‘nalishdagi ta’lim muassasalarida iqtisodiy ta’lim berish holati va mazmunini nazariy o‘rganish va mazkur ta’lim muassasalari talabalarining iqtisodiy savodxonligini rivojlantirish jarayonining tahlili muayyan muammolar mavjudligini ko‘rsatdi. Bizning nazarimizda, noiqtisodiy yo‘nalishdagi noiqtisodiy OTM talabalarida iqtisodiy savodxonlikni rivojlantirish, ularga iqtisodiy ta’lim-tarbiya berish borasidagi muammolar quyidagilardan iborat:

-noiqtisodiy yo‘nalishdagi noiqtisodiy OTM talabalarida iqtisodiy savodxonlikni rivojlantirish masalasi hali shu paytgacha maxsus tadqiq etilmaganligi, mazkur pedagogik jarayondagi ahamiyatga molik masalalarning nazariy va amaliy jihatdan o‘rganilmaganligi;

-noiqtisodiy yo‘nalishdagi noiqtisodiy OTM talabalariga iqtisodiy fanlardan saboq beradigan o‘qituvchilarning zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan qurollanmagani, o‘qitishning faol usullaridan, fanlararo bog‘liqlik va o‘zaro aloqadorlikdan samarali foydalanilmayotganligi;

-iqtisodiy ta’lim va o‘quv amaliyoti o‘rtasida mustahkam integratsiyaning shakllanmaganligi;

-talabalar bilan hozirgi zamon sharoitida iqtisodiy bilimlar va iqtisodiy savodxonlikning ahamiyatini tushuntirish borasida muntazam ishlar olib borilmasligi;

-butun uzluksiz iqtisodiy ta’lim jarayonida (bog‘cha, maktab, kasb-hunar kolleji, oliy o‘quv yurtida) ta’lim oluvchilarda iqtisodiy savodxonlikni rivojlantirish borasida tizimli tarbiyaviy ishlarning olib borilmasligi va tadbirlarning izchil o‘tkazilmasligi;

-noiqtisodiy OTM talabalarida iqtisodiy savodxonlikni rivojlantirish borasida korxonalar va tashkilotlar, muassasalar, ijtimoiy hamkorlar bilan uzviy aloqaning yo‘lga qo‘yilmaganligi;

-noiqtisodiy ta'lim muassasalari talabalariga iqtisodiy ta'lim-tarbiya berish, ularda iqtisodiy savodxonlikni rivojlantirish bo'yicha ilmiy-uslubiy adabiyotlarning juda kam yaratilganligi, iqtisodiy savodxonlikni rivojlantirish bo'yicha ijtimoiy hamkorlikning huquqiy asoslari ishlab chiqilmaganligi va boshqalar.

Zamonaviy ta'lim muassasalarida talabalarning iqtisodiy savodxonligini yanada oshirish masalasini ilmiy-pedagogik nuqtai-nazardan chuqur tahlil qilib, uning metodologik asoslarini ishlab chiqish zarurati mazkur o'quv mavzusini belgilab beradi.

Noiqtisodiy OTM talabalarining iqtisodiy savodxonligini oshirish o'qitish mazmuni va metodikasi bilan bog'liq jihatlarni qamrab oladi. Iqtisodiy ta'lim bilan bog'liq vaziyatni o'rganish, teran tahlil etish va o'z vaqtida to'g'ri xulosa qilish o'ta muhim hisoblanadi.

Talabalarning iqtisodiy savodxonligini oshiruvchi asosiy omillar, uzluksiz ta'lim bo'g'inlarida iqtisodiy ta'lim uzviyligi va izchilligi bilan bog'liq bo'lgan didaktik tamoyillarning ustuvorligi haqidagi fikr-mulohazalar tahlil etildi. Yangi turdagi o'quv muassasalarining shakllanishi, ta'lim mazmuni milliy mafkuraga tayangan holda takomillashib borayotganligiga urg'u berildi. Talabalarning iqtisodiy savodxonligini oshirish keng qamrovli didaktik jarayon sifatida qaraldi, tegishli ilmiy izlanish va adabiyotlar tahlil etildi.

Iqtisodiy ta'lim mazmunining takomillashuvi uning uzviyligini ta'minlash, yangilash, to'ldirish va o'zgartirishlar kiritishni taqozo etadi. O'quv dasturi, reja mazmuni davr talabi asosida qayta ko'rib chiqilishi zarurligi haqidagi taklif dissertatsiya matnida o'z aksini topgan. Xususan, noiqtisodiy yo'nalishidagi kasb-hunar kollejlarga moslab yaratilgan iqtisodiyot fanidan ma'ruza matnlari to'plami, o'quv reja va dasturlari ulardan keskin farq qiluvchi kasb-hunar kollej talabalari uchun ham tavsiya etilganligi «yaratilgan iqtisodiyot fani o'quv dasturidagi mavzular barcha ta'lim yo'nalishlar uchun ham o'rinli bo'laveradi», degan munozarali qarashlarni paydo qildi. Shu kabi tanqidiy yondashuvlar

umumiy oʻrta taʼlim maktablari, noiqtisodiy OTM talabalari va iqtisodiyot fani asosiy oʻquv predmeti hisoblangan kasb-hunar kollej talabalari uchun rejalashtirilgan mashqlar, topshiriqlar va masalalar tanlash jarayonida ham uchrab turganligi oʻquv jarayonida kuzatildi.

Oʻquv jarayoni davomida shu narsa aniqlandiki, birinchidan, noiqtisodiy OTM talabalarining iqtisodiyot fani taʼlim yoʻnalishlari (bank ishi, buxgalteriya, iqtisod-moliya yoʻnalishi), yaʼni talabalarning tanlagan ixtisosligini hisobga olgan holda oʻqitilsa, ikkinchidan, iqtisodiyot fanini 160 soatlik dastur asosida oʻqitiladigan yoʻnalishlarda ikkinchi oʻquv yili boshidan emas, balki birinchi bosqichdanoq oʻrgatilsa, talabalarning amaliy bilim olish samaradorligi oshadi.

Izlanish jarayonida kasb-hunar kollej talabalarining iqtisodiyot fanidan olgan bilimlari zamon talabi darajasida boʻlishi uchun: a) umumtaʼlim va oʻrta maxsus taʼlim muassasalari uchun iqtisodiyot fanini oʻqitish boʻyicha yaratilgan taʼlim standartlari oʻrtasida oʻzaro mutanosiblikni oʻrnatish; b) iqtisodiyot fanidan oʻquv dasturlari uzviyligini takomillashtirish; v) yangi oʻquv reja va dasturlar asosida yaratiladigan darslik va qoʻllanmalarining amaliy va kasbiy yoʻnalishlariga etarli darajada ekanligiga eʼtibor berish; g) alternativ oʻquv-uslubiy majmualar yaratish; d) yangi iqtisodiy dastur va qoʻllanmalar yaratish va ulardan foydalanish boʻyicha uslubiy koʻrsatmalar ishlab chiqish; e) iqtisodiyot fani darslarida talabalarning mustaqil faoliyat koʻrsatishlarini ragʻbatlantirish; yo) iqtisodiyot fanidan amaliy mashgʻulot oʻtkazishga eʼtiborni kuchaytirish; j) maʼruza matnlarini tayyorlashda oʻqituvchilarning oʻzaro hamkorligini yoʻlga qoʻyish; z) yangi pedagogik texnologiyalarga asoslangan oʻquv-uslubiy adabiyotlarni yaratish va boshqalarga katta eʼtibor berish kerakligi aniqlandi.

V. G. Matveevning akademik litsey va noiqtisodiy OTM talabalari uchun nashr etilgan «Iqtisodiy bilim asoslari» qoʻllanmasida bozor iqtisodiyoti va tadbirkorlik asoslari, unda mikro va makrodarajadagi iqtisodiyot, marketing, menejment va biznes haqida soʻz yuritiladi. Qoʻllanmaning yangiligi shundan

iboratki, unda bozor munosabatlariga o'tishning «O'zbekiston modeli» to'liq bayon etilgan. Nazorat savollari talabalarning olgan bilimlarini mustahkamlash uchun reproduktiv faoliyatiga imkoniyat yaratadi [74, 445-b].

Q. Yo'ldoshev, Sh. Mamatqulov, Q Mufaydinov qo'llanmasida iqtisodiyot ilmining shakllanishi, iqtisodiyotning tarkibi, qonunlari, kategoriyalari, mulkiy munosabatlar, ishlab chiqarish omillari, ehtiyojlar, jamg'arish, iqtisodiy o'sish va resurslarga oid iqtisodiyotning umumiy asoslari nazariy va amaliy jihatdan izohlab berilgan, shuningdek, unda bozor iqtisodiyotining asoslari bo'lgan tovar-pul munosabatlari, menejment, marketing, biznes va tadbirkorlik, bank munosabatlari, bozorni boshqarish mexanizmi kabi mavzular, milliy iqtisodiyotning rivojlanishi va uning umumjahon iqtisodiyoti bilan integratsiyashuvi masalalari o'rin olgan [58, -272 b].

Professor A. O'lmasovning uslubiy qo'llanmasida «Iqtisodiy bilim asoslari» predmetining barcha mavzulari bo'yicha dars o'tishda foydalanish uchun qo'shimcha nazariy bilimlar va uslubiy ko'rsatmalar berilgan. Undagi uslubiy ko'rsatmalar nazariy va amaliy darslarni o'tish, talabalarning mustaqil ishini tashkil etish, ularning bilimini test usulida baholashga taalluqlidir. Muallif o'qitishning yangi texnologiyalari, chunonchi videotexnologiyalar, kompyuter o'yinlari, amaliy o'yinlar, ish o'yinlari uchun tavsiyalar, kichik guruhlar bahsini tashkil etish, usullarni qo'llash bo'yicha yaxshi tavsiyalar berilgan [129, 184 b].

A. Abdullaev, U. Inoyatov, N. Sanaev o'z ishlarida iqtisodiy ta'lim berishda amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish masalalarni yoritib beradi.

Yuqoridagi ta'kidlab o'tilgan ishlarda va boshqa mualliflarning qo'llanma, darslik va uslubiy qo'llanmalari hamda tadqiqotlarida iqtisodiy ta'lim berish va amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha garchand tavsiyalar, uslubiy ko'rsatmalar berilsa-da, talaba larda iqtisodiy savodxonlikni rivojlantirish , kasbiy-iqtisodiy ta'lim berish masalalari bo'yicha so'z yuritilmaydi.

Noiqtisodiy OTM talabalariga iqtisodiy ta'lim berish jarayonini va ularda iqtisodiy savodxonlikni rivojlantirish masalasini o'rganish ma'lum muammolar

mavjudligini ko'rsatdi. Bizning nazarimizda, bu muammolar quyidagilardan iborat:

-iqtisodiy ta'lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalar va axborot-kommunikatsion texnologiyalaridan hamda o'qitishning faol vositalaridan samarali foydalanilmayotganligi;

-kasb-hunar kollejlari qatnashida iqtisodiy ta'lim berishda kasbiy-amaliy yo'nalishga kamroq e'tibor berilganligi;

-iqtisodiy yo'nalishdagi maxsus fanlardan saboq beradigan o'qituvchilarning amaliy-iqtisodiy bilimlari etarli emasligi hamda fanlararo aloqadorlik va bog'liqlikdan unumli foydalanilmayotganligi;

-talabalarda iqtisodiy savodxonlikni rivojlantirish bo'yicha uzluksiz va izchil tarzda rejali ta'lim-tarbiya ishlari oila, ta'lim muassasasi, ishlab chiqarish va jamoat tashkilotlarining hamkorligida olib borilmaganligi;

-iqtisodiy savodxonlikni rivojlantirishning zamonaviy ilmiy-uslubiy asoslari, metod va shakllari, tartib-qoidari ishlab chiqilmaganligi va uning ahamiyati etarlicha yoritilmaganligi;

-iqtisodiy savodxonlikni oshirishga yordam beruvchi ilmiy-uslubiy maxsus va qo'shimcha adabiyotlarning yo'qligi hamda bu boradi ilmiy-pedagogik o'quv jarayonlarining olib borilmaganligi va boshqalar.

Noiqtisodiy yo'nalishdagi noiqtisodiy OTM talabalarida iqtisodiy savodxonlikni rivojlantirish juda murakkab jarayon bo'lib, uning mazmun-mohiyati jamiyat va inson ehtiyojlari asosida belgilanadi. Talabalarida iqtisodiy savodxonlikni rivojlantirish jarayonida ularga nazariy va amaliy bilimlar berilishi bilan birgalikda bir qator tushunchalar muhim ahamiyatga ega. Masalan: savodxonlik, iqtisodiy savodxonlik, iqtisodiy madaniyat, iqtisodiy ta'lim, iqtisodiy tarbiya, iqtisodiy savodxonlikni rivojlantirish, noiqtisodiy OTM talabalarida iqtisodiy savodxonlikni rivojlantirish va boshqalar.

Zamonaviy texnik jihozlar bilan ta'minlangan ishlab chiqarish korxonalari, muassasalar o'rta maxsus-kasb hunar kollejlari bitiruvchilariga katta talablar qo'yimoqda.

Iqtisodiyot sohasida faoliyat ko'rsatadigan mutaxassislarning mehnat faoliyati ishlab chiqarish, hisob-kitob, biznes reja tuzish, hisobot topshirish, tahlil va boshqalar bilan uzviy bog'liq bo'lgani uchun ularga iqtisodiy savodxonlik o'ta muhim sanaladi.

O'tgan asrning 60-yillariga qadar hukm surib kelgan an'anaviy (klassik) pedagogika nazariyasi va tegishli didaktik tamoyillar o'z o'rnini bugungi kunda hamkorlik pedagogikasining tamoyillariga bo'shatib berar ekan, iqtisodiy ta'lim mazmuni va metodikasida ham mutlaqo yangi qarashlar shakllanmoqda. Albatta, noiqtisodiy OTM talabalarining iqtisodiy ta'lim savodxonligini va ta'lim mazmunini rivojlantirishda an'anaviy iqtisodiy ta'lim metodikasida to'plangan ijobiy tajribalardan etarlicha foydalanish lozim.

Bugungi kunda kasb-hunar kollejlarda iqtisodiy ta'limning nazariy jihatlari ustuvorlik kashf etgan, biroq nazariya bilan amaliyotning uzviy birligi zaruratdir. Iqtisodiyot sohasida yangi-yangi kasbiy yo'nalishlar va ixtisosliklarning yuzaga kelishi iqtisodiy ta'limning amaliy tomonlarini kuchaytirish zarurati tug'ilayotganligidan dalolatdir. Zero, ishlab chiqarish pedagogikasining yirik namoyondalaridan biri S. Ya. Batishev iqtisodiy bilim mutaxassisning kasbiy xususiyatlaridan biri ekanini alohida ko'rsatib o'tadi [25, -672 b].

Inson butun umri davomida oddiy turmush voqealari va iqtisodiy hodisalarni kuzatib, o'rganib o'zining iqtisodiy bilimlarini yangilab, to'ldirib, takomillashib borishini hisobga olish kerak. Iqtisodiy ta'lim mazmunining asosiy tashkil etuvchilari hisoblangan fundamental va amaliy xarakterdagi o'quv materiallari har bir ta'lim muassasasining ta'lim va ixtisoslik yo'nalishidan kelib chiqadi. O'quv materiallari milliy qadriyatlar zahirida etakchi nazariya va qonuniyatlar atrofida umumlashtiriladi, boshqacha aytganda generalizatsiyalashtiriladi. Shu asosda iqtisodiy ta'lim davomiyligi ta'minlanadi.

Iqtisodiy ta'limdan mavjud bo'lgan o'quv reja va dasturlarni qiyosiy tahlil etish, pedagogikadagi yangi texnologiyalar asosida iqtisodiy ta'lim mazmunini amalda joriy etish yo'llarini muhokama etish hamda predmetlararo bog'lanish

asosida iqtisodiy ta'lim berish usullarini o'rganish shundan dalolat beradiki, talabalarining iqtisodiy savodxonligini rivojlantirishga yo'naltirilgan nazariy va amaliy yo'nalishda maxsus mashg'ulotlar haligacha tashkil etilmagan. Iqtisodiy yo'nalishdagi kasb-hunar kollejlarida iqtisodiy ta'lim uchun ajratilgan vaqt jami 1500 soatni tashkil etadi. Shundan 1000 soati–nazariy mashg'ulotlar uchun, 500 soati- amaliy mashg'ulotlar uchun.

Noiqtisodiy yo'nalishdagi ta'lim muassasaalarida iqtisodiy ta'lim uchun atigi 24 soat vaqt ajratilgan bo'lib, ularning 16 soati nazariy mashg'ulotlar uchun, amaliy mashg'ulotlar uchun esa atigi 8 soat ajratilgan. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, noiqtisodiy yo'nalishdagi noiqtisodiy OTM talabalarining iqtisodiy savodxonligini rivojlantirish uchun 24 soatga mo'ljallangan iqtisodiy ta'lim kursi etarli emas. Biz ular uchun maxsus «Iqtisodiy savodxonlik» kursini tashkil etish zarur deb hisoblaymiz. Albatta, talabalarga chuqur iqtisodiy bilim berishni o'quv soatini ko'paytirish hisobiga amalga oshirishga qaratilgan urinish asosli emasligini ham ta'kidlab o'tish joiz. Bundan ko'rinadiki, kasb-hunar kollejlarida talabalar uchun bo'lajak ixtisoslik bo'yicha kasbiy bilimlarini chuqurlashtirishga ko'mak beruvchi alohida iqtisodiy o'quv dasturi-«Iqtisodiy savodxonlik» dasturini yaratish ehtiyoji mavjud. Shuningdek, iqtisodiy ta'limdagi ba'zi nomutanosibliklar va noo'rin takrorlanishlarning mavjudligi va ularning bartaraf etilishi lozimligini ta'kidlab o'tish lozim.

Izlanish jarayonida quyidagilar muhim yo'nalish sifatida aniqlandi:

- jamiyat taraqqiyoti talablari bilan iqtisodiy ta'lim mazmuni o'rtasidagi mutanosiblik;
- iqtisodiy ta'lim mazmunining amaliy yo'naltirilganligi;
- umum ta'lim fanlari va iqtisodiy bilimlarning uzviyligi;
- iqtisodiy ta'lim mazmunining boshqa kasbiy fanlar bilan o'zaro uyg'unligi;
- iqtisodiy ta'limning yaxlitligi (bir butunligi) va uni bosqichli tizim asosida joriy etilishi (umumiy iqtisodiy ta'lim o'quv predmeti sifatida);

-iqtisodiy bilimlarning kasb-hunar ta'limidagi ixtisoslik fanlarini o'rganish uchun istiqbolli ekanligi;

-iqtisodiy bilimlar (qonun va nazariyalar)ning insonparvarlik jihatdaligi;

-iqtisodiy bilim, ko'nikma va malakalarning ekologik mazmun kasb etishi;

-iqtisodiy ta'lim mazmunining umuminsoniy qadriyatlar bilan boyitilishi;

-iqtisodiy ta'lim mazmunida invariant (o'zgarmas) tashkil etuvchilarning mavjudligi va ularning iqtisodiy ta'lim asosini tashkil etishi;

-ta'limda ilmiy-texnik jarayonlarning iqtisodiy asoslari, iqtisodga oid muhim yo'nalishlarning aks etishi;

-iqtisodiy ta'lim mazmunida jahon iqtisodiyoti sohasidagi olimlar qatorida o'zbek iqtisodchi olimlari va O'zbekistondagi iqtisodiyot fani yutuqlarining yoritib borilishi.


Talabalarning mustaqil o'quv mehnatini tashkil etish, an'anaviy bo'lmagan nostandart iqtisodiy darslarni uyushtirish orqali noiqtisodiy OTM talabalarining iqtisodiy savodxonligini oshirish imkoniyatlari aniqlandi.

Noiqtisodiy OTM talabarlari uchun samarali hisoblangan (fanga qiziqtirishga va mantiqiy fikrlashga qaratilgan) dars turlari aniqlandi. O'qituvchi bilan talaba o'rtasidagi yaqin ijodiy hamkorlik hamda talabaning o'quv mehnat ko'rsatkichi iqtisodiyot fani darsi samaradorligining asosiy mezonini bo'lib hisoblanishi aniqlandi.

Ilg'or pedagogik texnologiyalar o'z o'rnida talabalarning iqtisodiy savodxonligini oshirish tamoyillari bilan o'zaro bog'liq ekanini ham alohida ko'rsatib o'tish lozim. O'z navbatida pedagogikadagi ilg'or texnologiyalardan foydalanish iqtisodiy ta'limi mazmunining ilmiyligini oshirish bilan uzviy aloqada bo'lishi ham aniqlandi.

Yuqorida keltirilgan metodik g'oya izchilligini sxematik tarzda quyidagicha ifodalash mumkin.

Noiqtisodiy OTM talabalarining iqtisodiy savodxonligini oshirish imkoniyatlari



Ushbu ierarxik tizim noiqtisodiy OTM talabalarining iqtisodiy savodxonligini oshirish imkoniyatini yaratishda nazariy asos qilib olindi. Kasb-hunar kollejlarda fanlararo bog‘lanishning o‘ziga xos tomonlari mavjud ekanligi aniqlandi. Ushbu g‘oyani o‘quv tajriba ishlari ham tasdiqladi. Kasb-hunar kollejlarda fanlararo bog‘lanishning ta‘minlanishi va joriy etilishi umumiy o‘rta maktablardagiga qaraganda jiddiy farq qilishi qayd etildi. Ushbu farq bir tomondan kasb-hunar kolleji talabalariga fundamental bilim berib, kelajakda ularning oliygohlarda o‘qishlarini davom ettirishi bilan belgilanadi. Ikkinchi tomondan esa, kasb-hunar kolleji talabalariga tanlangan ta‘lim yo‘nalishlari bo‘yicha qo‘shimcha kasbiy ixtisoslik berish jihatlari bilan bog‘liq bo‘lishi ham aniqlandi.

Albatta, iqtisodiy ta‘lim mazmuni va uning dasturiy tuzilmasiga o‘ziga xos pedagogik-psixologik ijodiy yondashuv talab etiladi.

1.3. Bo‘lajak mutaxassislarda iqtisodiy savodxonlikni rivojlantirishning psixologik-pedagogik omillari

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muassasalarida kichik mutaxassislar tayyorlashga alohida e‘tibor berilgan. Demak, kasb-hunar kollejlarda mutaxassislar tayyorlash jarayonini ham tubdan qayta ko‘rib chiqilishi talab etiladi. Kasb-hunar kollejlarda tayyorlanayotgan mutaxassislarga kasb o‘rgatilishi fanlararo aloqadorlik hamda izchillik tamoyiliga tayangan holda birgalikda iqtisodiy ta‘lim-tarbiyaviy jarayonni tashkil etuvchi sharoitni yuzaga keltirishni taqozo qiladi.

N. Kamolova talaba-yoshlarda iqtisodiy bilim va ko'nikmalarni rivojlantirishning pedagogik shart-shart sharoitlarini ko'proq umumiy va tarbiyaviy nuqtai-nazardan o'rgangan, lekin ularni rivojlantirish masalasi kasbiy-amaliy ta'limga bog'liq holda tadqiq etilmagan va bizning nazarimizda bir qancha noaniqliklarga yo'l qo'yilgan.

Birinchiidan, bizning nazarimizda, «iqtisodiy bilimni rivojlantirish», «iqtisodiy ko'nikma» iboralari ilmiy-pedagogik nuqtai-nazardan unchalik muvaffaqiyatli qo'llanilmagan.

Ikkinchiidan, garchand «iqtisodiy bilimni rivojlantirish», «iqtisodiy ko'nikma» iboralari dissertatsiyaning asosiy tushunchalari hisoblansa-da, lekin ular tushuncha sifatida ta'riflanmagan, izohlab berilmagan, tushuntirilmagan.

Uchinchiidan, talabalarda qobiliyat, tafakkur rivojlantiriladi, bilim shakllantiriladi yoxud oshiriladi. Shuning uchun ham «iqtisodiy bilimlarni rivojlantirish» iborasini qo'llash, bizning nazarimizda, unchalik o'rinli emas.

To'rtinchiidan, «iqtisodiy ko'nikma» iborasi juda mavhum bo'lib, uning nimani anglatishi, qanday ma'noni izohlashi tushunarli emas. Bizningcha, «kasbiy-iqtisodiy amaliy ko'nikma» iborasi qo'llanilishi lozim edi.

Beshinchiidan, pedagogik kollejlari bitiruvchilari tadbirkorlik bilan emas, asosan pedagogik faoliyat bilan mashg'ul bo'ladilar. Ular ko'pincha maktablarda boshlang'ich sinf o'qituvchisi yoki maktabgacha ta'lim muassasasida tarbiyachi vazifasida ishlaydilar. Shuning uchun ham o'quvchi o'zning o'quv jarayonida ko'proq ularning iqtisodiyot to'g'risidagi umumiy bilimlarini oshirish, «dastlabki iqtisodiy tassavurlarini kengaytirish», «yoshlarni iqtisodiy tarbiyalash» masalalariga ko'proq to'xtalib o'tadi.

Oltinchiidan, pedagogika noiqtisodiy OTM talabalarida iqtisodiy bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish uchun maxsus kurs va uni o'qitish dasturi ishlab chiqilmagan, balki dars mashg'ulotiga faqat «Iqtisodiyot asoslari» o'quv fani

mazmuni asos qilib olingan. Qo‘shimcha manbalardan foydalanish haqida umuman so‘z yuritilmagan.

Bo‘lajak kichik mutaxassislarning gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy, matematika va tabiiy fanlar hamda umumkasbiy fanlarni uzviy aloqada o‘rganishlari ularda bevosita kasbiy-iqtisodiy ko‘nikma va malakalarining shakllanishida muhim omil bo‘lib xizmat kiladi. Shu ma‘noda, har bir mutaxassislik fanidan ma‘ruza va amaliy mashg‘ulotlarni olib borish jarayonida iqtisodiy tushunchalarning o‘rni, ularni o‘rganish zaruriyati, ketma-ketligi, boshqa tushunchalar bilan aloqadorligi va bu aloqadorlikni reflektiv (refleks, beixtiyor), simmetrik yoki tranzitivlik (dars jarayonida olingan bilimlar majmuini amalda o‘z o‘rnida qo‘llay olishi) va boshqa xossalarga bo‘ysunishiga qarab, ularning kasbiy ahamiyatini aniqlash imkoniyatiga ega bo‘lamiz [44, 132-134-b].

Ma‘lumki, an‘anaviy ta‘limda ma‘ruza va amaliy mashg‘ulotlarning har bir o‘quv fani boshqa o‘quv fanlariga bog‘liq holda olib borilishi talabalarda bilimlarning integrativ tarzda yuzaga kelishiga o‘zining ta‘sirini ko‘rsatib keldi. Bu esa, talabalarda ijodiy fikrlash jarayoni(imkoniyati)ning sustlashishiga sababchi bo‘lishi tajribada kuzatilgan.

Kasb-hunar kollejlari o‘qitiladigan barcha iqtisodiy fanlar asosan faqat ma‘lumot beruvchi, o‘rgatuvchilik funksiyasi bilan chegaralanib qolmasdan, bo‘lajak mutaxassislar iqtisodiy dunyoqarashini rivojlantiruvchi, integrallashtiruvchi, tarbiyalovchi funksiyalariga ham ega bo‘lmog‘i lozim. Bundan ko‘rinib turibdiki, har bir fan o‘qituvchisi-mutaxassisga talabalarni nafaqat shu fan tuzilmasida mavjud bo‘lgan ilmiy ma‘lumotlar bilan qurollantirish, balki ular egallagan iqtisodiy tushunchalarni rivojlantirish va ularning boshqa tushunchalar bilan integrallashuvini ta‘minlash hamda bo‘lajak kadrlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash vazifalari ham qo‘yilgan. Shuning uchun ham har bir pedagog-olim navbatdagi o‘quv mashg‘ulotiga tayyorgarlik ko‘rishida o‘quv materialini yuqorida sanab o‘tilgan talablar va tamoyillarga rioya

qilgan holda tanlashi va uni talabalar e'tiboriga havola qilishida tegishli parametrlardan unumli foydalanishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bo'lajak mutaxassisni kasbiy-iqtisodiy rivojlantirish uning jamiyatdagi o'rni, ishlab chiqarish faoliyatidagi majburiyati va vazifalariga hamda individual qobiliyatiga bog'liq bo'ladi. Mutaxassisning ijodiy individualligi uning individual xususiyatlari (fikrlashning ilmiy tarkib topganligi, ishga ijodiy yondashishi, o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga intilishi va boshqalar)ning rivojlanish darajasi bilan belgilanadi. Bo'lajak kichik mutaxassisning ijodiy individualligini rivojlantirish va takomillashtirishning psixologik-pedagogik shart-sharoitlari qarama-qarshiligini his qilish, ularning echimini topish pedagog uchun muhim hisoblanadi [46, 320 b].

Zamonaviy ijodkor mutaxassis amaliy faoliyatning reproduktiv usuli va ijodkorlik yo'nalishlaridan birini tanlashda nafaqat o'zligini, balki hayotiy maqsadlarini ham ro'yobga chiqaradi. U o'zini sifat jihatidan o'zgartiradi, psixologik to'siqlarni engadi, kasbiy ahamiyatga ega sifatlarini rivojlantirish imkoniyatlarini qidiradi, o'z faoliyati konsepsiyasi (asosiy fikr, g'oya)ni ishlab chiqadi. Umuman olganda, mutaxassisning kasbiy faoliyati uchun, birinchidan, innovatsion yo'naltirilganlik, ikkinchidan, o'ziga yo'naltirilganlik xususiyatlari ham ko'rinadi. Ijodkor mutaxassis o'z-o'zini takomillashtirmasdan, individuallikni rivojlantirmasdan, kasbiy mahoratini shakllantirmasdan turib, kasbiy faoliyatda yuqori mavqega erishish mumkin emasligini to'g'ri anglab etadi. Shu sababli kasbiy zarurat taqozo etgan sifatlarini egallashi mutaxassisning hayotiy maqsadiga aylanishi kerak. Ammo K.K.Platonovning e'tirof etishicha, talabalarning kasbiy qobiliyati butun pedagogik jamoa ishtirokida va butun o'quv-tarbiya jarayonida, ayniqsa, kasbiy ta'lim berishning boshlang'ich paytlaridayoq amalga oshirilish kerak [1, 173-b].

Bo'lajak mutaxassisning o'ziga xosligini o'rganishda uning psixologik hamda shaxsiy sifatlariga alohida e'tibor qaratish lozim. Uning kasbiy faoliyati umumiy va kasbiy qobiliyatining, shuningdek, kasbiy motivatsiyaning namoyon bo'lish darajasi bilan belgilanadi. Yetarli darajada rivojlangan qobiliyatlar,

maqsadlar, ehtiyojlar doirasi qanchalik keng bo'lsa, mutaxassisning kasbiy mahorat darajasi shunchalik yuqori bo'ladi.

Mutaxassisning kasbiy faoliyatida rivojlanishni ta'minlovchi asosiy ziddiyat inson qobiliyatlari hamda kasbiy faoliyat talablari o'rtasidagi tafovut bilan belgilanadi. Kasbiy faoliyati jarayonida yuzaga keluvchi ziddiyatlarni har bir mutaxassis o'z imkoniyatlari va qobiliyatlari darajasida hal qiladi. Bu faoliyat mutaxassisning individual uslubini belgilab beradi.


Mutaxassisda o'z-o'zini boshqarish, qat'iylik, jur'atlilik, qo'rqmaslik, atrofdagi insonlarga hurmat va e'tibor, kamchiliklarini his qilgan holda o'z imkoniyatlariga ishonch, faoliyatini baholashda haqqoniylik, kuchli iroda, kuch-quvvatini yo'naltira olish, faoliyat va maqsadni amalga oshirish yo'lida o'z imkoniyatlarini jamlay olish, belgilangan maqsadni amalga oshirishda faoliyatini to'g'ri boshqarib borish, aqliy faollik va o'zgaruvchan sharoitlarga moslasha olish, shaxsni harakatga keltiruvchi kuch va ijtimoiy olam bilan o'z imkoniyatlarini qiyoslay olish sifatlariga ega bo'lsagina yuksak kasbiy mahorat darajasiga erisha olishi mumkinligi aniqlangan [90, -640 b].

Talabalarning o'quv materialini o'zlashtirishi ularda fikrlash jarayonining samaradorligi, ratsionalliligi, shu o'quv materialidan mutaxassisligi uchun zarur bo'lgan xulosalarni chiqara bilishi, o'quv materialini umumlashtira olishi, maqsadiga erishuvchanligi, o'z fikrida qat'iy turishi, o'quv materialining ta'lim jarayonidagi kamchiliklarni to'ldirishga yordam berishi ham inobatga olinishi zarur. Shuning uchun ilmiy, ta'limiy-didaktik va axloqiy talablarga javob beradigan o'quv materiallarini tanlash lozim.


Demak, iqtisodiy yo'nalishdagi fanlarni o'qitishda psixologik–kasbiy qonuniyatlarni hisobga olib borish bevosita mutaxassis faoliyatining yuzaga kelishi va rivojlanishida muhim ahamiyatga ega ekan. Bo'lajak kichik mutaxassis faoliyati – bu o'quv tarbiyaviy jarayonga o'zining faol munosabatlarini bildirib, qo'yilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirishda ijtimoiy–iqtisodiy nuqtai-nazardan yondoshib, komil inson sifatleri bilan birga aqliy kasbiy tafakkurini rivojlantirishga yordam beruvchi faoliyatdir. Shuning uchun ham kasbiy ko'nikma

va malakani, iqtisodiy savodxonlikni rivojlantirishda, albatta, har tomonlama takomillashgan chuqur kasbiy bilim zarurdir. Bo‘lajak kichik mutaxassislarga kasbiy fanlardan beriladigan bilimlarning o‘ziga xos sintezini aniqlash va sintezlashgan bilimlar xususiyati, ularning o‘zaro aloqadorligi, tuzilishi va boshqa fanlar bilan bog‘liqligi haqidagi ma’lumotlarning ta’lim jarayonida berib borilishi muhim ahamiyatga ega.

Kelajakda mutaxassislarda psixologik-pedagogik komponentlardan biri, bu “iqtisodiy tushunchalarni esda saqlash” sifatining ma’lum darajada yuqori bo‘lishi taqozo qilinadi. Bundan tashqari, amalga oshirilayotgan ishlar tuzilishiga ko‘ra bir nechta iqtisodiy fanlarga oid bilimlarning integratsiyasi, o‘zaro aloqadorligi va undan foydalanish metodikasini o‘z ichiga oladi. Har bir talaba o‘z imkoniyati, asosan bilimga bo‘lgan intilishiga qarab o‘zining bilimlar blokiga ega bo‘ladi. Bu bilimlar strukturasi ko‘ra, texnik va texnologik mazmundagi, psixologik va pedagogik, falsafiy, fizik-matematik, iqtisodiy, amaliy va boshqa ko‘rinishdagi bilimlar to‘plami bo‘lib, talaba qaysi yo‘nalishga mos bilimlar kerakligiga tayangan holda, shu mazmundagi bilimlarni bankdan ajratadi hamda uni chuqurlashtirib talab qilingan maqsadda foydalanishga harakat qiladi.



Pedagogik izlanish va ilmiy-o‘quv natijalari ko‘rsatadiki, noiqtidosiy OTM talabalarining iqtisodiy savodxonligini rivojlantirish bir qator omillarga bog‘liq. Demak, talabalarining iqtisodiy savodxonligiga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillarni kuchaytirmasdan turib iqtisodiy ta‘limda samarali natijalarga erishib bo‘lmaydi. Talabalarining iqtisodiy savodxonligiga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillarni o‘zaro bog‘liqligini sxematik tarzda quyidagicha tasvirlash mumkin (1.3.1-rasmga qarang):



1.3.1-rasm. Talabalarining iqtisodiy savodxonligi shakllanishiga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillar

-motivatsion omil ta‘sirini kuchaytirish uchun talabaning o‘quv hamda kasbiy-amaliy faoliyatlarini amalga oshirishga bo‘lgan ichki ehtiyoj rivojlantiriladi. Bunda etakchi motivlarga tayangan holda talabalarga iqtisodiy ta‘lim olishning zamonaviy usullari haqida, xususan, elektron adabiyotlar va internet tizimidan oqilona foydalanishga oid bilimlar beriladi, ya‘ni ularda ijodkor bo‘lish, yangilikka intilish motivlari shakllantiriladi;

-aqliy omil ta‘sirini kuchaytirish uchun ta‘lim oluvchilar erkin fikrlashga, tizimli va ijodiy tasavvur yuritishga, iqtisodiy jarayonlarni modellashtirish, loyihalash, bashorat qilishga, yangi g‘oyalarni topishga o‘rgatiladi;

-*irodaviy omil* ta'sirini kuchaytirish uchun talabalar mustaqil izlanishga o'rgatiladi, natijada ularda murakkab iqtisodiy hodisalarni modellashtirish hamda o'quv va kasbiy vazifalarni mustaqil hal etish, amaliy topshiriqlarni bajarish, mehnat qilish ko'nikmalari rivojlantiriladi, irodaviy sifatlar shakllantiriladi;

-*hissiy omil* ta'sirini kuchaytirish uchun talabalarda izlanuvchanlikka, iqtisodiy masalalarni echishning maqbul usullarini tanlashga xos hissiyotlar rivojlantiriladi, ular o'quv hamda kasbiy faoliyatda ijodiy echimlarni topish yo'lida ziyrak bo'lishga o'rgatiladi; iqtisodiy jarayonlarni modellashtirish va iqtisodiyotning amaliy asoslarini o'rganish orqali talabada hissiy omillar kuchaytiriladi;

- *amaliy omil* ta'sirini kuchaytirish maqsadida talabalarda yangi iqtisodiy axborotlar qabul qilish, qayta ishlash, iqtisodiy masalalarning noan'anaviy echimini topish, fikrlash, kasbiy faoliyat va iqtisodiy amallar yo'nalishlarini o'zgartirishga moyillik ko'nikmalari shakllantiriladi. Ular biror iqtisodiy masalani echishda ilmiy manbalardan, internet yangiliklaridan oqilona foydalanishga o'rgatiladi;

- *mustaqillik omili* – o'zini ijodkor sifatida anglab etish, ijtimoiy, o'quv hamda kasbiy-iqtisodiy faoliyatda o'z o'rnini topish, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limida hamda kasbiy faoliyatda o'zining ijodiy imkoniyatlarini bilish; o'z o'quv faoliyatini amalga oshirish va fikrlashda mustaqillik hamda erkinlikning namoyon bo'lishi. Iqtisodiy jarayonlaridagi texnologiyalarini tushunish va ularning afzalligi va qulayligini asoslab berishda talabaning mustaqil fikrlashi, o'z fikrini himoya qila olishi uning kelgusidagi kasbiy-iqtisodiy faoliyatda o'z o'rnini topa olishini ko'rsatadi;

- *o'ziga xoslik omili* - o'z fikrlarini zarur yo'nalishda boshqara olish, yangi g'oyalar topish imkonini beruvchi manbalarni izlash, o'z ijodiy faolligini ta'minlash uchun mustaqil ravishda sharoit yarata olish. Iqtisodiy topshiriqlarning to'g'ri bajarilganligi, echimlarning maqbul usullarni tanlashi talabaning ijodkorligini, mustaqil ishlay olishini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda:

1. Respublika iqtisodiyotini tubdan isloh qilish, uni rivojlantirish jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy, madaniy- ma'rifiy o'zgarishlar bilan uzviy bog'liq. Buning natijasi o'laroq hozirgi vaqtda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimida iqtisodiy ta'limni izchil yo'lga qo'yish zaruratga aylangan.

2. O'tkazilgan nazariy tahlillar ta'lim jarayonida bo'lajak kichik mutaxassislarda iqtisodiy savodxonlikni rivojlantirish jamiyatning ehtiyoji va ijtimoiy buyurtmasi bilan belgilanadi, ya'ni u iqtisodiy islohotlarning tadrijiy ravishda takomillashuvi bilan aniqlanadi.

3. Kasbiy ta'lim jarayonida iqtisodiy savodxonlikni rivojlantirish masalasi nafaol o'qitishdan faol o'qitishga; o'quv materialini ijodiy o'rganishga, uni bir tomonlama emas, ya'ni faqat o'qituvchi emas, balki hamkorlikda(ta'lim oluvchi bilan birgalikda) taqdim etishni, kasbiy-iqtisodiy va amaliy ta'limni keng yo'lga qo'yishni taqozo etmoqda.

4. O'quv jarayonida talabalar iqtisodiy savodxonligining bugungi kundagi holati, uning mazmuniy asosi va mohiyati aniqlandi, respublikamiz noiqtisodiy OTM talabalarida iqtisodiy savodxonlikni rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik xususiyatlari, tamoyilari va asoslari aniqlandi, asoslab berildi. Iqtisodiy savodxonlik tushunchasi ta'riflandi va uni rivojlantirishning o'ziga xos vazifalari belgilandi. Ular noiqtisodiy OTM talabalarida iqtisodiy savodxonlikni rivojlantirishning maqsadli yo'nalishlarini aks ettiradi.

5. Nazariy tahlil natijasida olingan ma'lumotlar ko'rsatadiki, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari talabalarida iqtisodiy savodxonlikni rivojlantirish iqtisodiy ta'limning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish, zamonaviy shakl va vositalarini ishlab chiqish, iqtisodiy fanlardan saboq beruvchi noiqtisodiy OTM talabalari, o'qituvchilari malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash masalasi va boshqa omillar bilan uzviy bog'liq. Chunki ta'limning asosiy maqsadlaridan biri bo'lajak kichik mutaxassislarning iqtisodiy savodxonligini rivojlantirish va iqtisodiy madaniyatini yuksaltirish, shaxsiy va kasbiy sifatlarini kamol toptirishdan iborat. Zero, shaxsiy va kasbiy sifatleri kamol topgan mutaxassis

murakkablik darajasi turlicha bo'lgan iqtisodiy faoliyatlarni mustaqil amalga oshirishi uchun etarlicha amaliy bilimga ega bo'lishi zarur.

6. Darsliklar, qo'llanmalar, pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish asosida talabanning bilish faoliyatini ta'minlovchi, iqtisodiy savodxonligini rivojlantirishga ta'sir ko'rsatuvchi omillar aniqlashtirildi. Boshqacha aytganda, talabanning bilish faoliyati ta'lim jarayoni tuzilmasi va omillarning unga qanchalik ta'sir ko'rsatishiga bog'liq. Shu tufayli o'qituvchining talaba iqtisodiy savodxonligini rivojlantirish tizimida uning bilish faoliyatini boshqarish va muvofiqlashtirish borasidagi mas'uliyati yanada ortadi.

II BOB. TALABALARDA IQTISODIY SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-PEDAGOGIK VA AMALIY ASOSLARI

2.1. Talabalarda iqtisodiy savodxonlikni rivojlantirish mazmuni va komponentlari

Ta'lim sohasidagi islohotlardan bosh maqsad – mamlakatimizda moddiy farovonlikni ta'minlash, ta'lim va tarbiyaning demokratik, insonparvarlik tamoyillarini qaror toptirish, xalqimizning tarixiy an'analari va urf-odatlarini, shuningdek, umumbashariy qadriyatlar asosida ta'lim mohiyatini tubdan o'zgartirish va shu maqsadda iqtisodiy jamoalar tashabbuskorligiga keng imkoniyatlar ochish, yaratuvchilarni va mehnat jamoalarini har tomonlama rag'batlantirish hisoblanadi.

Hozirgi kunda o'ziga xos ijodiy tafakkurga ega bo'lgan, iqtisodiy savodxon talabaning fazilatlarini belgilash juda muhimdir. Jamiyatning noiqtisodiy OTM talaba-bitiruvchilariga qo'yayotgan yangi ijtimoiy talabi bu - yuksak iqtisodiy savodxonlik va uning negizida shakllanadigan yangi ijodiy tafakkupdir.

Iqtisodiy savodxonlik muammosini butun ko'lami bilan to'liq tasavvup qilish uchun uni o'rganishga tizimli yondashuvni ta'minlash zarur. Biz japayon va hodisalarga tizimli yondashishga tayangan holda iqtisodiy savodxonlikni ma'naviy savodxonlik va umuman, ijtimoiy savodxonlikning tapkibiy qismi sifatida o'rganamiz. Bunday yondashuv o'rganilayotgan iqtisodiy savodxonlik tushunchasining umumiy va o'ziga xos xususiyatlarini, qandaydir alohida jihatlarni aniqlash imkonini bepadi. Bu hol yangi iqtisodiy tafakkup sharoitida talabalarga iqtisodiy savodxonlikni rivojlantirish komponentlari o'rtasidagi aloqalar va munosabatlarni aniqlash va tahlil etish imkonini bepadi.


Taraqqiyotning hozirgi zamon talabi iqtisodiy bilimlarni o'rganishni uzluksiz davom ettirishni taqozo etadi. 1996-1997 o'quv yilidan boshlab, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan kasb-hunar kollejlari iqtisodiy ta'limni kuchaytirish chora-tadbirlari ishlab chiqilgan. Shunga ko'ra, iqtisodiy ta'lim jarayonida amaliy-kasbiy bilimga alohida e'tibor qaratiladi.

Talabalarning iqtisodiy savodxonligini rivojlantirish aniq maqsadga yoʻnaltirilgan yaxlit pedagogik jarayon boʻlib, unda quyidagi vazifalar hal etiladi:

-talabalarga mavjud iqtisodiy meʼyorlar, qonunlar va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar va ularning mohiyati hamda ijtimoiy hayotdagi ahamiyati toʻgʻrisida maʼlumotlar berish;

-talabalarda kasbiy-iqtisodiy bilimlarni egallashga boʻlgan ehtiyojni yuzaga keltirish;

-talabalarda – kasbiy-iqtisodiy faoliyatni tashkil etish boʻyicha amaliy koʻnikma va malakalarni hosil qilish.



2.1.1-rasm. Talabalarning iqtisodiy savodxonligini rivojlantirish jarayoni komponentlari

Talabalarda iqtisodiy savodxonlikni rivojlantirish nazariy va amaliy bilimlar asosida amalga oshiriladi. Shundan ekan, talabalarda iqtisodiy savodxonlikni rivojlantirish muammosi mohiyatini toʻla anglab etishga imkon beruvchi asosiy tayanch tushunchalar va ularning maʼno-mazmuni haqida toʻxtalib oʻtish maqsadga muvofiq.

Talabalarning iqtisodiy savodxonligini rivojlantirish jarayoni komponentlari 2.1.1 -rasmda tasvirlangan (2.1.2-rasmga qarang).

Iqtisodiy savodxonlik — iqtisodiy faoliyatda ishtirok etishga tayyorgarlik, xo‘jalik faoliyatining nazariy asoslarini bilish, iqtisodiy aloqalar va munosabatlar mohiyatini tushunish, aniq iqtisodiy vaziyatlarni tahlil eta bilish.

Iqtisodiy axborot — ishlab chiqarish, moddiy boyliklarni taqsimlash, almashish, iste‘mol qilish jarayonlari haqidagi ma‘lumot.

Iqtisodiy trening — boshqaruv yoki xo‘jalik yuritish faoliyatining samaradorligini baholash bo‘yicha hisob-kitob ishlarni o‘tkazishga imkon beruvchi kompyuterlashtirilgan ish o‘yini.

Iqtisodiy madaniyat — qadriyatlar tizimi va xo‘jalik faoliyatiga rag‘bat, mulkchilikning har qanday shakliga va katta ijtimoiy muvaffaqiyat sifatidagi tijoriy yutuqqa hurmat bilan munosabatda bo‘lish, «moslashish» kayfiyatini qabul qilmaslik, tadbirkorlik uchun ijtimoiy muhit yaratish va rivojlantirish.

Iqtisodiy tarbiya – talabalarning iqtisodiy ongini rivojlantirish maqsadida tashkil etilgan pedagogik faoliyat bo‘lib, bu jarayonda talabalar qator iqtisodiy tushunchalarni o‘zlashtiradilar hamda iqtisodiy tuzilma va samaradorlik, ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi, ishlab chiqarish munosabatlari, xo‘jalik yuritishning mavjud tartib-qoidalari to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lishadi. Iqtisodiy tarbiya talabalarda iqtisodiy tafakkurning o‘shishiga, axloqiy va kasbiy, masalan, faollik, tadbirkorlik, xo‘jalik yuritish, tejamkorlik, ijtimoiy qadriyatlarga halol munosabat, mas‘uliyat kabi sifatarning shakllanishiga, yuksak rentabillikka intilishga, texnologik jarayonlarni va jihozlarni yangilashga, yuqori sifatga, shaxsiy faoliyatda muvaffaqiyat va farovonlikka erishishga imkon beradi. Iqtisodiy tarbiya barcha asosiy predmetlar bo‘yicha tashkil etilgan darslarda, amaliy faoliyat jarayonida, iqtisodiyotning aniq muammolarini muhokama qilishga bag‘ishlangan suhbatlarda amalga oshiriladi. Iqtisodiy tarbiya tizimida korxon va xo‘jaliklar rahbarlari va xodimlari bilan uchrashuvlar katta ahamiyatga ega. Bularning barchasi talaba-yoshlarni kasbga yo‘naltirishga imkon beradi.

Iqtisodiy ta'lim – ijodkor shaxs shakllanishiga ta'sir etuvchi iqtisodiy bilim, ko'nikma malakalarni uzluksiz va izchil o'zlashtirishga yordam beruvchi, shaxsning ehtiyoj-imkoniyatlarini hisobga olgan holda turli uslub, reja va dasturlar, metodikalar yordamida iqtisodiy bilim berish uchun maqsadga yo'naltirilgan pedagogik jarayon.

Iqtisodiy tayyorgarlik – shaxsning talab, ehtiyoj va imkoniyatga qarab, tanlangan sohasi yoki kasbi bo'yicha nazariy va amaliy iqtisodiy bilimni egallashi hamda kasbiy-iqtisodiy faoliyatga tayyorlik holati.

Iqtisodiy tafakkur - iqtisodiy fikrlash tarzi bo'lib, iqtisodiy bilim, tushunchalar va qonuniyatlarning muayyan tizimda talaba ongida aks etishi, uning iqtisodiy ongi holati.

Iqtisodiy tarbiyalanganlik - shaxs barkamolligini belgilovchi axloqiy sifatlar, iqtisodiy faoliyatining ma'naviy, huquqiy va siyosiy yo'nalishlaridagi in'ikosi. Iqtisodiy tarbiyalanganlik darajasi ijtimoiy foydali mehnat natijasi bilan belgilanadi.

Biz yuqorida aytilgan mulohazalarga tayangan holda iqtisodiy savodxonlikni quyidagicha ta'riflaymiz: **Iqtisodiy savodxonlikni rivojlantirish – shaxsning mustaqil iqtisodiy faoliyat ko'rsatishida zarur bo'ladigan barcha iqtisodiy bilim, ko'nikma va malakalarni egallashi, jamiyatda sodir bo'layotgan iqtisodiy o'zgarishlarni va davlatning iqtisodiy siyosatini anglashi, o'z turmush tarzini yaxshilash hamda shaxsiy ehtiyojlarini qondirishga yordam beruvchi iqtisodiy ta'lim-tarbiyaning qoida va usullari, shakl va metodlarini qo'llab iqtisodiy bilim berish (olish).**

Iqtisodiy savodxonlik haqida keltirilgan bu fikrlarni tahlil qilish, uning asosiy belgilarini aniqlashga imkon beradi. Bular:

- iqtisodiy savodxonlik talabalarning ijodiy faoliyati bo'lib, bu bo'lajak mutaxassisning kasbiy sifat ko'rsatkichi;
- iqtisodiy savodxonlik talabaning moddiy farovonlik yaratish borasidagi tafakkurining shakllanish jarayoni;

- iqtisodiy savodxonlik o‘zida nafaqat ilmiy ko‘nikmalarni, balki hayotiy voqelikka amaliy zarurat taqozosi bilan yondashuv malakasini hosil qiladi.

Biz ham yuqoridagi fikrlarga tayangan holda talaba iqtisodiy savodxonligi shakllanishining yaxlit miqyosini o‘zida ifodalaydigan ko‘rsatkichlarni e’tirof etamiz. Talabalarda iqtisodiy savodxonlikning shakllangani miqiyoslarini quyidagilarga asosan aniqlash mumkin:

1. Talabaning iqtisodiy muammolarni iqtisodiy bilimlar asosida hal etishi, iqtisodiy fikrlash tarzining zamonaviyligi, amaliy-iqtisodiy faoliyati.

2. Iqtisodiy muammoga ijodiy yondashish - talaba iqtisodiy savodxonligining asosi va ko‘rsatkichi.

Yangicha iqtisodiy tafakkur va fikrlashning o‘ziga xosligi shundan iboratki, bu borada ong va faoliyat birligi ta’minlanishi kerak. Talaba mavjud ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy holatdan kelib chiqqan holda fikrlay olsagina, uning tafakkuri amaliy ahamiyat kasb etadi.

Yangicha iqtisodiy fikrlash, eng avvalo, chuqur individual, sub’ektiv xususiyatga ega ekanligi bilan izohlanadi. Iqtisodiy savodxon bo‘lgan kasb-hunar kollej bitiruvchisi iqtisodiy jarayonlar haqida mulohaza yuritar ekan, unga zarur qonun va kategoriyalarni mexanik ravishda tatbiq etmaydi, balki ularga madaniy qadriyatlar, an’analar va mavjud ziddiyatlar nuqtai- nazaridan yondashadi. Ya’ni talabaning madaniy-ijodiy faoliyati ehtiyojlar, an’analar va bugungi kun talablarini omuxta qila olishi orqali namoyon bo‘ladi.

Endi talabalarda iqtisodiy fikrlash tarzining namoyon bo‘lishi va ulardagi iqtisodiy savodxonlik darajasini aniqlashga harakat qilamiz.

Talabalarda yangicha iqtisodiy fikrlash tarzining shakllanish jarayonini va savodxonlik darajasini quyidagicha ifodalash mumkin.

Quyida daraja - kasb-hunar kolleji bitiruvchisining ta’lim doirasida tilga olingan muammolarni tahlil qilishga nazariy bilimlarni qo‘llay olmasligi, kasbiy-pedagogik, didaktik va tarbiyaviy maqsad-vazifalarni mustaqil idrok eta bilmasligi, ya’ni iqtisodiy vaziyat taqozo etgan muammolarni tashqi holatlarga tayanib hal etishi.

O'rta daraja – talabanning iqtisodiy fanlardan olgan nazariy bilimlarini sintezlay olishi va ulardan amaliyotda foydalanishga intilishi, unda kasbiy-iqtisodiy sifatlarning dastlabki ko‘rinishlarining qayd etilishi. Talabalar o‘quv-tarbiya vazifalarini hal etishlarida nazariy va amaliy tayyorgarlik paytida o‘zlari egallagan bilimlarga tayanishi.

Yuqori daraja - iqtisodiy vaziyatni tahlil qilishga ijodiy, boshqalarga o‘xshamagan tarzda, aniq shart-sharoitlarni hisobga olgan holda yondashish, iqtisodiy masala echimining eng maqbul, ilmiy yo‘nalishini tanlash, iqtisodiy tushunchalardan tizimli ravishda foydalana bilish.

O‘rganilayotgan voqelikka muammoli yondashish yangicha iqtisodiy fikrlashning asosiy mezonlaridan biri.

Ilmiy adabiyotlar tahlili va pedagogika oliy ta’lim muassasa ish tajribasi va kasb-hunar kollejlari iqtisodiy savodxonlikni rivojlantirish bo‘yicha olib borilgan o‘quv jarayonlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchi qator ilmiy-amaliy, uslubiy ishlarni amalga oshirishi lozim:

- 1) so‘rovnoma, testlar ishlab chiqish va o‘tkazish;
- 2) maxsus kurslarni tashkil etish va olib borish;
- 3) kasbiy-iqtisodiy fanlarni o‘qitish hamda talabalarning iqtisodiy bilimlarini baholash va boshqalar.


O‘quv jarayonida iqtisodiy tahlil, bashoratlash, iqtisodiy o‘zgarishlarni oldindan ko‘pa bilish, iqtisodiy ijod, yangicha iqtisodiy fikrlash o‘ta zarur. Ushbu tushunchalarni chuqur tushunmasdan hamda o‘z kasbiy-amaliy faoliyatga jopiy etmasdan tupib, pedagog talabanning iqtisodiy savodxonligini shakllantira olmaydi.

Mazkur vazifani amalga oshirish uchun iqtisodiy yo‘nalishdagi o‘quv fani dasturlariga, qo‘llanmalariga va darsliklariga o‘qitishning savodxonlik bilan bog‘liq elementlarini, iqtisodiy savodxonlik muammolarini nazariy tahlil etish asoslarini kiritish zarur.

Iqtisodiy savodxonlikni rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlari pedagogdan ma’lum tayyorgarlik ko‘rishni talab etadi. Bizning nazarimizda tayyorgarlik mazmuni quyidagilardan iborat bo‘ladi:

- yangi iqtisodiy tushunchalarni kiritish uchun tushunchalar zahirasi yaratish;
- tahlil natijalari asosida yangi iqtisodiy tushunchalarni kiritish va muammoli vaziyatlar yaratish;
- iqtisodiy savodxonlikni rivojlantirish maqsadida ma'lum bir tamoyilga amal qiluvchi iqtisodiy masalalarni tanlash;
- iqtisodiy savodxonlikni shakllantirish maqsadida aniq iqtisodiy bilimlar mazmunini aniqlash va shu asosda maxsus kurs ishlab chiqish;
- talabalarda iqtisodiy savodxonlikni rivojlantirish jarayonini faollashtirish.

Albatta, bu ishlar talabalarda iqtisodiy savodxonlikni rivojlantirishda asosiy zamin hisoblanadi. Iqtisodiy savodxonlikni rivojlantirishga esa, bosqichma-bosqich tayyorgarlik ko'riladi. 2.1.2-rasmda talabalarda iqtisodiy savodxonlikni rivojlantirishga tayyorgarlik bosqichlari sxematik tarzda ko'rsatilgan. (2.1.2-rasmga qarang).



2.1.2-rasm. Talabalarda iqtisodiy savodxonlikni rivojlantirishga tayyorgarlik bosqichlari

Olib bopilgan o'quv jarayonlari talabalarni yangicha iqtisodiy fikrlash tarziga o'rgatish uchun ularni «Iqtisodiy savodxonlik» maxsus kursini o'rganishga tayyoplash zarurligini ko'rsatdi. Natijada talabalarning iqtisodiy savodxonligini rivojlantirish maqsadida «Iqtisodiy savodxonlik» maxsus kursi dasturi ishlab chiqildi (II bobning 2.2.-bandiga qarang) va kasb-hunar kollejlarda iqtisodiy ta'lim bo'yicha tashkil etilgan fakultativ mashg'ulotlarda sinab ko'rildi. Iqtisodiy savodxonlikni rivojlantirish bo'yicha «Iqtisodiy savodxonlik trengi»

mazmuni ishlab chiqildi (12-ilovaga qarang) va talabalarda iqtisodiy savodxonlikni rivojlantirishning quyidagi shart-sharoitlari aniqlandi:

-iqtisodiy savodxonlikni rivojlantirishga bog‘liq bo‘lgan bozor iqtisodiyoti, menejment, marketing, lizing va boshqa iqtisodiy tushunchalarni bilish;

- iqtisodiy savodxonlikni rivojlantirishda zaruriy iqtisodiy bilimni o‘rganish, ko‘nikma va malakalarni egallash.

Iqtisodiy tarbiyani yo‘lga qo‘yishda quyidagi asosiy shartlarni e‘tiborga olish maqsadga muvofiqligi asoslandi:

-kasb-hunar kollejida ijtimoiy munosabatlar tizimini takomillashtirish;

-o‘qituvchilar bilan talabalar o‘rtasidagi, talabalarning o‘zlarining o‘rtasidagi, ma‘muriyat va jamoat tashkilotlari orasidagi munosabatlarning izchilligini ta‘minlash;


-talabalarni kasb-hunar ta‘limi muassasasining ijtimoiy - iqtisodiy faoliyati tizimiga jalb etish;

-dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlarda iqtisodiy tarbiyaga oid tadbirlar o‘tkazish;

-talabalarning o‘z-o‘zini tarbiyalashi.

Talabalarning iqtisodiy savodxonligi sifatini baholash va tatbiq etilayotgan metodikaning samaradorligini aniqlash hamda talabalarda iqtisodiy savodxonlikning shakllanganlik darajasini baholash uchun ma‘lum mezonlar, testlar ishlab chiqildi, so‘rovnomalar o‘tkazildi. Talabalarning iqtisodiy savodxonligi ularning quyidagi sifatlarida namayon bo‘ladi:

- talabalarning iqtisodiy yo‘nalishdagi o‘quv fanlari bo‘yicha bilim olishi;
- iqtisodiy tizimlar bo‘yicha kompetentligi (tizimlarni takomillashtirish bo‘yicha tuzatishlar kiritish, monitoring ishini yo‘lga qo‘yish, ijtimoiy, tashkiliy va texnikaviy tizimlarning o‘zaro bog‘liqligini aniqlash);



2.1. 3-rasm. Noiqtisodiy yo'nalishdagi noiqtisodiy OTM talabalarida iqtisodiy savodxonlikni rivojlantirish jarayoni modeli

- zahiralarni taqsimlashdagi kompetentligi (vaqtni, pulni, materiallarni va kadrlarni taqsimlash qobiliyati).

- texnologiyalar bo'yicha kompetentligi (jihaz va asbob-uskunalarni tanlash ko'nikmasi, tashxis qo'yish va texnik xizmat ko'rsatish, aniq belgilangan vazifalar echimida texnologiyalarni qo'llash);

- axborotlar bilan ishlash kompetentligi (bilim olish va uni baholash ko'nikmalari, fayllarni tashkil etish va to'ldirib borish, axborotlarni qayta ishlash va uzatish, kompyuter tizimlaridan foydalanish).

Talabalarda iqtisodiy savoxonlikni rivojlantirish jarayoni bosqichlari aniqlandi. Uni ifodalovchi model 2.1.3-rasmda keltirilgan (2.1.3-rasmga qarang).

Iqtisodiy tarbiya, iqtisodiy ta'lim, iqtisodiy tayyorgarlik, iqtisodiy tafakkur, iqtisodiy tarbiyalanganlik va boshqalar iqtisodiy savodxonlikni rivojlantirish tamoyillari hisoblanadi. Bundan tashqari, iqtisodiy ta'lim doirasida mashg'ulotlarning tarbiyaviy yo'naltirilganligi, ilmiyligi, tizimliliigi, tushunarligi, ko'rgazmaliligi, amaliyligi iqtisodiy savodxonlikni rivojlantirishda muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiy savodxonlik iqtisodiy bilim, iqtisodiy tarbiya, ko'nikma va malakalar tizimi, amaliy faoliyat birligidan iborat.

L. S. Vigotskiy ta'limotiga ko'ra, talabalarda umumiy savodxonlikning shakllanganlik darajalari va uni aniqlash mezonlari quyidagicha:

1-daraja (boshlang'ich). Talaba tushunchalarni o'qituvchi yordamida o'zlashtiradi, ammo ularning o'zaro bog'lanishlarini anglay olmaydi.

2-daraja (quyi). Talaba tushunchalar bilan bog'liq predmetlarni, ob'ektlarni, hodisalarni aniqlaydi, lekin ularning xossalarini o'qituvchi yordamisiz aniqlay olmaydi.

3-daraja (o'rta). Talaba tushunchalarning bir-biridan farqini biladi, ularning ayrimlaridan amalda foylana oladi, lekin ularni umumlashtira olmaydi, o'qituvchi yordamida masalalar echimini topadi, savollarga bergan javoblarini asoslashga harakat qiladi.

4-daraja (etarli). Talaba tushunchalarni bir-biridan farqlaydi, ulardan masalalarni hal etishda foydalana oladi, tushunchalar orasidagi bog'lanishlarni aniqlay biladi.

5-daraja (yuqori). Talaba tushunchalarni umumlashtira oladi, tushunchalar orasidagi bogʻlanishlarni aniqlaydi. U erkin ravishda olingan bilimni yangi turdagi masalalarni hal etishga mustaqil ravishda tatbiq eta oladi, javobining toʻgʻriligini asoslay oladi.

Pedagogik tajribalar natijalarini tahlil qilish talabalarda iqtisodiy savodxonlikni rivojlantirishda quyidagi tamoyillarga amal qilish zarurligini koʻrsatadi:

- noiqtisodiy OTM talabalarini zamonaviy iqtisodiy tushuncha va bilimlar bilan qurollantirish;
- talabalarni iqtisodiy jarayonlarni ijtimoiy, hayotiy, dunyoviy, ilmiy nuqtai-nazardan tahlil qilishga va baholashga oʻrgatish;
- talabalarda oʻz iqtisodiy nuqtai-nazarlarni himoya qilish, koʻnikmalarini rivojlantirish ;

Iqtisodiy savodxonlikni rivojlantirish - aniq maqsadga yoʻnaltirilgan yaxlit pedagogik faoliyat. Mazkur jarayonda quyidagi kasbiy pedagogik vazifalar hal etiladi:

- Talabalarga iqtisodiy meʼyorlar, qonunlar va ijtimoiy -iqtisodiy munosabatlar, ularning mohiyati va ularning ijtimoiy hayotdagi ahamiyati toʻgʻrisida maʼlumotlar berish;
- talabalarda iqtisodiy bilimlarni egallashga boʻlgan ehtiyojni yuzaga keltirish;
- talabalarda iqtisodiy faoliyatni tashkil etish boʻyicha amaliy koʻnikma va malakalarni hosil qilish.

Taʼlim islohoti va bozor iqtisodiyoti sharoitida noiqtisodiy OTM talabalarining iqtisodiy savodxonligini rivojlantirishda ularning iqtisodiy tushunchalar va boshqa zamonaviy bilimlarni oʻzlashtirishining oʻziga xos jihatlarini aniqlash ham muhim masaladir. Chunki talabalarning iqtisodiy savodxonligi shakllanishining ularning iqtisodiy tushunchalarni oʻzlashtirishi muhim ahamiyatga ega.

*Birinchi*dan, umumiqtisodiy tushunchalarni o'zlashtirish talabalarga kasbiy-iqtisodiy ma'lumotlarni tizimlashtirish, iqtisodiy faoliyat mazmunini, iqtisodiy munosabatlarni, ishlab chiqarish jarayonini tushunish, iqtisodiy bilim asoslarini chuqur o'zlashtirish imkonini beradi. Ular teran fikr yuritishga, iqtisodiy masalalarni tahlil etishga, kasbiy-iqtisodiy faoliyat jarayonida olgan nazariy bilimlarini amaliy qo'llash imkoniyatlarini o'rganadilar.

*Ikkinchi*dan, ilmiy-texnika va jamiyat taraqqiyoti, islohotlar tufayli har qanday tushuncha kabi iqtisodiy tushunchalar ham mazmun-ma'no jihatdan boyib boradi, zamonaviy nuqtai-nazardan talqin etiladi. Ularni ma'no-mazmun jihatdan bir-biridan farqlash va ajrata bilish, ular orasidagi o'zaro munosabat va bog'liqliklarni aniqlash, tushunchalarning asl ma'nosini tushunish talabalarning iqtisodiy savodxonligini oshirishga xizmat qiladi.

*Uchinchi*dan, kasbiy-iqtisodiy faoliyat bilan bog'liq tushunchalarni bilish talabalarning iqtisodiy savodxonligi ko'rsatkichi hisoblanadi. Zero, iqtisodiy savodxonlik amaliy faoliyat bilan uzviy bog'liq. Talabalarning iqtisodiy tushunchalarni bir-biridan farqlay bilishi, izohlab berishi, ularni tizimlashtirishi kasbiy-iqtisodiy layoqatidan dalolat beradi.

Talabalarning kasbiy-iqtisodiy layoqati ularning iqtisodiy tushunchalarni qanchalik darajada o'zlashtirgani bilan belgilanadi. Uni uch daraja (bosqich)ga ajaratish mumkin:

1-quyi bosqich. Ba'zi iqtisodiy atamalarning mazmun-mohiyati va ahamiyatini, ya'ni bu atamalarga mos kasbiy-iqtisodiy faoliyatni bilish.

2-o'rta bosqich. Iqtisodiy atamalarni tasniflash, bir-biridan farqlash, ularning asosiy belgilarini aniqlash, tushunchalar ta'riflarini bilish va ular to'g'risida yaxlit tasavvurga ega bo'lish.

3-yuqori bosqich. Har bir atamaning amaliy ahamiyati va asosiy belgilarini bilish asosida atamalar tasnifida uning o'rnini, boshqa atama va tushunchalar, kasbiy faoliyat bilan bog'liqligini aniqlash.

Albatta, talabalarga kasbiy-iqtisodiy tushunchalarni qiyoslab o'rgatish uchun o'qituvchi iqtisodiy tushunchalarning ma'no-mazmunini yaxshi bilishi kerak.

Ayniqsa, kasbiy-iqtisodiy bilim berishda talabalarga iqtisodiy tushunchalarni zamonaviy, ya'ni bozor iqtisodiyoti sharoiti nuqtai- nazaridan izohlab berish muhim ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega. Zero, iqtisodiy tushunchalar talabalarda iqtisodiy savodxonlikni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Bunda iqtisodiy ta'lim berishning turli zamonaviy yoki interfaol usullari, xususan, aqliy hujum, pinbord, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muzyorar, davra suhbat, zig-zag texnologiyasi, insert, o'rgimchak to'ri, ish o'yinlari, rolli o'yinlar, muammoli vaziyat, loyiha, yo'naltiruvchi matn, debat, o'z o'ringni top, damino, klaster kabi metodlardan foydalanish juda qo'l keladi. O'qitishning bu usullaridan foydalanib, iqtisodiy tushunchalar ma'nosini talabalarga tushuntirishda S. M. Vishnyakovning «Kasb-hunar ta'limi lug'ati» kitobidan samarali foydalanish maqsadga muvofiq.

Xulosa qilib aytganda, talabalarning iqtisodiy savodxonligini oshirish muammosini hal etish uchun kasb-hunar kollejlarda quyidagi ishlar amalga oshirilishi zarur:

- talabalarning kasbiy-iqtisodiy savodxonligini rivojlantirishning majmuaviy-maqсадli dasturi va konsepsiyasini ishlab chiqish;
- iqtisodiy ta'lim berish jarayonini talabalarning o'z-o'zini rivojlantirishiga yordam beruvchi tizim sifatida modellashtirish;
- innovatsion eksperimental (yangi tajribaviy) ishlarni o'tkazish;
- samarali kasbiy-iqtisodiy o'quv-uslubiy tizimni tashkil etish;
- talabalarning iqtisodiy bilimini nazorat qilish (tekshirib ko'rish);
- eng maqbul iqtisodiy ta'lim muhitini rivojlantirishga yordam beruvchi o'quv-moddiy bazani rivojlantirish;

— sanoat korxonlari bilan o‘zaro foydali hamkorlik munosabatlarini yo‘lga qo‘yish va boshqalar.

2.2 Iqtisodiy savodxonlikni rivojlantirish metod va shakllari

Uzluksiz ta‘lim tizimini joriy etishning alohida xususiyatlaridan biri ta‘limning mustaqil turi sifatida o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limining kiritilishi hisoblanadi. Bu bozor iqtisodiyoti sharoitida faoliyat ko‘rsatadigan malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga yo‘naltirilgandir.

Kasb-hunar ta‘limida umumkasbiy bilim asoslarini chuqur o‘rgatish orqali talabalarni iqtisodiy faoliyatga tayyorlash va ularda amaliy malakalarni rivojlantirish kabi muhim vazifalar amalga oshiriladi.

Xalq xo‘jaligiga raqobatbardosh mutaxassislar etishtiruvchi kasb-hunar ta‘limi muassasalarida tayyorlanadigan kadrlarni, ya‘ni bevosita iqtisodiy faoliyat bilan shug‘ullanadigan ijodkor kichik mutaxassis (tadbirkor, tijoratchi, texnik-arxitektor, kompyuter-dizayneri, plakatchi-rassom va ratsionalizator-ixtirochi)larni kasbiy tayyorlashda iqtisodiy ta‘lim muhim o‘rin tutadi.

Zotan, zamonamizning buyuk iqtisodchilari ham talabalik yillarida maktab partasida o‘tirib, kasbiy-iqtisodiy faoliyatlarini boshlaganlar.

Mamlakat iqtisodiyotidagi tub o‘zgarishlar, uning xom ashyo beruvchi yo‘nalishidan raqobatbardosh oxirgi iste‘mol uchun pirovard mahsulot ishlab chiqarishga o‘tayotganligi kasb-hunar ta‘limiga butunlay yangi vazifalarni qo‘ymoqdaki, ular endi malakali ishchilargina emas, balki har biri bir necha kasbni egallagan iqtisodiy savodxon xodimlarni ham etkazib berishlari kerak. Iqtisodchi xodim ishlab chiqarish xarakteriga tez moslashuvchi mutaxassis bo‘lib, u davlat va nodavlat korxonalarida faoliyat ko‘rsatib keta olish imkoniyatiga ega bo‘lmog‘i lozim.

Chunonchi, yuqori malakali raqobotbardosh iqtisodchi xodimlar tayyorlashda iqtisodiy savodxonlik kursining alohida xususiyatlari, ahamiyati va o‘z o‘rni bor bor.

Iqtisodiy ta’lim kasb-hunar kollejlarda ham kasbiy, ham umumta’limiy ahamiyatga ega. U ishlab chiqarish fanlari bilan birgalikda tanlangan kasb bo‘yicha amaliy faoliyat uchun zaruriy bilim, ko‘nikma va malakaning shakllanishini ta’min etadi. Zero, korxonalarda ishlab chiqariladigan mahsulotlar sifati fan, texnika va texnologiyalar taraqqiyotining hozirgi zamon bosqichi sharoitida ishlab chiqarish mehnatiga kirishgan yosh kichik mutaxassislarning iqtisodiy-kasbiy tayyorgarligiga bog‘liq. Bu noiqtisodiy OTM talabalarida zaruriy kasbiy ko‘nikma va malakalarni shakllantiruvchi iqtisodiy ta’lim asoslarini chuqur o‘zlashtirishga e’tiborni kuchaytirishni talab etadi.

Biz noiqtisodiy yo‘nalishdagi noiqtisodiy OTM talabalarining iqtisodiy savodxonligini rivojlantirish maqsadida fakultativ mashg‘ulotlar uchun mo‘ljallangan maxsus «Iqtisodiy savodxonlik» kursi va uning dasturini ishlab chiqdik. Ushbu dastur umumta’lim maktablarida o‘qitiladigan «Iqtisodiy bilim asoslari» hamda noiqtisodiy OTM talabalarini uchun nashr etilgan «Iqtisodiy bilim asoslari» va «Iqtisodiyot asoslari» qo‘llanma va darsliklarining bevosita mantiqiy davomi hisoblanadi.

«Iqtisodiy savodxonlik» kursi bo‘yicha bir necha dastur variantlari ishlab chiqilishi mumkin. O‘qituvchi o‘z ta’lim muassasasida predmet (kurs)ni o‘qitishning aniq shart-sharoitlarini: o‘quv soatlarini, o‘z malakasi darajasini, talabalarning tayyorgarligi darajasini, ta’lim muassasasining texnik ta’minotini, tegishli o‘quv materiallarining mavjudligi va mavjud emasligini hisobga olgan holda dastur variantlaridan birini tanlashi mumkin.

Mavzular bo‘yicha o‘quv vaqtini taqsimlashning taklif etilgan varianti yo‘naltiruvchi xarakterga ega bo‘lib, o‘qituvchi dasturning u yoki bu bo‘limiga ko‘proq e’tibor qaratishi mumkin. Bunda talabalarning bilishga bo‘lgan qizishi va

tayyorgarlik darajasini hisobga oladi. O‘qituvchi o‘z dasturini ishlab chiqishida «Iqtisodiy savodxonlik» kursi mazmunida aks etuvchi asosiy iqtisodiy konsepsiyalar ro‘yxatidan foydalanadi. Iqtisodiy tushunchalarni o‘rganish oddiydan murakkab sari boradi.

«Iqtisodiy savodxonlik» dasturi mashg‘ulot o‘tkazishning faol shakllaridan keng foydalanishga asoslanilgan. Pedagogik tajribalar ko‘rsatadiki, ulardan keng foydalanish talabalarning nazariy va amaliy bilimlarini chuqurlashtiradi. Talabalar olgan iqtisodiy bilimlarini amalda qo‘llash bo‘yicha amaliy malakaga ega bo‘ladilar, boshqa predmetlarni oson o‘zlashtiradi.

O‘quv mashg‘ulotlarida ish o‘yinlari va kompyuter o‘yinlari qoidasini tushuntirish vaqt talab etadi, chunki u olingan natijalarni tahlil etish va talqin qilishda alohida ahamiyatga ega. Dasturga adabiyotlar ro‘yxati ilova qilinadi va ular o‘qituvchilar uchun tavsiya etiladi. Shu bilan birga dastur bo‘yicha ishlash biznes va tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq jarayonlar haqida yaxlit tasavvurga ega bo‘ladi. Boshqa iqtisodiy fanlar (bank ishi, marketing, menejment, qimmatli qog‘ozlar bilan amallar)ni o‘rganish o‘quv amaliyoti bilan uzviy bog‘liq.

Quyida «Iqtisodiy savodxonlik» kursi o‘quv dasturini keltirib o‘tamiz (2.2.1-rasmga qarang).

2.2.1-jadval

«Iqtisodiy savodxonlik» kursi o‘quv dasturi

№	Mavzular	Ajratilgan soatlar soni		
		Ma’ruza	Amaliy mashg‘ulot	Mustaqil o‘qish
1.	Iqtisodiy savodxonlik» kursining predmeti va vazifalari	2		Takrorlash
2.	Iqtisodiy savodxonlikni rivojlantirishning ijtimoiy-siyosiy va ta’lim-tarbiyaviy ahamiyati	2		Takrorlash

3.	Iqtisodiy savodxonlikning tarixiy ildizlari	2		Iqtisodiyot tarixini o'rganish
4.	Mustaqillikdan keyin iqtisodiy savodxonlik tushunchasining ma'no va mazmuni, uning shakllanishi va rivojlanishi	2		A. I. Karimov asarlaridagi iqtisodiy tushunchalar tahlili
5.	Kasb-hunar ta'limi tizimida iqtisodiy ta'lim-tarbiya va iqtisodiy savodxonlik muammosi	2		Noiqtisodiy OTM talabalari uchun nashr etilgan iqtisodiyotga oid qo'llanmalar bilan tanishish
6.	Kasbiy-iqtisodiy faoliyat–iqtisodiy savodxonlikni rivojlantirish omili	2	2	Iqtisodiy faoliyat turlarini o'rganish
7.	Iqtisodiy tushunchalarni tasniflash bo'yicha intellektual trening	2	2	Lug'atlarni o'rganish
8.	Iqtisodiyot va amaliyot» mavzusida bayon yozish, tayanch ma'ruza matnini yoki ish daftarini tayyorlash	2	2	Uslubiy adabiyotlarni o'rganish
9.	Iqtisodiy masalalarni echishda axborot texnologiyalaridan foydalanish	2	2	Axborot texnologiya-lariga oid materiallarni o'rganish
10.	«Iqtisodiy savodxonlik» intellektual treningi	2	4	Takrorlash, amaliyotni o'rganish
11.	«Iqtisodiyot mamlakatiga sayyohat» didaktik o'yini	2	4	Iqtisodiy bilimlarni takrorlash
12.	«O'quv firmasi» didaktik o'yini	2	4	Iqtisodiy bilimlarni takrorlash
	Jami: 44	24	20	

«Iqtisodiy savodxonlik» kursining yuqorida keltirib o'tilgan dasturi O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi hamda Davlat ta'lim standartlari bo'yicha malakali kichik mutaxassislar tayyorlash talablaridan kelib chiqqan holda tuzilgan.

Ana shu maqsaddan kelib chiqqan holda «Iqtisodiy savodxonlik» kursini o'qitishda quyidagi vazifalarni hal etish ko'zda tutilgan:

-bitiruvchilarda real iqtisodiy hayot haqida tassavur hosil qilish.

-jamiyatning iqtisodiy taraqqiyotini jadallashtirishda iqtisodiyot fanining ahamiyatini tushuntirish, talabalarni g'oyaviy-siyosiy, vatanparvarlik, milliy istiqlol g'oyalariga sodiqlik ruhida tarbiyalash; iqtisodiyotimizning tarixiy-milliy ildizlari bilan tanishtirish;

-talabalarning real iqtisodiy dalillar, tushunchalar, qonunlar, nazariyalar, iqtisodiy fanlarning metodlari, jahon iqtisodiyoti tizimi, iqtisodiy modellar haqidagi tasavvurlarini kengaytirish;

-talabalarni iqtisodiy savodxonlik tushunchasi, uning ijtimoiy-pedagogik ahamiyati bilan tanishtirish;

-bo'lajak kichik mutaxassislarni mustaqil iqtisodiy ta'lim olish va mushohada yuritish usullari bilan qurollantirish;

-iqtisodiy munosabatlar, kasbiy-iqtisodiy faoliyat bo'yicha, iqtisodiy qonun va qarorlarni hayotda qo'llash bo'yicha amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish;

-talabalarni iqtisodiy tushunchalar, qonun-qoidalar, iqtisodiy hodisa va voqealar mazmunini tahlil qilishga o'rgatish;

-real hayotdagi iqtisodiy hodisalarni kuzatish va ularning sabablarini tushuntirish, shuningdek, darslik va qo'llanmalardan tashqari, yana qo'shimcha iqtisodiy adabiyotlar, davriy nashrlar, ma'lumotnomalar, lug'atlardan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish ;

-matematik-hisob kitob ishlariga, iqtisodiy masalalarni echishga o'rgatish, kasbiy-iqtisodiy faoliyat jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish malakalarini rivojlantirish;

-talabalarning iqtisodiy fanlarni o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshirish, iqtisodiy fanlarni o'qitishni amaliyot bilan, yangi demokratik jamiyat qurish bilan uzviy bog'lash talabalarni ongli ravishda kasbiy o'z-o'zini anglashga o'rgatish va o'quv motivlarini rivojlantirish ;

-talabalarda iqtisodiy savodxonlikni rivojlantirish .

«Iqtisodiy savodxonlik» o‘quv kursi bo‘yicha talabalar bilimiga qo‘yiladigan talablar dasturga kiritilgan har bir mavzu bo‘yicha mustaqil fikr yuritish va amaliy mashg‘ulotlarda faol ishtirok etish darajasi bilan belgilanadi. Bo‘lajak kichik mutaxassislar darslik va o‘quv qo‘llanmalarni va «Iqtisodiy savodxonlik» o‘quv kursi va shunga o‘xshash boshqa adabiyotlarni o‘zlashtirishlari bilan birga birinchi Prezidentimiz I. A. Karimov asarlarini, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev asarlarini, Respublika Oliy majlisi tomonidan iqtisodiyotga oid qabul qilingan qonunlarni va Vazirlar Mahkamasi tomonidan chiqarilgan me‘yoriy hujjatlarni ham o‘rganishlari lozim bo‘ladi.

Biz tomonimizdan ishlab chiqilgan va quyida keltirib o‘tiladigan uslubiy xarita iqtisodiy savodxonlik mashg‘ulotlarini tashkil etish jarayonini, mashg‘ulotlarda o‘qituvchi va talaba ishining ketma-ketligini, iqtisodiy savodxonlikni rivojlantirish bo‘yicha amalda qo‘llanilayotgan metodlar va o‘qitish vositalarining mohiyatini ochib beradi.

Albatta, noiqtisodiy yo‘nalishdagi noiqtisodiy OTM talabalarining iqtisodiy savodxonligini rivojlantirish maqsadida «Iqtisodiy savodxonlik» kursini o‘rganishning uslubiy xaritasini ishlab chiqish maqsadga muvofiq (2.2.2-va 2.2.3-jadvallarga qarang).

«Iqtisodiy savodxonlik» kursini o‘rganishning uslubiy xaritasi (noiqtisodiy yo‘nalishdagi noiqtisodiy OTM talabalarining iqtisodiy savodxonligini rivojlantirish misolida)

O‘rganiladigan mavzular	Ta’lim maqsadi	Motivatsion asos	O‘qitish metodlari
2. «Iqtisodiy savodxonlik» kursining maqsad va vazifalari	Talabalarga «Iqtisodiy savodxonlik» kursining maqsad va vazifalari haqida tushuncha berish, iqtisodiy savodxonlikning ahamiyatini tushuntirish	Ilgari o‘zlashtirilgan iqtisodiy tushunchalar mustahkamlanadi, talabalarda iqtisodiy savodxonlik oshiriladi	Suhbat, hikoya, ma’ruza bayon yozish, raqamlarni daftarga yozib, tahlil etish
2. Iqtisodiy savodxonlikni rivojlantirish ning ijtimoiy-siyosiy va ta’lim-tarbiyaviy ahamiyati	Iqtisodiy savodxonlikning jamiyat taraqqiyoti va mamlakatning rivojlanishidagi ijtimoiy-tarixiy ahamiyatini tushuntirish	Talabalarining iqtisodiy tasavvurlari va dunyoqarashi kengayadi, iqtisodiy tafakkuri rivojlanadi	Plakatlar, ko‘rgazmali materiallar, videolavhalar, suhbat, munozara ma’ruza
2. Iqtisodiy savodxonlikning tarixiy ildizlari	Iqtisodiy ta’lim-tarbiyaning tarixiy ildizlari, buyuk allomalarimizning iqtisodiy qarashlari bilan tanishtirish, savdo-sotiq, tijorat, buyuk ipak yo‘li, islomda iqtisodiy tarbiya tushunchalarini tarixiy nuqtai nazardan tushuntirish	Iqtisodiy ta’lim-tarbiyaga oid tarixiy meroslar, iqtisodiy voqea va jarayonlar, ular orasidagi bog‘liqliklar, iqtisodiy qarashlar o‘rganiladi, o‘rganilgan iqtisodiy tushunchalar yanada mustahkamlanadi	Muammoli suhbat, hikoya, tarixiy manbalar bilan tanishish
2. Mustaqillikdan keyin iqtisodiy savodxonlik tushunchasining ma’no va mazmuni, uning shakllanishi va rivojlanishi	O‘zbekistonda bozor munosabatlariga o‘tishning tarixiy shart-sharoitlari va bosqichlarini o‘rganish – iqtisodiy savodxonlikni rivojlantirish omili	Iqtisodiy tizimlarni taqqoslash metodi o‘rganilayotgan o‘quv materiallarini chuqur o‘zlashtirish va tushunishga, o‘zlashtirishni osonlashtirish va xotirada saqlab qolishga imkon beradi	Videolavhalar ko‘rsatish va muhokama etish, suhbat, tushuntirish, tahlil
2. Kasb-hunar ta’limi tizimida iqtisodiy ta’lim-tarbiya va iqtisodiy savodxonlik muammosi	Kasbiy faoliyatda iqtisodiy savodxonlikning ahamiyatini tushuntirish, talaba larni ijodiy fikrlashga o‘rgatish	Kasbiy-iqtisodiy ta’lim haqida tushuncha beriladi, Talabalarga o‘z ijodiy qobiliyatini namoyon etishga, mustaqil fikrlashga, xulosalar chiqarishga imkon beriladi.	Muammoli suhbat, doska, plakatlar-namoyishli usul
6. Kasbiy-iqtisodiy faoliyat-iqtisodiy	Kasbiy-iqtisodiy faoliyatning nazariy va	Talabalar kasbiy-iqtisodiy, amaliy	Ish uyinlari, rolli o‘yinlar,

savodxonlikni rivojlantirish omili	amaliy asoslari bilan tanishtirish, bo'lajak kichik mutaxassisning kelgusidagi kasbiy faoliyatdagi iqtisodiy amallar va vaziyatlarni o'rganish	faoliyatga o'rgatiladi	amaliyot
7. Iqtisodiy tushunchalarni tasniflash bo'yicha intellektual trening	Iqtisodiy tushunchalarni ixtisoslik bo'yicha guruhlarga ajratish, tasniflash, ularning amaliy ahamiyatini tushuntirish	Talabalarning ilgari o'zlashtirgan iqtisodiy bilimi va tushunchalari mustahkamlanadi	Topshiriqlar, mashqlar, amaliyot
8. «Iqtisod va amaliyot» mavzuida ilmiy-amaliy konferensiya	Ma'ruza matnlarini mustaqil yozishga, adabiyotlar bilan mustaqil ishlashga o'rgatish, mustaqil bilim olishga o'rgatish	Talabalarda mustaqil bilim olish bo'yicha ko'nikma va malakalar shakllanadi	Mustaqil ta'lim olish, ma'ruza, bayon yozish, tayanch ma'ruza matnini yoki ish daftarini tayyorlash
9. Iqtisodiy masalalarni echishda axborot texnologiyalaridan foydalanish	Iqtisodiy bilim olishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish – iqtisodiy savodxonlikni rivojlantirish omil ekanini tushuntirish	Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanib, iqtisodiy bilim olish bo'yicha amaliy malaka shakllanadi	Kompyuterdan foydalanib iqtisodiy masalalar echiladi, iqtisodiy mashq va topshiriqlar bajariladi
10. «Iqtisodiy savodxonlik» intellektual treningi	Talabalarning iqtisodiy jarayonlar va bu jarayonlarda kuzatiladigan o'zaro bog'liqliklar, iqtisodiy tushunchalar haqidagi tasavvurlarini rivojlantirish	Talabaning fanga bo'lgan qiziqishi ortadi, iqtisodiy savodxonligi rivojlanadi, u muammoni oldindan ko'ra bilishga va uni hal etish uchun mustaqil qaror qabul qilishga o'rganadi, unda amaliy-kasbiy ko'nikmalar rivojlanadi.	Intellektual trening, amaliyot
11. «Iqtisodiyot mamlakatiga sayyohat» didaktik o'yini	Talabalarning bank ishi, tadbirkorlik, boshqaruv faoliyati mavzularini o'rganish natijasida olgan bilimlarini tizimlashtirish va umumlashtirish.	Talabalarning iqtisodiy bilimi ortadi, ularda kasbiy-amaliy kunikmalar shakllanadi	Ish o'yini, rolli o'yin, amaliyot
12. «O'quv firmasi» didaktik o'yini	Real tijorat firmasi faoliyatiga taqlid qilgan holda ta'limiy maqsad asosida talaba larni ishlab chiqarish faoliyatiga tayyorlash, ularda shaxsiy va kasbiy sifatlarni	Kasbiy sifatlari (muloqotga kirishuvchanlik, komandada ishlash uquvi, ish vaqtini rejalashtirish, ishni tashkil eta bilish,	O'quv amaliyoti mashg'uloti

	rivojlantirish	axborotlardan foydalana olish, ziddiyatli vaziyatlardan chiqib keta bilish) va shaxsiy sifatlar (mas'uliyat, moslashuvchanlik, mulohazakorlik, bag'ri kenglik, dadillik) shakllanadi, kasbiy faoliyatga tayyorlanadi.	
--	----------------	---	--

2.2.3-jadval

«Iqtisodiy savodxonlikning tarixiy ildizlari» mavzusida

yozma ravishda amalga oshiriladigan savol-javob mashg'ulotining texnologik xaritasi

Faoliyat	Ta'lim oluvchining ikki	Guruhlarda ishlash uchun auditoriyani tayyorlaydilar.
	Ta'lim beruvchisi niki	<p>O'quv mashg'ulotining maqsad va natijalarini shakllantiradi, uni baholash mezonlarini belgilaydi. Kerakli o'quv materiallarini tayyorlaydi. Guruhlar tarkibi belgilaydi.</p> <p>Mashg'ulot boshlanishidan oldin, stollar guruhlarning ishlashi uchun qulay tarzda o'rnatilishini ta'minlaydi.</p> <p>O'quv mashg'ulotini o'tkazish qoidalari, ishning maqsadlari va baholash mezonlari bilan tanishtiradi. Ta'lim oluvchilarni 2-3 ta guruhga bo'ladi. Auditoriya bo'ylab savollar yozilgan konvertlarni tarqatish tartibini belgilaydi va ko'rsatadi. Konvertlarni tarqatish bo'yicha mashq ishlarini amalga oshiradi. Javoblarni tayyorlash va yozish uchun vaqtni belgilaydi.</p> <p>Ta'lim oluvchilar vazifani tushunganliklariga ijaror bo'lish</p>
Ishning bosqichlari mazmuni	va	I-bosqich. Tayyorgartik.

«Iqtisodiy savodxonlik» dasturini ishlab chiqish sabablarini quyidagicha asoslash mumkin:

Endi quyida «Iqtisodiy savodxonlik» kursi mavzularidan birini o'rganishning texnologik xaritasini keltirib o'tamiz. Mavzu yozma ravishda savol-javob asosida o'tkaziladi.

1. Dasturni ishlab chiqish uchun noiqtisodiy OTM talabalari uchun yaratilgan zamonaviy o'quv-uslubiy qo'llanmalardan, shuningdek xorijiy mamlakatlarda nashr etilgan adabiyotlardan foydalaniladi.

2. Dastur bo'yicha ishlash hozirgi zamon statistik ma'lumotlar va iqtisodiy ko'rsatkichlardan foydalanishni, joriy iqtisodiy voqea va hodisalarni tahlil etishni taqozo qiladi.

3. Dastur bo'yicha ishlash zamonaviy texnik vositalar (kompyuterlar, proektorlar va videotexnikalar, telekommunikatsiyaning yangi vositalari, Internet tarmog'i, multimedia dasturlari va maxsus dasturiy vositalar) dan foydalanishni nazarda tutadi.

4. O'qitishning zamonaviy metodlari (rolli o'yinlar, kichik guruhlarda ishlash, kompyuterda modellashtirish va boshqalar) va bilimlar monitoringining zamonaviy metodlari (berilgan topshiriqlarni bajarish natijasini test orqali tekshirib ko'rish va natijalarni kompyuterda qayta ishlash, iqtisodiy diktantlar, iqtisodiy masalalar echish, referatlar yozish, esse, o'yin jarayonida mustaqil qabul qilingan boshqaruv qarorlarini baholash va boshqalar) dan keng foydalanilgan holda dastur bilan ishlash katta samara beradi.

2.3. Talabalar iqtisodiy savodxonligini rivojlantirishning amaliy-didaktik vositalari

Bo'lajak kichik mutaxassislarning iqtisodiy tayyorgarligini oshirish ancha dolzarb masala bo'lib, u bozor iqtisodiyotining o'ziga xosligi bilan belgilanadi.

Uni har qanday kasb egasi bilishi kerak. «Iqtisodiyot odami»ni rivojlantirish kun tartibining muhim masalasiga aylandi, chunki iqtisodiy qiziqishi, kasb-koridan qat'iy nazar turli hayotiy vaziyatlarda va xo'jalik-tarmoq tizimlarida faoliyat ko'rsatayotgan mutaxassislarining shaxsiy-kasbiy shakllanishi asosi iqtisodiy bilim hisoblanadi. Individdning insoniy va fuqarolik holati, oxir-oqibatda, yashash tarzi uning iqtisodiy fikrlash usuliga, iqtisodiy savodxonligiga bog'liq.

«Inson iqtisod uchun emas, balki iqtisod inson uchun» degan hikmatli gaplari bejiz aytilmagan. Bu hikmatomuz fikr mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub iqtisodiy islohotlarning mohiyat va maqsadini ifodalaydi, uni hayotga joriy etish esa har bir O'zbekistonlikning insoniy burchidir. Buning uchun esa yangicha iqtisodiy fikrlash, boqimandalik psixologiyasidan xolilik, tadbirkorona ish yuritish, o'z taqdiri va baxt-saodati uchun mas'ullik, to'g'rirog'i, iqtisodiy savodxonlik zarur bo'ladi. Shuning uchun kasb-hunar kollejlarning yuqori bosqich talabalari «Iqtisodiy savodxonlik» kursini o'rganib nafaqat o'zlarining iqtisodiy savodxonligini oshirishga bo'lgan ehtiyojini qondiradi, balki bozor iqtisodiyotining mavjud bo'lishi tartib-qoidalarini ham o'zlashtiradi, shuningdek iqtisodiy tafakkur tarzini rivojlantirishga urinadi va bozor iqtisodiyoti munosabatlari modelini o'rganadi. Bu kurs, birinchidan talabalarning iqtisodiy savodxonligini oshirish bilan bir qatorda bozor munosabatlariga o'tishning O'zbekiston modelini o'rganishi uchun imkoniyat beradi.

Agar talabalar iqtisodiy savodxonligini oshirish borasida ancha-muncha tajriba ega bo'lishgan bo'lishsa, ular uchun bir oz murakkab topshiriqlar, «intellektual treninglar» deb atalgan savollar tuzish mumkin. Ammo intellektual treninglarning barcha savollariga ularning o'zlari birdaniga javob topishi majburiy emas. Savollar ancha murakkab bo'lib, faol fikrlashni, qo'shimcha axborotlarni, ma'lum tayyorgarlikni talab etadi. Bunda talabalar qo'shimcha adabiyotlar, gazeta va jurnallardan foydalanib, shuningdek, o'qituvchi va mutaxassislar ko'magida savollarga javob topishlari mumkin.

Talabalarning iqtisodiy savodxonligini rivojlantiruvchi topshiriq va masalalar. Iqtisodiy ta'lim samaradorligi va talabalarning iqtisodiy savodxonligini oshirish ta'lim jarayonida iqtisodiy topshiriqlarni bajarish va iqtisodiy masalalarni echish bilan uzviy bog'liq. Ular doimiy ravishda talabalarning bilish faoliyatini faollashtiradi, irodasini rivojlantiradi, e'tiborini oshiradi. Noiqtisodiy OTM talabalari-bitiruvchilarining kasbiy bilimlarni egalashlari bilan bir qatorda iqtisodiy bilimlarni, xususan, ulardan amalda foydalanishni bilishlari zarur. Shuning uchun ham iqtisodiy masalalarni echish talabalarning iqtisodiy bilimlarni ongli ravishda va puxta o'zlashtirishiga hamda iqtisodiyot sohasidagi faoliyatlar bilan bog'liq muammolarni echish ko'nikmalarini egallashida muhim o'rin tutadi. Bundan tashqari, iqtisodiy masalalarni echish talabalarni iqtisodiy bilimlarning amaliy tatbiqi bilan tanishtiradi. Iqtisodiy topshiriqlar esa, talabalarning kasbiy-iqtisodiy faoliyat sohasidagi bilimlarini boyitadi.

Iqtisodiy masalalar hozirgi vaqtda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimida foydalanilayotgan o'quv dasturlari mazmuni doirasida tuzish va ularni mavzular bo'yicha guruhlarga ajratish maqsadga muvofiq. Quyida talabalarga beriladigan iqtisodiy topshiriqlardan birini keltirib o'tamiz. Iqtisodiy tushunchalarni kategoriyalar bo'yicha guruhlarga ajratish bo'yicha topshiriq.

Quyida keltirilgan iqtisodiy tushuncha va iboralarni kategoriyalar bo'yicha guruhlarga ajrating va ularning ma'nosini izohlab bering: tovar, qo'llanish maqsadiga ko'ra tovar turlari, tovar bahosi, tovarning iste'mol qiymati, valyuta, valyuta turlari, valyuta kursi, valyuta kursini belgilash usullari, valyutani sotib olish pariteti, diskont, valyuta intervesiyasi, devalvatsiya va revalvatsiya, marja, aksiya, aksiya turlari, aksiya foydasi, aksiya baholari turlari, aksiya aylanmasi, aksionerlik jamiyati, ochiq aksionerlik jamiyati, yopiq aksionerlik jamiyati, muassis foydasi, ustav kapitali, valyuta kotirovkasi va uning turlari, valyuta amallarining xilma-xilligi, tovar-belgisi (simvolikasi), tovar markasi, firma nomi, firma belgisi, tovar belgisi, qadoqlash, tovar assortimenti, tovar nomenklaturasi, tovarning arzonlashishi va qimmatlashishi.

Iqtisodiy tushunchalarni kategoriyalar bo‘yicha guruhlarga ajratishga doir misol keltiramiz(2. 3.1-jadvalga qarang)

2. 3.1-jadval

Iqtisodiy tushunchalarni kategoriyalar bo‘yicha guruhlarga ajratish

Tovarga oid tushunchalar	Aksiyaga oid tushunchalar	Valyutaga oid tushunchalar
tovar, qo‘llanish maqsadiga ko‘ra tovar turlari, tovar bahosi, tovarning iste‘mol qiymati, tovar-belgisi (simolikasi), tovar markasi, firma nomi, firma belgisi, tovar belgisi, qadoqlash, tovar assortimenti, tovar nomenklaturasi, tovarning arzonlashishi va qimmatlashishi	aksiya, aksiya turlari, aksiya foydasi, aksiya baholari turlari, aksiya aylanmasi, aksionerlik jamiyati, ochiq aksionerlik jamiyati, yopiq aksionerlik jamiyati, muassis foydasi, ustav kapitali	valyuta, valyuta turlari, valyuta kursi, valyuta kursimi belgilash usullari, valyutani sotib olish pariteti, diskont, valyuta intervesiyasi, devalvatsiya va revalvatsiya, marja, valyuta kotirovkasi va uning turlari, valyuta amallarining xilma-xilligi

Iqtisodiy masalalar echish. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari bitiruvchilari uzluksiz o‘zgarishda bo‘lgan ijtimoiy hayotda to‘g‘ri yo‘nalish ola bilishi uchun bozor iqtisodiyoti asoslari haqida tasavvurga ega bo‘lishi, iqtisodiy atamalar va tushunchalarni yaxshi bilishi, iqtisodiy hodisa va voqealarning sabablarini tushunishi lozim. Bizning nuqtai-nazarimiz ham ko‘plab pedagog olimlar, masalan, I. M. Bobko, S. V. Urvansev va boshqalarning fikr-mulohazalariga mos keladi, ya’ni bitiruvchilar iqtisodiyot haqida yaxlit tasavvur beradigan tayanch iqtisodiy bilimga ega bo‘lishlari kerak. Buning uchun esa, ularga izchil ravishda iqtisodiy ta’lim berilishi kerak. Olimlarning e’tirof etishicha, iqtisodiy faoliyatga oid qonunlarini bilishda iqtisodiy masalalarni echish, iqtisodiy yo‘nalishdagi matematika fani amallari talabalar uchun apparat, o‘ziga xos vosita rolini o‘ynaydi [116, 7-18-b]. Iqtisodiy savodxonlik maxsus kursi o‘quv materiallari mazmuniga matematika-hisob-kitob elementlarini, iqtisodiy masalalarni echishni kiritish talabalarning iqtisodiy savodxonligini va iqtisodiy

madaniyatini oshirishga yordam beradi. U ta'limning tegishli bosqichida talaba uchun tushunarli bo'lgan darajada iqtisodiy-matematik o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi (27, -5-6 b).

Talabalarda iqtisodiy fikrlash tarzini rivojlantirish muammosini matematika vositasida tadqiq etish, nafaqat, dasturiy materialning mazmunini tanlashni, balki uni o'qitish metodikasining o'ziga xos jihatlarini ochib berishni, o'qitish shakllari, metodlari va vositalarini takomillashtirishni talab etadi.

Iqtisodiy ta'lim mazmuniga matematika elementlarini kiritish quyidagi savollarga aniq javob topishni talab etadi:

-matematika elementlari kiritilgan iqtisodiy o'quv materiallarini nima uchun o'rganish kerak, ya'ni o'quv maqsadi va vazifasini aniqlash;

-nimaga o'rgatish kerak, ya'ni ta'lim mazmunini aniqlash, o'quv dasturini asoslash va tuzish, maxsus kurs va qo'llanmalar ishlab chiqish;

-qanday o'qitish kerak, ya'ni ta'lim metodlari va usulini ishlab chiqish, darslarni loyihalash;

-talabalarning bilimlarni o'zlashtirishini nazorat qilish.

Iqtisodiy masalalarni echishda, shuhbasiz, matematik hisob-kitobning ahamiyati beqiyosdir. Iqtisodiyot fanining rivojlanish tarixi ko'rsatadiki, iqtisodiy masalalarni echishda real hayotning u yoki bu yo'nalishlarini xarakterlovchi matematik tasavvurlar, tushunchalar alohida o'rin tutadi. Buning uchun iqtisodiy o'quv materillarida matematik-hisob-kitob bilan bog'liq masalalar berilishi lozim. Iqtisodiy muammolarni echish hozirgi zamonda ko'proq miqdoriy yondashuvlar bilan xarakterlanadi, ya'ni matematika bilan uzviy bog'liq. Shuning uchun iqtisodiy mazmunga ega bo'lgan mashqlardan foydalanish talabalarga matematika predmeti mazmunining tevarak-olam bilan o'zaro bog'liqligini ochib beradi va talabalarning iqtisodiy savodxonligi shakllanishiga xizmat qiladi.

Iqtisodiy savodxonlikni rivojlantirish ning zaruriy sharti bu – Talabalarga iqtisodiy bilim asoslarini o'quv fanlarining xilma-xil kompleksi, shu jumladan,

matematika yordamida turli nuqtai nazardan o'qitish, shuningdek, ular ongida tayanch iqtisodiy tushunchalarni rivojlantirish nazarda tutilgan yangi iqtisodiy muhitda to'g'ri yo'nalish o'la bilishga, oliy ta'lim sharoitiga va kelgusida kasbiy faoliyatga moslasha olishga imkon beruvchi maxsus dasturlar yaratish hisoblanadi. Bunday dasturlar yaratishda, eng avvalo, kasb-hunar kolejlarida iqtisodiy yo'nalishlarning o'ziga xosligini e'tiborga olib, matematik mazmundagi iqtisodiy materiallarni tanlash mezonlarini ishlab chiqish zarurati yuzaga keladi. Talabalarining iqtisodiy savodxonligini rivojlantirish ga qaratilgan matematik mazmundagi iqtisodiy materiallarni tanlash mezonlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Bunda Yu.K. Babanskiy, I. S. Yakimanskaya, I. Ya. Lerner, Yu. M. Kolyagin, V. A. Oganesyanyan, G. V. Dorofeev, V. M. Monaxov, Ye. Yu. Nikonova, N. Ye. Fedorova, V. V. Firsov, V. F. Xarkovskaya va boshqalarning psixologik didaktik-metodik g'oyalariga tayanish ijobiy natijalar beradi. Matematik mazmundagi iqtisodiy materiallarni tanlash muammosini tahlil etish va pedagogik tajribalar bizga quyidagi mezonlarni aniqlashtirishga imkon berdi:

-psixofiziologik - o'qitish mazmunini tanlashda talabalarining o'ziga xos psixofiziologik va yoshiga xos xususiyatlarini e'tiborga olish, shuningdek, ularning tushunarli sodda bo'lishini ta'minlash;

-tuzilmaviy-mazmuniy-iqtisodiy savodxonlik kursi mavzularini aniqlashtirish-doimiy ravishda integrallashgan didaktik maqsad asosida kasbiy ko'nikma va malakalarga erishish maqsadida iqtisodiy bilim asoslari kursini an'anaviy o'qitish mazmuni bilan uzviy bog'liq bo'lgan mavzularni tanlash va tizimlashtirish;

-mazmuniy-uslubiy — tanlangan iqtisodiy o'quv materiallarining talabalar uchun tushunarli bo'lishi, iqtisodiy ta'limning amaliy yo'nalishi va fanlararo bog'lanishini kuchaytirish;

-amaliy – iqtisodiy ta'lim natijasida olingan bilimlarni mustaqil faoliyatda keng qo'llay bilish, ularning ilmiy jarayondagi ahamiyati va istiqbolliligi.

Iqtisodiy savodxonlik kursi mazmunini tanlash mezonlarini amalda qo'llash noiqtisodiy yo'nalishdagi kasb-hunar kollejlarda iqtisodiy ta'lim jarayoni va mazmunining asosiy komponentlarini aniqlashtirishga imkon berdi.

Psixologlar tomonidan o'tkazilgan O'quvlar ko'rsatadiki, iqtisodiy tafakkur yuritishning asosiy parametrlari tezkorlik, moslashuvchanlik, tanqidiy nuqtai-nazardan yondashuv, vaziyatga qarab ish tutish, qiyin vaziyatlardan chiqib ketish yo'lini bilish. Bu sifatlar talabalarda matematik modellar tuzish, iqtisodiy masalalarni echishning oqilona metodlarini tanlay bilish, echimlarning optimal variantini bohalay olish uquvi mavjud bo'lishini nazarda tutadi; kompyuter savodxonligi o'ta muhim, ya'ni talabalar iqtisodiy modellardan birini tanlab, matematik tahlil eta olish malakasiga ega bo'lishlari kerak. Yuqorida ta'kidlab o'tilgan ishlar iqtisodiy ta'lim-tarbiyaning asosini tashkil etadi. Ularni umumiy tarzda quyidagicha ifodalash mumkin.

-talabalarning iqtisodiy tushunchalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklarni anglab etishi;

-talabalarning olgan iqtisodiy bilimlarini amalda qo'llay bilishlari.

Bitiruv ishlarida iqtisodiy yo'nalishning alohida ajratilib ko'rsatilishining maqsadga muvofiqligini quyidagi omillar bilan asoslash mumkin.

- 1) jamiyatning iqtisodiy ma'lumotga ega bo'lgan malakali mutaxassislarga bo'lgan ehtiyoji;
- 2) ta'limni tabaqalashtirish boasida mamlakatimizda orttirilgan tajribalar;
- 3) talabalarda iqtisodiy savodxonlikning rivojlanishiga imkon beruvchi iqtisodiy masalalarning xususiyatlari.

Yuqorida bildirilgan mulohazalarni umumlashtirib aytish mumkinki, iqtisodiy ta'lim jarayonida matematik hisob-kitoblardan foydalanish, to'g'rirog'i, iqtisodiy masalalarni echish talaba larning iqtisodiy savodxonligi ortishiga xizmat qiladi shaxsini rivojlantiradi, bilishga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi.

Turli xil iqtisodiy masalalarni boshqa o'quv fanlaridan o'zlashtirgan bilimlar va real hayotdan olingan misollar asosida o'rganish talabalarning ijodiy

qobiliyatini yanada rivojlantiradi. Darsdan tashqari iqtisodga oid mashg'ulot va tadbirlar nafaqat talaba larning iqtisodiy bilimlarini mustahkamlash, balki ularni axloqiy jihatdan tarbiyalash omili hisoblanadi.

Talabalarni iqtisodiy masalalarni echishda axborot texnologiyalaridan foydalanishga o'rgatish ularning iqtisodiy savodxonligini rivojlantirish ning muhim omillaridan biridir. Zero, hozirgi zamon biznesi va menejmentidagi muvaffaqiyat ko'p jihatdan iqtisodiy vaziyatlarni tezkor tahlil etish va iqtisodiy masalalarni echishning mavjud bo'lgan muqobil variantlardan eng maqbulini tanlay bilishdir. Amaliy masalalarni muvaffaqiyatli echish, tashkiliy-xo'jalik faoliyati sohasidagi boshqaruvni takomillashtirish uchun respublikamizda boshqaruv kadrlarining, shuningdek, xo'jalik yuritish (tadbirkorlik, kichik biznes, firma, bank va moliya) sohasida faoliyat ko'rsatadigan kichik mutaxassislarining kasbiy-iqtisodiy tayyorgarligini oshirish zarur. Xususan, axborot texnologiyalari muhitida matematik modellashtirishdan foydalanilgan holda qarorlar qabul qilish nazariyasiga tayanilgan boshqaruvning yangi metodlarini qo'llay oladigan malakali mutaxassislar zarur. Bunday masalalarni echishda Microsoft Excel juda qulay hisoblanadi (22, -72 b).

Biz noiqtisodiy yo'nalishdagi kasb-hunar kolejlarida «Iqtisodiy savodxonlik» maxsus kursni o'qitishda talabalar oldiga mustaqil echishlari uchun bir nechta iqtisodiy masala qo'ydik. Quyida ulardan ayrimlarini keltirib o'tamiz.

Mustaqil echish uchun iqtisodiy masalalar (misol tariqasida). **Birinchi masala.** Avtomobil zavodi to'rt xil turdagi avtomobil ishlab chiqaradi: W, X, Y, Z (Xat, Sedan, Djip, Vagon). Zavodda har oyda kamida jami 1000 ta avtomobil ishlab chiqariladi. Bir oy davomida zavod ishchilarining har biri 150 soatdan ishlaydi. Zavod bir oyda 900 tonnadan ortiq po'lat sarflashi mumkin.

Ushbu iqtisodiy masalani echishda avtomobil modellarining shunday assortiment to'plamini va har bir modelning shunday birligi miqdorini tanlash kerakki, natijada zavod eng ko'p foyda olsin. Ayni bir vaqtda resurslar, ya'ni vaqt, quvvat va mahsulot (po'lat) tejalishi kerak.

Ikkinchi masala. Korxonada quyidagi resurslarga ega:

— ishchi kuchi –2000 kishi-soat;

— materiallar –1800 birlik;

— jihozlar fondi -1900 stanok/soat;

Bu resurslar asosida uch xil mahsulot tayyorlanadi: A, V, S.

A turdagi mahsulotni ishlab chiqish uchun quyidagilardan foydalaniladi: ishchi kuchi — 3,7 kishi, materiallar — 2,4 birlik, jihozlar — 2,6 stanok/soat.

V turdagi mahsulotni ishlab chiqish uchun quyidagilardan foydalaniladi: ishchi kuchi — 3,1 kishi, materiallar — 1,4 birlik, jihozlar — 1,7 stanok/soat.

S turdagi mahsulotni ishlab chiqish uchun quyidagilardan foydalaniladi: ishchi kuchi — 2,2 kishi, materiallar — 2,2 birlik, jihozlar — 2,0 stanok/soat.

A turdagi mahsulotni sotishdan 400 so‘m, V turdagi mahsulotni sotishdan — 700 so‘m, S turdagi mahsulotni sotishdan — 500 so‘m foyda olinadi.

Korxonada A turdagi mahsulotdan eng kamida 10 birlik, eng ko‘pi 25 birlik, V turdagi mahsulotdan eng kamida 15 birlik, eng ko‘pi 40 birlik, S turdagi mahsulotdan faqat 15 birlik ishlab chiqishi kerak.

Iqtisodiy masalaning echimini topish uchun ishlab chiqarish bo‘yicha shunday ish rejasini aniqlash kerakki, bunda korxonada eng yuqori foyda olishi va mahsulot belgilangan muddatda ishlab chiqilishi lozim. Turli xil iqtisodiy masalalarni boshqa o‘quv fanlaridan o‘zlashtirgan bilimlar va real hayotdan olingan misollar asosida o‘rganish talabalarining ijodiy qobiliyatini yanada rivojlantiradi. Darsdan tashqari iqtisodga oid mashg‘ulot va tadbirlar nafaqat talabalarining iqtisodiy bilimlarini mustahkamlash, balki ularni axloqiy jihatdan tarbiyalash omili hisoblanadi (20, 72-b).

Ish daftaridan foydalanish. Talabalarda mustaqil ishlash malakasini rivojlantirish, shuningdek ularning bilish faoliyatini faollashtirish maqsadida ish daftaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Ish daftari deyilganda talabalarning

mustaqil ishini tashkil etish uchun qat'iy o'quv dasturi asosida yoki fakultativ kurs mashg'ulotlari sifatida bajariladigan topshiriqlar (masala va mashqlar, topshiriqlar, topshiriqli kartochkalar) to'plamini o'z ichiga olgan daftar tushuniladi. Ko'pgina pedagoglar ish daftarlari talabalarning mustaqil ishini tashkil etishda samarali vosita ekanini ta'kidlaydilar. Pedagogik adabiyotlardagi ma'lumotlarga qaraganda ta'lim jarayonida ish daftaridan foydalanish quyidagilarga imkon beradi:

-o'quv mashg'uloti uchun ajratilgan vaqtdan unumli foydalanishga;

-talabalarning bilish faoliyatiga rahbarlik qilishga;

-talabalarning mustaqil bilim olishini ta'minlashga

-yangi o'quv ma'lumotlari va qo'shimcha ma'lumotlarni o'rganish jarayonida talabalarning bilish faoliyatini faollashtirish va olgan bilimlarini mustahkamlashga.

Tayanch-ma'lumot konspektidan foydalanish. Tayanch-ma'lumot konspektlari-o'qitishning didaktik vositasi bo'lib, ularda ma'lum o'quv axboroti aks etadi. Ulardan turli ta'limiy masalalarni hal etishda, masalan, yangi o'quv materiallarini o'zlashtirishda, iqtisodiy topshiriqlar va mashqlarni bajarishda, bilimlarni o'zlashtirish natijalarini nazorat qilishda, ilgari o'rganilgan tushunchalarni takrorlashda foydalaniladi.

O'yin texnologiyalaridan foydalanish. O'yin yordamida o'qitish o'quv jarayonini faollashtiradi, talabalarni mustaqil ta'lim olishga rag'batlantiradi, ularning o'rganilayotgan o'quv materialiga qiziqishini yanada orttiradi. Bu barcha o'quv predmetlari, ayniqsa, iqtisodiy yo'nalishdagi fanlar, xususan, «Iqtisodiy savodxonlik» maxsus kursini o'qitish uchun ham dolzarb masaladir.

O'quv jarayonida o'yin texnologiyalarining o'rni va ahamiyatini aniqlash ko'p jihatdan o'qituvchining pedagogik o'yinlarining vazifasi, maqsad va vazifalarini qanday tushunishiga bog'liq.

Iqtisod nafaqat nazariy, balki ko‘proq amaliy fandır. U bevosita amaliyotga tayanadi, aniq manbalar, raqam va hisob-kitoblardan foydalanadi. Shuning uchun iqtisodiy bilimlarni o‘rgatish, iqtisodiy tafakkurni rivojlantirish, iqtisodiy haqiqatlarni namoyon etish aniq iqtisodiy jarayonlar asosida amalga oshiriladi. Bunda amaliy vaziyatlarni o‘yinlar vositasida ko‘rsatish alohida ahamiyatga ega. Ish o‘yinlari - iqtisodiy bilimlarni o‘zlashtirishning samarali usuli.

Iqtisodiy ish o‘yinlari talabalarni bevosita iqtisodiy hodisa va voqealarning ishtirokchisiga aylantiradi.

Iqtisodiy ish o‘yinlari bilish jarayonlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, qiziqarlilik xususiyatiga ega. Iqtisodiy o‘yinlarda talabalar individual, guruh va jamoa holida ishtirok etishlari mumkin.

Pedagogik tajribalar natijasi ko‘rsatadiki, iqtisodiy ta‘lim berishda o‘qitishning zamonaviy usullaridan foydanlanish, rolli o‘yinlar ta‘lim oluvchilarning bilish faoliyatini ancha faollashtiradi. Ta‘lim-tarbiya jarayonida rolli o‘yinlardan foydalanish talabalarning tanlagan kasbiy yo‘nalish bo‘yicha olgan maxsus bilimlari va kasbiy qobiliyatini namoyon etishga imkon beradi. Agar bo‘lajak mutaxassis o‘zini muassasa rahbari, iqtisodchi-tadbirkor yoki firma rahbari sifatida tasavvur etib faoliyat ko‘rsatsa o‘quv materiallarini juda yaxshi o‘zlashtiradi.

Rolli o‘yin metodining asosiy afzalliklarini qisqacha quyidagicha ifodalash mumkin:

— amaliy o‘qitish sharoiti bo‘lajak kichik mutaxassislar kasbi bo‘yicha kelgusida ishlaydigan shart-sharoitga maksimal darajada yaqinlashtiriladi;

— talabalarda kompleks tarzda kasbiy bilimlar, ko‘nikma va malakalar shakllanishini ta‘minlaydi;

— kasbiy-amaliy faoliyat modeli yaratiladi;

— talabalar o‘yin jarayonida tajriba orttiradi, yo‘l qo‘ygan xatolarini o‘zlari to‘g‘rilaydi va bunda hech qanday ma‘naviy zarar ko‘rmaydi.

Rolli o‘yinlarni to‘rt bosqichda tashkil etish mumkin: o‘yinga tayyorgarlik ko‘rish, o‘yin, o‘yinni tahlil etish, o‘yinda ilgari surilgan g‘oyani amalda joriy etish.

Iqtisodiy ta‘lim jarayonida o‘yinlardan foydalanish talabaning fanga bo‘lgan qiziqishini ottiradi, iqtisodiy savodxonligi shakllanishiga yordam beradi, Talaba muammoni oldindan ko‘ra bilishga va uni hal etish uchun mustaqil qaror qabul qilishga o‘rganadi, unda amaliy-kasbiy ko‘nikmalar rivojlanadi, xulosa qilib aytganda:

II-Bob bo‘yicha xulosalar.

1. Nazariy tahlillar asosida aniqlandiki, kasbiy-iqtisodiy, amaliy bilimlarni puxta egallagan bo‘lajak mutaxassis iqtisodiy savodxon kishi hisoblanadi. Bizning fikrimizcha, iqtisodiy savodxon kishi - bu kasbiy va iqtisodiy madaniyatini yuksak egallagan, shuningdek, axloqiy va etik qadriyatlar tizimida shaxsiy sifatlarini rivojlantirgan mutaxassisdir.

2. Ayni holda bo‘lajak kichik mutaxassisning iqtisodiy savodxonligi, iqtisodiy madaniyati uning kasb madaniyatining tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘ladi, u maxsus tayyorgarlikni talab etadi va kasbiy faoliyatning yuksak sifati orqali ifodalanadi.

3. O‘quv jarayonida bo‘lajak mutaxassisning kasbiy-iqtisodiy sifatlarining umumlashtirilgan nazariy modeli loyihalandi. U quyidagi komponentlar birligidan iborat: katta hajmdagi iqtisodiy axborotga egalik, shakllangan aqliy imkoniyat, iqtisodiy tushunchalarni tizimlashtirish, tizimli fikrlash borasidagi ijodiy qobiliyatlar, iqtisodiy axborotlar bilan ishlay olish malakasi, axloqiy va etik qadriyatlar tizimida shaxsiy sifatlarini rivojlantirish, iqtisodiy ta‘lim jarayonida o‘quv faoliyati samaradorligini ta‘minlovchi yuksak darajadagi ma‘naviy sifatlar.

4. Iqtisodiy savodxonlikni rivojlantirishning taklif etilayotgan umumlashtirilgan nazariy modeli, shuningdek, empirik o‘quv natijalari iqtisodiy ta‘lim jarayonida talabaning iqtisodiy tayyorgarlik darajasi mezonlarini aniqlash imkonini berdi. Ushbu o‘quvning o‘ziga xos xususiyati shu bilan belgilanadiki,

talabalarining iqtisodiy tayyorgarlik darajasi ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchining o'zaro munosabatining ichki omillariga bog'liqligi aniqlandi.

5. Noiqtisodiy OTM talabalarining iqtisodiy savodxonligini ta'minlash jarayonida talabalarga individual yondashish, ularning mustaqil o'quv faoliyatlarini tashkil etishga ustuvor vazifa sifatida qaraldi. Shuningdek, talabalarining iqtisodiy savodxonligini oshirishda mustaqil ishlash shakllarini kuchaytirish lozimligi tajriba-sinov ishlari natijasida tasdiqlandi.

6. Or'ta maxsus, kasb-hunar o'quv muassasalari uchun iqtisodiy ta'lim mazmuni va o'qitish metodikasini yangilash hamda takomillashtirish ishlarini o'qituvchilar, pedagogik olimlar va turli vazirliklar ishchi guruhlarini hamkorligida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq ekaniga ishonch hosil qilindi.

7. Noiqtisodiy OTM talabalarini uchun iqtisodiy ta'lim mazmunining yangilanib borishi, uning kasbiy yo'nalishini kuchaytirish ob'ektiv zaruriyat bo'lib, uni bosqichma-bosqich amalga oshirish hamda bunda uzviylik va izchillikni ta'minlash zarurati tajriba-sinov ishlari jarayonida o'z tasdig'ini topdi.

III BOB. PEDAGOGIK TAJRIBA-SINOV ISHLARI VA ULARNING NATIJALARI

3.1. PEDAGOGIK TAJRIBA-SINOV ISHLARINI TASHKIL ETISH VA UNING MAZMUNI

Talabalar iqtisodiy tayyorgarligini rivojlantirish muammosiga doir izlanishlar, birinchidan, bu boradagi ilmiy tadqiqot jarayonini tashkil etishga; ikkinchidan, mazkur yoʻnalishda talabalar tayyorgarligi darajasini oshirish zaruriyatiga, uchinchidan, oʻquv jarayonida tadbirkorlikka oid bilim, koʻnikma va malakalarni shakllantirish ishi va usullarining yanada samarali tashkiliy yoʻllari, shakllari va metodlarini topish zarurligiga olib keldi [11-12 -ilovalarlarga qarang].

OTMLar talabalarining iqtisodiy tayyorgarligini shakllantirish maqsadida aniq reja asosida muntazam ishlar olib borildi. Olib borilgan ishlar bizga talabalarni yangicha iqtisodiy fikrlash sharoitlarida "Tadbirkorlik jarayoni(kasbi)" maxsus kursini jiddiyroq oʻrganishga tayyorlash zarurligini koʻrsatdi. Talabalarning iqtisodiy tayyorgarligini shakllantirish va tashxislash jarayonida ularning individual xususiyatlarini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Albatta, talabaning iqtisodiy tayyorgarligini shakllantirishda fakultativ mashgʻulotlar uchun maxsus ishlab chiqilgan "Tadbirkorlik jarayoni(kasbi)" kurs bilan cheklanib qolinmaslik lozim.

Tadbirkorlik jarayoni(kasbi) bu - shaxsning murakkab integrativ xususiyati. Nazariy tayyorgarlik esa, uni shakllantirishning muhim sharti. Kasbiy-iqtisodiy fanlarni oʻrganishda nazariy bilimlar berish talabalarda tadbirkorlikka oid bilim, koʻnikma va malakalarni rivojlantirish omili hisoblanadi.

Noiqtisodiy yoʻnalishdagi OTMLar bitiruvchilari - boʻlajak mutaxassislarining iqtisodiy tayyorgarligining shakllanganligi darajasini tashxislash (diagnostika) va tahlil etish tadbirkorlikka oid bilim, koʻnikma va malakalarni shakllantirishning birmuncha juzʻiy muammolarini oʻrtaga qoʻyish tartibini ham belgilab beradi. Bunday tahlilning asosiy maqsadi - hozirgi zamon iqtisodiy taraqqiyotda kasb-hunar taʼlimining oʻrnini, uning ijtimoiy-iqtisodiy madaniy va tarbiyaviy vazifalarini aniqlab koʻrsatishdan iborat.

OTM talabalarining kasbiy-iqtisodiy faoliyatlarida va amaliy mashg'ulotlarda test-so'rovnomalarni amalga oshirish zarur. Bu bugungi kun talablaridan biridir. Tashxis talabaning iqtisodiy bilimlarni o'zlashtirishi, uning ta'lim olishga ta'sir ko'rsatayotgan pedagogik va ijtimoiy omillarni o'rganishga yo'naltiradi. Biz tadqiqotimiz jarayonida tashxis iqtisodiy ta'lim-tarbiya jarayonini to'g'ri rejalashtirish, talabalarning psixologik–pedagogik tayyorgarligi darajasini oshirish, kasbiy profilaktika ishlarini olib borishga imkon yaratishini aniqladik.

Tashxisdan maqsad talabalarga kasbiy sohalarga oid bilim berish jarayonida ularning iqtisodiy tushunchalarni, eng asosiysi, amaliy ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishini ta'minlash, shuningdek, fanlarni o'qitishda tadbirkorlik jarayoni(kasbi) darajasini oshirishga erishish uchun tadqiqot metodlarini amalda to'g'ri qo'llashdir. Shu bois asosan amaliy xususiyatga ega bo'lgan, lekin nazariya bilan uyg'unlashib ketgan bilimlarini talabalar e'tiboriga havola etish maqsadga muvofiq.

Tashxislash jarayonida talabalarning tadbirkorlikka oid bilim, ko'nikma va malakalarni egallash dinamikasini nazariy jihatdan ishlab chiqish birinchi darajali vazifalardan hisoblanadi. Chunki:

- ilmiy asoslangan diagnostik metodlarsiz talabalarning kasbiy-iqtisodiy tayyorgarlik darajasini bilish va baholash mumkin emas;

-tashxislash tadbirkorlik jarayoni(kasbi) bo'yicha amaliy xulosalar bera olgandagina uning samarasi borasida fikr yuritish mumkin;

-talabalarning iqtisodiy tayyorgarligini rivojlantirishda foydalanilgan metodlarning nisbiy ustunligini bilish orqali iqtisodiy ta'limning shakl va vositalari reytingini aniqlash muhim. Buning uchun: a) diagnostik metodlar bilan talabalarning tadbirkorlik jarayoni(kasbi) borasidagi bilimni aniqlash; b) Tadbirkorlikka oid bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirishda talabalarga individual yondashish uchun ularning individual xususiyatlari haqidagi axborotlarni to'plash.

O'quv-tarbiya jarayonini boshqarishni takomillashtirishda, tadbirkorlikka oid bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirishda psixologik-pedagogik va ilmiy jihatdan asoslangan tashxisning o'рни va ahamiyatini hech kim inkor etmaydi, albatta. Tadbirkorlikka oid bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirishda talabalarning kasbiy individual xususiyatlarini yaxshi o'rganish lozim ekanligi bugungi kunda bir qancha davlat hujjatlarida ham o'z aksini topmoqda.

OTMlardagi kasbiy ta'lim jarayonida tashxislashning mohiyati, mazmuni va yo'nalishlari ta'lim-tarbiya jarayonining vazifalaridan kelib chiqqan holda belgilanadi, chunki bu hol amaliy xususiyat kasb etadi.

Talabalarning iqtisodiy tayyorgarligini rivojlantirishda tashxislashning asosiy vazifalari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

a) talabalarda tadbirkorlikka oid bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirishning nazariy asoslari, yo'nalishlari, bosqichlari va tamoyillarini o'rganish;

b) tashxisni amalga oshirishning turli metodlarini amalda qo'llash;

v) talabalarning o'quv-amaliy faoliyatini tashkil etish, mustaqil ta'lim olishilari uchun maslahatlar berish.

Tadbirkorlikka oid bilim, ko'nikma va malakalarni tashxislashdan maqsad talabalarning individual sifatlarini, kasbiy-iqtisodiy ta'limga bo'lgan intilishlarini iqtisodiy tayyorgarligining boshlang'ich darajasini va o'quv jarayonidagi o'zgarishlar dinamikasini o'rganishdir.

Bundan tashqari, pedagog o'quv jarayonining samaradorligiga bevosita ta'sir qiluvchi ob'ektiv va sub'ektiv omillar (talabanning tafakkur xususiyatlari, xotirasi, diqqat-e'tibori), tarbiya jarayonida hisobga olinishi lozim bo'lgan xususiyatlar (xulq-atvori, talabanning o'z kasbiga, jumladan, tadbirkorlik jarayoni(kasbi)ga ehtiyojlari va qiziqishi)ni o'rganadi. Boshqacha aytganda, pedagogning tashxis faoliyati ham ko'p qirrali va o'zgaruvchan xarakterga ega.

Yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda ta'limning maqsad va vazifalari murakkablashib, vazifalari ortmoqdaki, bu hol raqobatbardosh mutaxassislar

tayyorlash sifatini boshqarish, iqtisodiy ta'limni rivojlantirish va nazorat qilishning yangi mexanizmlari ishlab chiqilishini talab etadi. Shu munosabat bilan biz yangi ijtimoiy-iqtisodiy bozor munosabatlari sharoitida malakali kadrlarni tayyorlash konsepsiyasiga, iqtisodiyotni rivojlantirish va boshqarish nazariyasi qonuniyatlari va tamoyillariga muvofiq tashxislash mexanizmini yaratishga urinib ko'rdik.

Pedagogik tajriba-sinov ishlari Toshkent qurilish OTMning bir guruhida 28 nafar talaba bilan olib borildi. O'rganilayotgan muammoning ayni paytdagi holatini bu boradagi yutuqlar va uchrab turadigan nuqsonlarini aniqlash uchun biz maxsus kurslar o'qish usulidan, suhbatlar o'tkazishdan foydalandik.

Biz malaka elementlarini tahlil etdik, uning natijalari yordamida talabalarning kasbiy-iqtisodiy va amaliy faoliyatini tashkil etdik; malaka elementlari shakllanganligining maqsadga muvofiqligi aniqlashtiriladi, mashq-mashg'ulot mazmuni ishlab chiqildi, topshiriqlar tuzildi, talabalar biror kasbiy-iqtisodiy malakani mustaqil amalga oshirishga yo'naltirildi.

Biz talabalarda kasbiy-iqtisodiy malakani rivojlantirishni to'rt bosqichda amalga oshiridik: tayyorlov, o'zlashtirish bosqichi, mashq va mustahkamlash bosqichi.

Birinchi bosqichda biz talabalarga nima uchun kasbiy –iqtisodiy malakani egallashning zarurligini tushuntirdik, uni qanday amalga oshirishni, qanday ishlar bajarilishini tushuntirdik.

Ikkinchi bosqichda talabalar egallagan kasbiy-iqtisodiy malakani amalda qo'llab ko'rdilar. Asta-sekin (xuddi shunga o'xshash materiallarni o'rganishda) avval tanishgan amallarini mustahkamladi.

Uchinchi bosqichda talabalar o'qituvchi yordamida o'quv materiallarini o'zlashtirishga imkon beruvchi topshiriqlar bilan tanishadilar. O'zlashtirgan usulini o'quv vaziyatida qo'llashga tayyorgarlik ko'radi. Bu bosqich o'quv faoliyati usullarini egallash jarayonida hal etuvchi bosqich hisoblanadi.

To'rtinchi bosqichda amaliy faoliyati ijodiy faoliyat bilan birga qo'shiladi. Talabalar o'zlashtirgan o'quv materiallarini qo'llashni talab etadigan ishlarni

mustaqil bajardilar, o‘zlariga zarur bo‘ladigan mantiqiy amallarni tanlaydilar, ularni qayta moslashtirdilar.

Talabalarning amallarni mustaqil ravishda to‘la bajarishi, bajarishdagi izchillik, ularni tushunib ongli ravishda bajarishi ularda iqtisodiy-kasbiy malakaning shakllanganlik mezonini hisoblanadi (3.1.1-jadvalga qarang).

Talabalarda kasbiy-iqtisodiy malaka va tadbirkorlikka oid bilim, ko‘nikma va malakalarning shakllanganligini bilish-o‘rganish uchun ularga quyidagi topshiriqlar berildi: o‘quv malakasini qay darajada egallaganingizni quyidagi tarzda baholang: ayni malakani egallash - uch ball, qisman egallash - ikki ball, umuman egallamaslik – bir ball.

3.1. 1–jadval

Talabalarning o‘quv malakasi (savodxonligi) ko‘rsatkichini aniqlash

Birinchi blok. Talabaning maqsad qo‘yish va o‘z faoliyatini rejalashtirish malakasini aniqlash

Talabaning iqtisodiy ta’lim jarayonidagi o‘quv malakasi	Baholash
Dars vazifasiga muvofiq holda o‘z oldiga maqsad qo‘yish malakasi	Ayni malakani egallagan - uch ball, qisman egallagan - ikki ball, umuman egallamagan – bir ball.
O‘quv materialini qabul qilish va qayta ishlash malakasi	Ayni malakani egallagan - uch ball, qisman egallagan - ikki ball, umuman egallamagan – bir ball.
Didaktik materiallar, ko‘rgazmali qo‘llanmalar va texnik vositalar bilan ishlash malakasi	Ayni malakani egallagan - uch ball, qisman egallagan - ikki ball, umuman egallamagan – bir ball.
Darsning maqsadi va mazmuniga mos holda o‘z faoliyatini rejalashtirish malakasi	Ayni malakani egallagan - uch ball, qisman egallagan - ikki ball, umuman egallamagan – bir ball.

Ikkinchi blok. Talabaning o‘z o‘quv faoliyatini samarali tashkil etish malakasini aniqlash

Talabaning dars maqsadi va vazifalariga mos holda o‘z faoliyatini samarali tashkil etish malakasi	Ayni malakani egallagan - uch ball, qisman egallagan - ikki ball, umuman egallamagan – bir ball.
---	--

Ish joyida talabanning o'z faoliyatini tashkil eta bilish malakasi	Ayni malakani egallagan - uch ball, qisman egallagan - ikki ball, umuman egallamagan – bir ball.
--	--

Uchinchi blok. Talabanning o'z o'quv faoliyatini tahlil etish, baholash, muvofiqlashtirish malakasini aniqlash

Talabanning o'z o'quv faoliyatini tahlil etish va baholashi malakasi	Ayni malakani egallagan - uch ball, qisman egallagan - ikki ball, umuman egallamagan – bir ball.
Talabalarining bir-birlarining faoliyatini nazorat qilishi va boshqalar faoliyatini baholash malakasi	Ayni malakani egallagan - uch ball, qisman egallagan - ikki ball, umuman egallamagan – bir ball.
Talabanning o'z-o'zini nazorat qilishi asosida o'z faoliyatini muvofiqlashtirish malakasi	Ayni malakani egallagan - uch ball, qisman egallagan - ikki ball, umuman egallamagan – bir ball.

O'quv faoliyatini baholash algoritmi

a) talaba o'quv malakasini har bir blok ko'rsatkichi bo'yicha eng past, etarli va optimal tarzda baholash.

b) blok bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichni hisoblash: har bir ko'rsatkich bo'yicha ballarni qo'shish va bu yig'indini blok ko'rsatkichining umumiy soniga bo'lish. Baholash bo'yicha umumlashtirilgan (o'rtacha) ko'rsatkichni ham xuddi shunday tarzda kiritish kerak (3.1.2-jadvalga qarang).

3.1.2-jadval

Talabalarining o'quv faoliyatini blok ko'rsatkichlari bo'yicha baholash


№	Talabanning ismi sharifi	Blok ko'rsatkichlari bo'yicha o'rtacha baho			O'rtacha umumlashtirilgan ball
		Bloklar			
		1	2	3	

Talabalarda tadbirkorlikka oid bilim, ko'nikma va malakalarni , o'quv va kasbiy-iqtisodiy malakalarni shakllantirish turli metodlardan foydalanishni taqozo etadi. Pedagog uchun nafaqat o'z usulini aniqlash, balki uni amalda joriy etishning


aniq shartlariga amal qilish ham juda muhim. Buni e'tiborga olmasdan turib kutilgan natijaga erishib bo'lmaydi.

Tadbirkorlikka oid bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirish jarayonida talabalarda ijodiy faollikning o'sishi va o'quv ko'nikma va malakalarning shakllanishi darajasini diagrammalarda aks ettiramiz (3.1.1-rasm).

Tajriba-sinov boshida



Tajriba-sinov oxirida



3.1.1.-rasm. Tadbirkorlikka oid bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirish jarayonida talabalarda ijodiy faollikning o'sishi va o'quv ko'nikma va malakalarning shakllanishini aks ettiruvchi diagrammalar

Qo'lga kiritilgan natijalar tahlili shuni ko'rsatdiki, pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashxislash va tahlil qilishda axborot muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Axborot o'rganilayotgan hodisaning u yoki bu jihatlari to'g'risida batafsil material beradi. Bu muhim omil talabalarning turli guruhleri va hatto alohida talabalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni kuzatish imkonini ham beradi hamda butun tadqiqotning ishonchliligiga baho berish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Hujjatlarni tahlil qilish tadqiqotimizning ilk bosqichida ko'proq talabalarda tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishga oid maxsus kurs o'qish orqali tadbirkorlik jarayoni(kasbi)ga moyillik va qiziqish uyg'otish bizning pedagogik tadqiqotimiz uchun foydali va muhim bo'ldi, chunki bunday nazariy bilimlar yordamida tadqiqot ob'ekti to'g'risida yaxlit tasavvur hosil qilindi.

Tadqiqot jarayonida noiqtidosiy yo'nalishdagi OTMlarning pedagogika kengashlari, tayanch oliy o'quv yurtlari kafedralari filiallari huzuridagi metodik

birlashmalar materiallari o'rganib chiqildi. Shuningdek, kollejlarda o'tkazilgan turli metodologik seminarlar va konfepensiya ma'lumotlari ham tahlil qilindi. Olingan natijalar Toshkent qurilish OTM, Toshkent Tibbiyot akademiyasi tibbiyot OTM, Shayhontohur transport kolleji talabalarda tadbirkorlikka oid bilim, ko'nikma va malakalarning shakllanishi va pivojlanishiga jiddiy e'tibor berilmasligi yaqqol ko'zga tashlanadi.

Tahlil natijalari quyidagilarni ko'rsatdi:

- pedagoglar tadbirkorlik jarayoni(kasbi) va uning tarkibiy jihatlarini tor va yuzaki tushunadilar, tadbirkorlik muammolariga qiziqmaydilar;

- talabalarining iqtisodiy tayyorgarligi, uning mazmun-mohiyati haqida sayoz bilimga ega;

- pedagoglar tadbirkorlikka oid bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirish bo'yicha talabalarda amaliy zarurat, ehtiyoj yo'q ekanligini qayd etishdi.

- o'qituvchilar talabalarda tadbirkorlikka oid bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirish mazmuni, metodikasi va shakllari haqida yaxshi tassavurga ega emaslar;

- kollej talabalarida iqtisodiy savodxonlikni rivojlantirish bo'yicha maqsadli va amaliy mashg'ulotlar olib borilmaydi;

- Tadbirkorlikka oid bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirish va takomillashtirish borasidagi tadbirlarda talabalar faol ishtipok etmaydi.

- Tadbirkorlikka oid bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirish va takomillashtirish hamda bunga ko'maklashuvchi shart-sharoitlar to'g'risidagi masalalar ta'lim muassasalari ilmiy kengashlari, kafedra majlislari va konferensiyalarda biror ma'pata ham muhokam etilmagan.

Iqtisodiy fanlar o'rganilgandan keyin bitiruvchi kurs talabalariga "Tadbirkorlik jarayoni(kasbi)" nomli 42 soatga mo'ljallangan (16 soat ma'ruza, 26 soat amaliy mashg'ulot) maxsus kurs 2001–2004 yillar davomida tajriba-sinov o'tkazilgan OTMlarda iqtisod fanlari doktori Z. Xudoyberdiev, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent A. Samadov va katta o'qituvchi S. Boboqulov tomonidan olib

borildi. Bu kurs fakultativ mashg'ulot tarzida tashkil etildi va bunda talabalarning mustaqil ta'lim olishiga ko'proq e'tibor qaratildi. Maxsus kurs mazmunini tanlashda quyidagi holatlar e'tiborga olindi:

- kasbiy ta'limning metodologik asoslari haqidagi zamonaviy tasavvurlar asosida tadbirkorlikka oid bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirish ;
- o'zida kasbiy xususiyatlarini aks ettiruvchi bilimlar tizimini rivojlantirish;
- talabalarda tadbirkorlikka oid bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytirishda boy pedagogik merosdan, hayotiy tajribalardan ijodiy foydalanish.

Mazkur maxsus kurs mohiyati va mazmuni mutaxassislarda tadbirkorlikka oid bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish yuzasidan aniq, maqsadli va muntazam ish olib borish zarurligi borasida umumiy xulosalar chiqarishga imkon berdi. Olib borilgan tadqiqot ishlari bizga o'quvchilarni fakultativ mashg'ulotlar uchun ishlab chiqilgan "Tadbirkorlik jarayoni(kasbi)" maxsus kursini jiddiyroq o'rganishga tayyorlash hamda tadbirkorlik jarayoni(kasbi)ga oid atamalar mazmuni belgilash, shuningdek, talabalarning savodxonligini tashxislash, ularning individual xususiyatlarini aniqlash imkonini berdi.

Albatta, mazkur tadqiqot ko'lami OTMlar talabalarida tadbirkorlikka oid bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish uchun ushbu maxsus kursni o'tkazish bilangina chegaralanib qolinmadi. Tadbirkorlikka oid bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirish - bu shaxsning murakkab integrativ sifati. Puxta o'ylanib izchil amalga oshirilgan amaliy o'quv faoliyati tadbirkorlikni shakllantirishning muhim sharti hisoblanadi. Biz iqtisodiy yo'nalishdagi barcha fanlarni o'rganish bilan bog'liq o'quv jarayonida bunday imkoniyatdan foydalanishga intildik.

Talabalarning iqtisodiy tayyorgarligini shakllantirish bir-birining o'rnini bosuvchi bosqichlaridan iborat uzluksiz jarayon ekanligiga, ushbu jarayonning sifati aniq pedagogik sharoitlar va vaziyatlarga bog'liq ekanligiga amal qilib, o'z tadqiqotimizda o'quv jarayonida tadbirkorlikka oid bilim, ko'nikma va

malakalarni shakllantirishni ta'minlash mumkin bo'lgan iqtisodiy fanlarni o'qitishning faol shart-sharoitlari mavjudligidan kelib chiqdik.

Pedagogik tadqiqot jarayonida biz baholash mezonlariga tayanib, talabalarda tadbirkorlikka oid bilim, ko'nikma va malakalarning shakllanganlik darajasini ularning umumiy va iqtisodiy muammolar haqidagi bilimlarini o'rganishdan boshladik.

Masalan, talabalarga tadbirkorlik jarayoni(kasbi) mohiyatini aks ettiruvchi takliflar berish tavsiya qilindi. Shuningdek, kasbiy mahorat, tadbirkorlik imkoniyatlari, muomala madaniyati, texnologik madaniyat, talaba etikasi va odobi, qiziquvchanlik, tadbirkorlik jarayoni (kasbi), kasbiy-iqtisodiy faoliyatdagi ijodiy faollik, yangicha fikrlash, suhbatlashish madaniyati, metodologik va metodik madaniyat, or-nomus va vijdonlilik borasida savollar berildi.

Savollarga berilgan javoblarni baholash quyidagi tarzda tashkil etildi: to'g'ri va to'liq javob (3 ball), to'liq bo'lmagan to'g'ri javob (2 ball), noto'g'ri javob (1 ball), javob berilmadi (0 ball). Ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, ta'lim muassasalari kontingentidan qat'iy nazar, nazorat va tajriba-sinov guruhlari talabalari javoblari o'rtasidagi farq ancha katta.

Shuningdek, biz noiqtisodiy yo'nalishdagi OTMlarda tayyorlanadigan bo'lajak kichik mutaxassislarning iqtisodiy tayyorgarligini aniqlash uchun darajalashtirish va juft-juft qilib qiyoslash orqali ekspertlash usulidan ham foydalandik. Ekspertlap guruhiga qurilish kolleji talabalari, tibbiyot kolleji talabalari, darsdan tashqari ishlar tashkilotchilari kiritildi. Talabalarda tadbirkorlikka oid bilim, ko'nikma va malakalarning shakllanishiga aniq baho berish, o'quv-tarbiya jarayoni va amaliyot o'rtasidagi o'zaro aloqani o'rnatish, talabalarda tadbirkorlikka oid bilim, ko'nikma va malakalarning shakllanishini aniqlash tadqiqotimiz ushbu qismining vazifasi bo'ldi. Mazkur vazifani hal etish uchun ekspertlap guruhi tomonidan bo'lajak kichik mutaxassislarning iqtisodiy tayyorgarligi baholandi:

- tadbirkorlik jarayoni (kasbi) sifati kuchli va doimiy pavishda namoyon bo'ladi-5 ball;

- tadbirkorlik jarayoni (kasbi) sifati kuchli va tez-tez namoyon bo‘ladi-4 ball;

- tadbirkorlik jarayoni (kasbi) sifati bir xil darajada namoyon bo‘lmaydi-3 ball;

- tadbirkorlik jarayoni (kasbi) sifati kuchsiz va onda-sonda namoyon bo‘ladi-2 ball;

- tadbirkorlik jarayoni (kasbi) sifati kuchsiz namoyon bo‘ladi yoki umuman sezilmaydi-1 ball.

Talabalar iqtisodiy tayyorgarligini aniqlash va baholash uchun ular olgan ballari yig‘indisi bo‘yicha darajalashtirildi, ya’ni guruhlarga ajratildi.

Darajalashtirish turlaridan biri bo‘lgan bu – talabalarni iqtisodiy bilimlariga ko‘ra bir-birlari bilan taqqoslash. Kasbiy mahorati shakllanishiga ko‘ra ham talabalar bir-biri bilan qiyoslab ko‘rildi.

Baholash quyidagi tartibda o‘tkazildi: agar tadqiq etilayotgan sifat ikkinchi talabadagiga qaraganda birinchi talabada yaxshiroq rivojlangan bo‘lsa, birinchi talabaga 1 ball berildi, ikkinchi talabaga esa, ball berilmadi, agar bu sifatlar har ikkala talabada bir xil darajada namoyon bo‘lsa, ular 1 balldan olishadi. So‘ngra har bir talaba olgan ballar to‘planadi, natijada talabaning iqtisodiy tayyorgarligi shakllanishining raqamli ifodasiga ega bo‘ldik. Ushbu tadqiqot usulining yuksak darajadagi xolisligi uning shubhasiz yutug‘i hisoblanadi. Bu holda tasodiflarga yo‘l qo‘yilmaydi.

Shuningdek, biz umumiy ballar yig‘indisini hisoblab, har bir talabaning munosib o‘rinni aniqladik. Talabalarda tadbirkorlikka oid bilim ko‘nikma va malakalarning shakllanish darajasini baholash xolisligini aniqlash maqsadida ekspertlar mezonlari o‘rtasida umumiylik mavjud ekanligi to‘g‘risida xulosaga keldik.

Muayyan umumlashtiruvchi tavsiflar olish bizga ob’ekt va predmetni yaxshirpoq tushunib olishda, tadqiqotimizda biz ilgari surgan farazlarni tasdiqlashda yordam berdi. Shu munosabat bilan o‘quvchilarda tadbirkorlik fazilati shakllanishiga muvofiq ularni guruhlarga taqsimlash jadvali tuzildi.

Hisob-kitoblar shuni ko'rsatadiki, talabalarda tadbirkorlik jarayoni (kasbi) shakllanishining o'rtacha darajasiga nisbatan qolgan barcha ko'rsatkichlarning o'rtacha darajasi 5,3 tashkil etdi. Iqtisodiy tayyorgarligi bunday darajada shakllangan talabalar 80,8 foizni tashkil etadi. Talabaning iqtisodiy bilimlarni o'zlashtirishi bilan uning iqtisodiy tayyorgarligi shakllanishi darajasi va kasbiy mahorati darajasining bir-birlariga mustahkam bog'liq ekani e'tiborni jalb qiladi. Ayniqsa, o'qituvchi shaxsi bilan bog'liq yangicha fikrlash, ijodiy faollik, yuksak metodologik va metodik madaniyat sifatlari talabada yuqori darajadagi tadbirkorlikning namoyon bo'lishiga ko'maklashadi.

Tadqiqotimizning navbatdagi bosqichi talabalarda tadbirkorlikka oid bilim, ko'nikma va malakalarning shakllanishini baholash mezonini sifatida ularni tadbirkorlikka undovchi sabablar-motivatsiyani o'rganish bo'ldi.

Umuman, biz o'zimiz tadqiq etayotgan talabalarni tadbirkorlik jarayoni (kasbi)ga undovchi sabablar haqida ishonchli ma'lumotlarga ega bo'lish uchun bir-birini to'ldiradigan bir necha usuldan foydalandik. Dastlabki bosqichda talabalar tadbirkorlikka oid bilim, ko'nikma va malakalarning mazmun-mohiyati va ahamiyatini qanchalik anglashini, uni shakllantirishga undovchi sabablar nimalardan iborat ekanligini aniqlashni maqsad qilib qo'ydik. Buning uchun biz o'zida tadbirkorlik jarayoni (kasbi) komponentlari shakllanishini va ularning mavjudligini aniqlashni taqozo etuvchi amaliy-iqtisodiy topshiriqlar va muammolarni hal etish metodikasidan foydalandik.

Bundan tashqari, talabalarga iqtisodiy ta'lim-tarbiyaga oid vazifalar yuklandi. Ular berilgan savollarga to'g'ri javob topishlari hamda o'zlari egallab olgan iqtisodiy bilim komponentlaridan qaysi biri shaxsiy sifatlarni rivojlantirishda ularga yordam berganligini aniqlashlari lozim.

Tadbirkorlikka oid bilim, ko'nikma va malakalarning ma'nosini aniqlab olib, to'g'ri javob topishi hamda tadbirkorlikka oid bilim, ko'nikma va malakalarning qaysi komponenti yordamida vujudga kelgan vaziyatdan chiqib ketish har bir talabaning maqsadiga aylandi. Bunday topshiriqlar kasbiy-iqtisodiy o'yinlar orqali berildi.

1-muammoli vaziyatda tadbirkorlik jarayoni (kasbi) komponentlarining o'rnini va vazifasini ko'rsatib berish ta'kidlanadi.

2- muammoli vaziyatda kasbiy-iqtisodiy mahorat, odob va etika, talaba shaxsidagi kasbiy fazilatlar namoyon etiladi.

3- muammoli vaziyatda yuksak muomala madaniyati talab qilinadi.

4-muammoli vaziyatda tadbirkorlikka oid bilim ko'nikma va malakalarni ijodiy rivojlantirish zarurligi topshiriladi.

5-muammoli vaziyatda talabaning kasb-hunar bilan bog'liq fazilatlari: prinsipiiallik, talabchanlik, halollik, xolislik mavjud bo'lishi talab etiladi.

Talabalar har bir muammoli vaziyat bo'yicha topshiriqlarni bajarib, undan chiqishning to'g'ri yo'lini topadi.

Mazkur metodikadan foydalanish bizga quyidagi natijalarni bepdi: yoshlarni tadbirkorlik jarayoni (kasbi) ruhida tarbiyalash vazifalarini to'g'ri hal etish va vatanparvarlik tuyg'usi bilan ijodiy mehnat qilishlarini ta'minlash. 22 nafar talabada tadbirkorlik jarayoni (kasbi) yaxshi namoyon bo'ldi (48,4%), qolgan talabalar esa, u yoki bu darajada topshiriqlarni xato bajarishdi va savollarga noto'g'ri javoblar berishdi. Ushbu natijalardan kelib chiqqan holda talabalarda shakllangan tadbirkorlik jarayoni (kasbi) komponentlari pedagogik jamoa tomonidan muhokama qilindi.

Tajriba guruhidagi natijalar yuqori bo'ldi va uning shartlari nazorat guruhida kuzatiladi. Birinchi guruh esa, doimiy metodika bilan ishlashni davom ettiradi. Yil oxirida tajribalardan kelib chiqib, yakuniy natijalar chiqarilganda, ikkinchi guruh natijalari ancha yuqori bo'lsa, birinchi guruh natijalari pasaysa, tadqiqot shartlarining yaxshi natijalarga olib kelishi mumkinligiga etarlicha asos paydo bo'ladi. Talabalarda kasbiy sifatlar rivojlanishi va tarbiya muammolarini o'rganishda tadqiqot natijalarini tahlil qilish ancha murakkabroq kechadi.

Tadbirkorlik jarayoni (kasbi) omillarining murakkabligi hamda xilma-xilligi olingan natijalarni qayta ishlashda bir muncha qiyinchiliklar yaratadi. Tadqiqotning muammosi qanchalik aniq bo'lsa va maqsad to'g'ri tanlangan bo'lsa, qo'llanilgan metodika samarasi shunchalik oshib boradi.

Shunday qilib, talabalarda tadbirkorlikka oid bilim, ko‘nikma va malakalarni rivojlantirish metodikasi samaradorligini bundan keyin aniqlash uchun uning dastlabki holatini baholash zarur. Biz buning uchun Spirmanning quyidagi formulasidan foydalandik [124]:

$$E_f q \frac{3_2 \times \Pi_2}{M_2} - \frac{3_1 \times \Pi_1}{M_1},$$

bunda Z- talabalarning umumiy va iqtisodiy bilimlari;

P – talabalarning o‘zini tutishi;

1-indeks – tajriba boshidagi holat;

2-indeks – tajriba oxiridagi holat.

Dastlab ma’lumotlarni ham tajriba-sinov, ham nazorat guruhlari uchun aniqlaymiz. Tajriba-sinov guruhi talabalari iqtisodiy tayyorgarligi shakllanishi darajasi bo‘yicha taqsimlanadi. Bular tadbirkorlik jarayoni (kasbi) shakllanganligining yuqori, o‘pta, quyi dapajalapidir (3.1.3 va 3.1.4-jadvallarga qarang).

3.1. 3-jadval

Talabalarning iqtisodiy tayyorgarligi shakllanishi darajasi bo‘yicha guruhlarga bo‘linishi (Toshkent kommunal qurilish kolleji, 28 nafar talaba ishtirokidagi ko‘rsatkich)

Daraja	Tajriba-sinovgacha bo‘lgan talabalar tarkibining miqdori		Tajriba-sinovdan so‘ng talabalar tarkibining miqdori	
	talabalar soni	(% hisobida)	talabalar soni	(% hisobida)
Yuqori	6	21,42	10	36,2
O‘rtacha	9	32,17	14	53,6
Quyi	13	46,41	3	10,2

3.1.4-jadval

Tadbirkorlikka oid bilim, ko‘nikma va malakalarni rivojlantirish darajasi bo‘yicha guruhlarga bo‘linish (Toshkent tibbiyot OTM, 28 nafar talaba ishtirokidagi ko‘rsatkich)

Daraja	Tajriba-sinovgacha bo‘lgan talabalar tarkibining miqdori		Tajriba-sinovdan so‘ng talabalar tarkibining miqdori	
	talabalar soni	(% hisobida)	talabalar soni	(% hisobida)

Yuqori	7	21,9	12	37,3
O'rtacha	10	31,2	18	56,4
Quyi	15	46,9	2	6,3

Talabalarni iqtisodiy tayyorgarligining shakllanish darajalapiga ko'ra taqsimlash bizga kelajakning chinakam mutaxassislarini O'zbekiston iqtisodiy taraqqiyotiga hissa qo'sha oluvchi tadbirkor yoshlarni tarbiyalashning eng maqbul shakl va usullarini tanlash, ularni o'rganish va baholash imkonini berdi.

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib, aytish mumkinki, OTMLarda iqtisodiy yo'nalishdagi fanlarni o'qitishda tadbirkorlik jarayoni (kasbi)ga qiziquvchilarni aniqlash jarayonini tadbirkorlikka oid bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirishning mazmuni va mohiyati psixologik-pedagogik tashxislash yo'nalishlarini tashkil qiladi. Bu yo'nalishlarga:

a) tadbirkorlik jarayoni (kasbi) bo'yicha talabalarning tarbiyalanganlik darajasini tashxis qilish;

b) Tadbirkorlikka oid bilim, ko'nikma va malakalarni samarali tashkil etish uchun tashkiliy - metodik tashxis qilish;

v) tadbirkorlik jarayoni (kasbi) darajasini reytingini baholashda kasbiy faoliyatning didaktik tashxisi.

O'tkazilgan tadqiqotlar, tajriba-sinov ishlari samarasini baholash OTMLar talabalarida tadbirkorlikka oid bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirishning shakl va vositalarining to'g'ri tanlanganidan dalolat beradi.

Shakllantiruv tajriba-sinov mashg'ulotlari o'tkazildi, tadqiqot natijalari amaliyotga tatbiq etildi, dissertatsiya materiallari rasmiylashtirildi.

Tajriba-sinov ishlari tayyorgarlik darajasi bir xil bo'lgan, shartli ravishda «tajriba guruhi» va «nazorat guruhi» deb belgilab olingan guruhlarda o'tkazildi. Tajriba-sinov ishlari bir xil material va ikki xil metodikadan foydalangan holda o'tkazilib, ikkala guruh talabalarida shakllangan kasbiy-iqtisodiy bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy fazilatlar taqqoslandi. Shuningdek, "Tadbirkorlik jarayoni (kasbi) o'quv kursining mazmuni, o'rganish shart-sharoitlari, metodlari tanlanib,

savol-javob, pedagogik kuzatish natijalari, talabalarning bilimni nazorat qilish va baholash mezonlari jamlandi.

Tajriba uchun ishlab chiqilgan uslubiy ishlanmalarning ahamiyati quyidagilardan iborat:

-ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarning o'yin texnologiyalaridan foydalanib o'tkazilishi;

-ko'rgazma va didaktik materiallarning yuqori saviyada bajarilganligi;

-noan'anaviy ta'lim metodidan to'g'ri foydalanilganligi.

Tadqiqotni amalga oshirish dasturiga binoan talabalarda kasbiy-iqtisodiy bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirish sifatining statistik tavsifini tuzish ko'zda tutilgan edi. Bu Noiqtisodiy yo'nalishdagi OTMlarda "Tadbirkorlik jarayoni (kasbi)" o'quv kursini o'qitish bo'yicha biz ishlab chiqqan dastur va metodika mazmunining samarali ekanligini baholash imkonini berdi.

Tadqiqot mavzusi yuzasidan shakllantiruvchi pedagogik tajriba-sinov ishlarining talabalar bilim darajasini tajriba va nazorat guruhlarida aniqlash hamda qiyosiy tahlil qilish bosqichi amaliyotchi o'qituvchilar va muallif tomonidan amalga oshirildi.

Har bir o'quv yilining boshida tajriba-sinov ishlarining predmeti bilan bog'liq bo'lgan savollar bo'yicha talabalar bilan suhbatlar va umumta'lim muassalarida olgan bilimlari asosida test topshiriqlarini bajarish ishlari olib borildi. O'tkazilgan suhbat va test topshiriqlari natijasida quyidagilar aniqlandi:

-OTMlarda «Iqtisodiy bilim asoslari» fani o'rganilgan, biroq tadbirkorlik jarayoni (kasbi)ga yo'naltirilgan holda o'qitilmagan;

- Tadbirkorlikka oid bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirish bo'yicha maxsus o'quv kursi, uning mazmuni, reja va dasturi ishlab chiqilmagan;

- Tadbirkorlikka oid bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirish bo'yicha to'garak ishlari va darsdan tashqari ishlar tashkil etilmagan;

-Tadbirkorlikka oid bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirish bo'yicha amaliy mashg'ulotlar tashkil etilmagan;

-iqtisodiy ta'lim jarayonida talabalarning iqtisodiy tassavvurini kengaytirish maqsadida o'qitishning faol usullaridan foydalanilmagan va boshqalar.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda talabalarga iqtisodiy bilim berishda ularda amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida maxsus «Tadbirkorlik jarayoni (kasbi)» o'quv kursining texnologik xaritasi, o'quv rejalari va dasturlari ishlab chiqildi. O'quv dasturlarini joriy etish jarayonida fanlararo uzviylikka, oddiydan murakkabga tomon o'qitilishi inobatga olindi.

Tajriba-sinov ishiga tayyorgarlik va uni olib borish davrida o'rganilayotgan mavzular bo'yicha o'quv materiallarining mazmuni to'la bayon etilgan reja va matnlar tuzildi, o'quv qo'llanmalar va ma'ruza matnlari, uslubiy qo'llanmalar chop ettirildi, elektron adabiyot yaratildi, maxsus kurs mavzularini bayon etishda muammoli ta'lim elementlaridan foydalanish yuzasidan didaktik materiallar va har bir mashg'ulot uchun uslubiy ko'rsatmalar ishlab chiqildi.

Tajriba-sinov ishini boshlashdan avval va uning davomida kurs mazmunini ochib beruvchi ma'lumotlar, tadqiqotchi va o'qituvchilar tomonidan o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari natijasi biz taklif etgan ilmiy farazni tekshirish jarayonida talabalarning bilim darajasi o'sib borishi tasniflangan mezonni ko'rsatdi. Talabalarning «Tadbirkorlik jarayoni (kasbi)» o'quv kursini o'zlashtirishi, tahlil qilishi, yangi ma'lumotlarni egallashga intilishi, ularni amaliyotga tatbiq etish qobiliyatlarini rivojlantirishi, mustaqilligi va ijodiy faolligi hamda kasbiy sifatlarini rivojlantirishi ular savodxonligining asosiy ko'rsatkichlari sifatida qabul qilindi.

Talabalar tomonidan o'quv materialining o'zlashtirilishi, shu material yuzasidan bilim, ko'nikma va malakalar mezoni kichik mutaxassislarning kasbiy shakllanish mahorati darajasini belgilaydi, chunki kasbiy shakllanish mahorati kasbiy faoliyat haqidagi tegishli axborotlarni o'zlashtirish asosidagina vujudga kelishi mumkin.

Tadqiqot davomida «O'quv firmasi» «Aqliy hujum», «Muammoli o'qitish», «Klaster», «Bumerang», «Davra stoli-suhbat», «Ish o'yinlari», «Rolli o'yinlar»ga

asoslangan holda mashg'ulotlar tashkil etildi. Iqtisodiy ta'lim berishning bu shakllari o'qituvchi va talabalar o'zaro hamkorligini yuzaga keltiruvchi maxsus tashkil qilingan o'yinlardir. «Tadbirkorlik jarayoni (kasbi)» o'quv kursi mashg'ulot shakllari: yangi mavzuni tushuntirish, namoyish qilish, muammoli vaziyatlarni yuzaga keltirish, munozara uyushtirish, talabalarning fikr-mulohazalari bilan o'rtoqlashish, ijodiy faolliklarini rivojlantirish, mustaqil fikrlashini rivojlantirish, ilmiy yangilikka bo'lgan intilishini kuchaytirish va boshqalar. Mazkur pedagogik o'yinlar «Tadbirkorlik jarayoni (kasbi)» o'quv kursidan ma'ruza, amaliy va mustaqil ta'lim mashg'ulotlari davomida ham o'tkazildi.

3.2. PEDAGOGIK TAJRIBA-SINOV ISHLARI NATIJALARI VA TAHLILI

OTMLarda iqtisod nazariyasini keng ko'lamda o'rgatish talabalarning moddiy farovonlik yaratish borasidagi tasavvurini, tadbirkorlikka oid bilim, ko'nikma va malakalarni har tomonlama chuqur, atroflicha rivojlantirishga yordam beradi. Hozirgi zamon o'qitish vositalari hamda mavjud ilg'or metodlar talabalarning iqtisodiy salohiyatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. OTMLarda hozirgi zamon o'qitish metodlari imkoniyatlaridan yuqori darajada foydalangan holda talabalarning iqtisodiy tayyorgarligini, iqtisodiy tafakkurini yuksaltirish borasidagi amaliy ishlar olib borildi.

Tajriba va sinovlar jarayonida Toshkent shahar va viloyatidagi qator OTMLar talabalari va o'qituvchilari hamda ota-onalar bilan so'rovnomalar o'tkazildi. So'rovnomalar asosida talabalarning iqtisodiy tasavvurini kengaytiradigan bilimlar talabalar ta'lim-tarbiyasiga qanday ta'sir ko'rsatishini o'rgandik. Olingan javoblardan quyidagilar aniqlandi:

-so'rov o'tkazilgan talabalarning 62 foizi iqtisodiy tushunchalarni yaxshi o'zlashtirmagan;

- so'rovda ishtirok etgan talabalarning 30 foizi tadbirkorlik jarayoni (kasbi)ga qiziqishi borligini bildirgan;

-so'rovda qatnashgan talabalarning 8 foizi iqtisodiy masalalarga qiziqishni bildirgan.

Ota-ona va o'qituvchilar bu masalaga yaxshi munosabat bildirdilar. Ular fan asoslarini chuqur o'rganishda va amaliy faoliyatda tadbirkorlik jarayoni (kasbi) kerak ekanligini, undan talabalar kelgusida turmushda, iqtisodiyotning turli tarmoqlarida foydalanish mumkinligiga, bunday bilimlarning bevosita talabalar tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatishiga (o'qituvchilarning 75 foizi, otalarning 60 foizi) ishonch bildirdilar.

So'rov natijalariga ko'ra, biz talabalarning tadbirkorlik jarayoni (kasbi)ga oid iqtisodiy tasavvurlarini kengaytirish bo'yicha keng ko'lamda ishlarni olib borish kerak, degan xulosaga keldik.

Tadqiqot davomida talabalarda tadbirkorlikka oid bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirish bo'yicha maxsus kurs o'qitish lozimligini va bu mashg'ulot talabalarning sevimli kursi bo'lishi mumkinligini aniqladik. Masalan, Samarqand viloyati va Toshkent shahridagi 400 nafar talaba so'rovnomaga ijobiy javob berdi. Jumladan, so'rovnomada ishtirok etgan talabalarning 30 foizi «Tadbirkorlik jarayoni (kasbi)» kursini asosiy fan deb qayd qilishdi, 33 foizi esa tayanch iqtisodiyot nazariyasini, 20 foizi bozor iqtisodiyoti asoslarini, 17 foizi esa marketing xizmatini o'rganishni afzal bilishini ta'kidlaganlar. Fikrimizcha, talabalarda «Tadbirkorlik jarayoni (kasbi)» kursi mashg'ulotlariga qiziqish uyg'otishda ularga fan asoslarini chuqur o'rgatish, iqtisodiy masalalarni amaliy hal qilish kutilgan samarani beradi. So'rovnomalar orqali talabalarning iqtisodiy tayyorgarligini oshirishga bo'lgan qiziqishi o'rganildi. Metodik tavsiyalarni ham so'rovnomalar asosida yaratishga harakat qildik.

Talabalarga berilgan "Tadbirkorlikka oid bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirish haqida o'z fikringizni bildirsangiz?" degan so'rovga quyidagi javoblar olindi (3.2.1-jadvalga qarang):

3.2.1-jadval

Tadbirkorlikka oid bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirishga talabalar munosabati

Kollejlar	Talabalar soni	To'liq va to'g'ri javob berganlar	To'liq javob bermaganlar	Noaniq javob berganlar	Qisqa javob berganlar	Masalani tushu-nish darajasi
-----------	----------------	-----------------------------------	--------------------------	------------------------	-----------------------	------------------------------

	26	4	6	5	4	7
	24	3	5	3	6	8
	20	2	3	4	3	8
	25	5	3	5	7	5

Olingan natijalar bo'yicha ko'pchilik talabalar masala mohiyatini tushunmaganligi, tadbirkorlik jarayoni (kasbi)ga va iqtisodiy fanlarga qiziqishi ko'p hollarda hali unchalik aniq emasligi ma'lum bo'ldi.

Respublikaning qator ta'lim muassasalarida olib borilgan iqtisodiy ta'lim-tarbiya ishlari shuni ko'rsatdiki, o'sib kelayotgan yosh avlodga iqtisodiy bilim berish, eng avvalo, kasb tanlash asosida tashkil etilishi kerak ekan. Qolaversa, noiqtisodiy yo'nalishdagi kollejlarda iqtisodiyotdan bilim beradigan o'qituvchi ham, talaba ham tadbirkorlik jarayoni (kasbi) kursi mohiyatini yaxshi bilishlari lozim.

Pedagogik tajriba-sinovgacha bo'lgan va undan keyingi natijalarni ko'rib chiqdik. Bunda iqtisodiy tassavurning o'sishi 86,5 foizga ortganligi ma'lum bo'ldi. Talabalarni tadbirkorlik jarayoni (kasbi)ga oid tushunchalarini bilishi bo'yicha guruhlariga bo'ldik (3.2.2-jadvalga qarang).

3.2.2-jadval

Talabalarni tadbirkorlik jarayoni(kasbi) ka oid tushunchalarini bilishi bo'yicha guruhlariga bo'lish

Daraja	Tajriba-sinovgacha bo'lgan talabalar tarkibi		Tajriba-sinovdan so'nggi talabalar tarkibi	
	Talabalar soni	(% hisobida)	Talabalar soni	(% hisobida)
Yuqori	8	26,8	10	33
O'rtacha	6	20,4	17	56,6
Kuyi	16	52,8	3	10,4

Pedagogik tajriba-sinov ishlarini bir necha bosqichlarda amalga oshirildik.

Dastlab asosan pedagogik tajriba–sinov ishlari o‘tkaziladigan ta’lim muassasalar belgilab olinadi, ulardagi pedagogik muhit, ta’lim oluvchilarning iqtisodiy bilimi, ko‘nikma va malakalari o‘rganildi. O‘rganish jarayoni so‘rovnoma va test savollari, yozma ish, og‘zaki savol-javoblar tarzida o‘tkaziladi. Natijalarni hisoblash uchun asosan o‘n ballik tizim olinib, shu sistema asosida (H_y - umumiy natija o‘rtacha ball hisobida) $H_y = \frac{\sum \overline{X}_i}{C}$ formula yordamida (\overline{X}_i – har bir talabaning o‘rtacha bali, C-sinovda qatnashgan talabalar soni) hisoblandi. Bunda $0 \leq \overline{X}_i \leq 10 \Rightarrow 0 \leq H_y \leq 10$ bo‘lib, umumiy holatda muayyan sinf talabalarining test yoki so‘rovnomalarga tayyorgarlik darajasini aniqlashga harakat qildik. Agar H_y ni 100% ga ko‘paytirilsa, uning foiz asosidagi ko‘rsatkichini olamiz. Shuning uchun ham har bir pedagogik tajriba-sinov ishimizning natijasini iqtisodiy statistika qonuniyatlarini ifodalovchi mezonlar orqali hal qilishga harakat qildik.

Shu bois tajriba va nazorat sinflarda mazkur muhitda bitta o‘qituvchining o‘zi dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlarni olib borishi ta’minlanadi. Tajriba sinflariga beriladigan o‘quv materiallari, didaktik-metodik ishlanmalar tayyorlandi va bu materiallar asosida kollej o‘qituvchilari qayta tayyorgarlikdan o‘tkazildi. Tashkiliy qismda olib borilishi lozim bo‘lgan barcha metodik tavsiyanomalarning o‘zaro mutanosibli, amaliy ahamiyati qayta-qayta ko‘rib chiqildi, ish jarayonida bo‘ladigan o‘zgarishlar qat’iy nazoratga olinishi kelishib olindi.

Tajriba Samarqand viloyatining 2-sonli pedagogika kolleji, Toshkent shahridagi Shayxontohur transport kolleji, Toshkent viloyatining Zangiota tumanidagi tibbiyot kollejida olib borildi va maqsad talabalarning iqtisodiy tasavvurini rivojlantiruvchi pedagogik qonuniyatlar, qoidalar, tamoyillar, mezonlarni aniqlashga qaratildi.

Tajriba-tadqiqot ob’ekti sifatida uzluksiz ta’lim tizimida kollejlarda «Tadbirkorlik jarayoni (kasbi)» o‘quv kursining o‘qitilishidagi pedagogik–metodik jarayon olindi. Tajriba tadqiqotning vazifasi OTMlar talabalarida

tadbirkorlikka oid bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirishning didaktik–uslubiy qoidalari va qonuniyatlarini ishlab chiqish va yaratishdan iborat bo'ldi. Maqsad muammoli metodga tayangan holda talabalarning iqtisodiy tasavvurini yuqori bosqichiga olib chiqishni tizimli sinxron tarzda amalga oshirishni ta'minlovchi o'quv materialini va muammoli metodini ishlab chiqish va amalda qo'llashdan iborat edi.

Pedagogik tajriba-sinov natijalarining ishonchliligini ta'minlash maqsadida talabalarning iqtisodiy tayyorgarligini rivojlantirishga amaliy yondashishda ma'lum gipoteza, talab va qoidalarga amal qildik. Talabalar iqtisodiy tasavvurining rivojlanishini ta'minlash mumkin agarda:

- iqtisodiy qonun-qoidalar va ular orasidagi mavjud bog'lanishlar tizimli tarzda o'rganilsa;

- iqtisodiy bilimlar izchil va bosqichma-bosqich o'rganilsa;

- iqtisodiy ob'ektlarni o'rganishda umumlashtirish, integratsiyalash tamoyillariga amal qilinsa va talabalarda amaliy ko'nikmalar shakllantirilsa;

- Tadbirkorlikka oid bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantiruvchi o'quv materiallari va uni amalda qo'llash uchun metodika yaratilsa.

Keltirilgan bu tajriba–sinov gipotezasi bevosita amaliy ahamiyat kasb etdi. Pirovard-natijada ushbu muammo pedagogik tajriba-sinov ishlarida hal qilishga harakat qilindi.

Olib borilgan pedagogik tajriba-sinovning ikkinchi bosqichida bir necha yillik ish tajribamiz va ko'rilgan tayyorgarlik asosida tajribalar o'tkazilib, undan quyidagi empirik natijalarni olindi:

- OTMLar talabalarining iqtisodiy bilim, ko'nikma va malakalaridagi kamchiliklarni o'rganish va tahlil qilish hamda kamchiliklarni yuzaga keltirayotgan sabablarni o'rganish;

- iqtisodiy tasavvur rivojlanishida yuzaga keladigan holatlarni aniqlash va tahlil qilish;

- muayyan pedagogik-metodik ta'sir bilan talabalarni o'qitish, kamol toptirish va tarbiyalashda erishiladigan natijalar orasidagi bog'lanishni aniqlash;
- metodik ta'sirlar samaradorligini, izchilligini oshirish asosida talabalarning iqtisodiy tasavvurini rivojlantirish;
- butun ta'lim jarayonini doimo nazorat qilib, har bir nostandart holatlarni iloji boricha baholab, tahlil qilib borish asosida pedagogik–metodik maqsad va vazifalarni to'g'ri amalga oshirilishini ta'minlash.

Butun o'quv jarayonida olib borilayotgan sa'y-harakatlar talabalarning iqtisodiy tasavvuri rivojlanishi mezoniga suyanan holda iqtisodiy tushunchalar, qonun-qoidalar va munosabatlarni o'zlashtirishga yo'naltirildi. Shu bilan birga har bir iqtisodiy ob'ektga nisbatan talabalarning o'zlashtirish darajalari ham o'rganib borildi. Bu holda:

- ilk davrlarda talabalar, asosan bir-birlaridan nusxa ko'chirish holatlari bilan cheklanishlari aniqlandi;
- talabalar faoliyati reproduktiv xarakterga ega bo'lib, sharoit yoki talablar o'zgargan holda ularning qiynalib qolishi, o'qituvchi yordamiga muhtoj bo'lish hollari kuzatildi;
- asta-sekin talabalar mustaqil faoliyatga o'tib, o'z ustida ishlash, iqtisodiy qonuniyatlardan ongli ravishda foydalanish, ayrim jadvallardagi ma'lumotlarni o'qituvchining yordamisiz qo'llash imkoniyatiga ega bo'la boshladi;
- talabalar o'z o'quv faoliyati davomida borgan sari iqtisodiy qonuniyatlar, qoida va formulalardan ijodiy foydalanib, iqtisodiy faktlarni o'zaro bog'lay olishlariga ishonch hosil qildik;
- talabalarda iqtisodiy ob'ektlarni murakkab ko'rinishda tasavvur eta olish qobiliyati rivojlandi, biror iqtisodiy muammoning samarali hal etilishini ta'minlay olishga yordam beruvchi tasavvurlar kompozitsiyasini yarata olish mahoratlari namoyon bo'la boshladi va bu tasavvurlar kompozitsiyasi mustahkamlandi.

Ta'lim jarayonida talabalarning iqtisodiy tayyorgarligi darajasini aniqlash maqsadida biz yozma ish va testlarni o'n ballik baholash tizimiga asoslangan

holda o‘tkazdik. Quyida Toshkent shahar qurilish kasb-hunar kollej hamda Toshkent shahridagi Shayxontohur transport kollejida olib borilgan pedagogik tajriba-sinov natijalarini keltiramiz. Pedagogik tajriba-sinov natijalarini har ikkala kollej uchun jamlab, tajriba guruhi (talabalar soni n_1q72) va nazorat guruhi (talabalar soni n_1q82) uchun variatsion qator ko‘rinishida jadvalda keltiramiz (3.2.3-jadval qarang):

3.2.3-jadval

Tajriba va nazorat guruhi natijalarining ko‘rsatkichlari taqsimoti

	Tajriba guruhi	Nazorat guruhi
Ballar	X_i : 4; 5; 6; 7; 8; 9;10	Y_j : 3; 4; 5; 6; 7; 8; 9; 10
Soni	P_i : 8; 10; 13; 18; 13; 6; 4.	q_j : 6; 18; 18; 15; 14; 5; 4; 2
Jami	n_1q72	n_1q82

Biz jadvaldagi sonli ma’lumotlarni qayta ishlash hamda ular asosida tegishli xulosalar chiqarish maqsadida iqtisodiy statistika usullaridan foydalandik. Natijada tajriba guruhi talabalarning iqtisodiy masalalarni echishda bilim saviyalari va iqtisodiy tasavvurlari sezilarli darajada yuqori ekanini ko‘ramiz.

Natijalar tahlili shuni ko‘rsatdiki, hujjatlar va ma’lumotlarni tahlil qilish axborot olishning muhim manbai bo‘lib xizmat qiladi. Ular o‘rganilayotgan ob’ektning u yoki bu tuzilmalarini bayon qilish uchun material beradi. Biz uchun hujjatlarni tahlil qilish tadqiqotimizning ilk bosqichida ko‘proq foydali va muhim bo‘ldi, chunki uning yordamida tadqiqot ob’ekti to‘g‘risida yaxlit tasavvur hosil qilindi.


Tadbirkorlikka oid bilim, ko‘nikma va malakalarni rivojlantirish metodikasini o‘quv amaliyotga tatbiq etish maqsadida dastlab talabalarning iqtisodiy bilimlarni qanchalik darajada o‘zlashtirgani, iqtisodiy bilimlarga qiziqishi, ularda tadbirkorlikka oid bilim, ko‘nikma va malakalarni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari aniqlandi. Buning uchun esa respublikamizdagi bir necha noiqtisodiy yo‘nalishdagi OTMlarda iqtisodiy yo‘nalishdagi fanlardan saboq beruvchi o‘qituvchilar hamda

talabalar orasida so‘rovnomalar o‘tkazildi. Talabalarga iqtisodiy ta’lim-tarbiya berishda qo‘llanilayotgan metodlar o‘rganildi. Noiqtisodiy yo‘nalishdagi OTMLlarda iqtisodiy ta’lim samaradorligini aniqlash talabalar bilimni nazorat qilishning reyting usuli (joriy, oraliq, yakuniy nazorat bosqichlari), test topshiriqlari, shuningdek, og‘zaki va yozma usullarini qo‘llash orqali amalga oshirildi. Olingan natijalar asosida ularning iqtisodiy tayyorgarligi darajasi tahlil etildi. Shundan keyin talabalarning iqtisodiy bilimlarni o‘zlashtirish samaradorligini ta’minlash maqsadida pedagogik tajriba-sinov ishlari o‘tkazildi.

Biz pedagogik tajriba–sinov ishlari jarayonida talabalarning iqtisodiy tushunchalarni o‘zlashtirish darajasini aniqlash maqsadida psixolog olim L. Rubinshteynning talabalarning tushunchalarni o‘zlashtirishini o‘rganish maqsadida ishlab chiqqan metodikasidan foydalandik.

L. Rubinshteyn metodikasiga ko‘ra, biz tadbirkorlikka oid bilim, ko‘nikma va malakalarni rivojlantirish dinamikasini, talabaniq iqtisodiy tushunchalarni qabul qilish va to‘la o‘zlashtirish mezonlari koeffitsientlarini hamda iqtisodiy tushunchalarni o‘zlashtirish darajasini aniqladik. Bunda asosan $R = \frac{M_1}{M}$ formuladan foydalanildi. Bu erda R-iqtisodiy tushunchaning mazmunan to‘laligini ifodalaydi, M_1 - o‘rganilgan yangi tushunchalar soni, M- avval o‘rganilgan iqtisodiy tushunchalar soni.

Quyidagi 3.2.1 va 3.2.1-rasmlarda tajriba-sinov va nazorat guruhlari talabalarining iqtisodiy tushunchalarni o‘zlashtirish darajasi foiz hisobida ko‘rasatilgan.



I guruh natijasi -35,5.

II guruh natijasi -43,8.

I guruh natijasi -58,6.


II guruh natijasi -31,1.

III guruh natijasi -20,7.

III guruh natijasi -10,3.

3.2.1.-rasm. Tajriba-sinov guruhlari talabalarining iqtisodiy tushunchalarni o'zlashtirish darajasi (foiz hisobida)

Yil boshida




I guruh natijasi -38,1

II guruh natijasi -42,6

III guruh natijasi -19,3

Yil oxirida



I guruh natijasi -45,7

II guruh natijasi -38,3

III guruh natijasi -16

3.2.2-rasm. Nazorat guruhlari talabalarining iqtisodiy tushunchalarni o'zlashtirish darajasi

Rasmlarda ko'rsatilgan natijalarni taqqoslash shuni ko'rsatadiki, tajriba-sinov guruhlari talabalarining iqtisodiy tushunchalarni o'zlashtirish darajasi nazorat guruhlari talabalarining iqtisodiy tushunchalarni o'zlashtirish darajasiga nisbatan yuqori. Bu esa bizning amaliy faoliyatda qo'llagan metodikamizning samaradorligini ko'rsatadi.

Tajriba-sinov guruhlari talabalarini barcha iqtisodiy tushunchalarni o'zlashtirdilar, topshiriqlarni to'g'ri bajardilar, etarlicha iqtisodiy bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lishdi.

Nazorat guruhlari talabalarini barcha iqtisodiy topshiriqlarni yaxshi bajardilar, bilim, ko'nikma, malakaga ega bo'ldilar, lekin ayrim xatoliklarga yo'l qo'yishdi, o'quv materialini qisman o'zlashtirdilar, ularda etarlicha ko'nikma va malakalar shakllanmadi.

3.2.4-jadval.

Tajriba-sinov va nazorat guruhlari talabalarning iqtisodiy tayyorgarligini taqqoslovchi va umumlashtiruvchi topshiriqlarni bajarish natijalari (% hisobida)

Bosqichlar	Tajriba-sinov guruhlari			Nazorat guruhlari		
	To'g'ri javob	Noto'g'ri javob	Javob bermaganlar	To'g'ri javob	Noto'g'ri javob	Javob bermaganlar
1- bosqich	62,4	35,6	2	44	47,5	8,5
2- bosqich	75,5	24,5	-	37,2	58,5	4,3
1- bosqich	57	43	-	50	50	-
2- bosqich	67,2	32,8	-	45,2	55,8	-

Biz talabalarda tadbirkorlikka oid bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirish jarayonini, o'quv materialini o'zlashtirish darajasini V. P. Bepalko metodikasidan foydalanib tekshirdik.

Haqqoniylik koeffitsienti $K_h = P/N$. Bu erda P- to'g'ri bajarilgan iqtisodiy topshiriqlar soni, N-umumiy topshiriqlar soni. Bundan haqqoniylik koeffitsientini $K_h = P_2/P_1$ formula bo'yicha hisoblash mumkin. Bu erda P_1 – Tadbirkorlikka oid bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirish jarayonida talabalar bajargan to'g'ri topshiriqlar soni, P_2 - vaqtdan unumli foydalana olmagan holda bajarilgan topshiriqlar soni.

Haqqoniylik koeffitsientining uchta darajasi aniqlandi: yuqori, $K_h > 0,87$, o'rta, $0,67 < K_h < 0,87$, quyi, $K_h < 0,67$.

O'quv yili oxiri va keyingi o'quv yili boshida o'tkazilgan tekshirish natijalari tahlili shuni ko'rsatdiki, birinchi va ikkinchi yilgi tajriba-sinov guruhi talabalarining iqtisodiy tayyorgarligining haqqoniylik koeffitsienti ikkinchi va uchinchi yildagi tajriba-sinov guruhi talabalarining iqtisodiy tayyorgarligi haqqoniylik koeffitsenti nazorat guruhi talabalarinikiga nisbatan yuqori bo'ldi.

Pedagogik tajriba-sinov boshida o'tkazilgan so'rovnomada ishtirok etgan 400 nafar talabaning 32,2 foizi iqtisodiy bilim asoslarini, 40,5 foizi bozor iqtisodiyotini, 27,3 foizi marketing xizmatini o'rganish istagini bildirishdi.

Pedagogik tajriba-sinovlar oxirida o‘tkazilgan so‘rovnoma ishtirok etgan talabalarning 68,4 foizi iqtisodiyotdan maxsus kursni, 21,3 foizi bozor iqtisodiyotini, 10,3 foizi marketing xizmatini o‘rganishni ma’qul topishdi.

Pedagogik tajriba-sinov va so‘rovnoma natijalaridan talabalarda tadbirkorlikka oid bilim, ko‘nikma va malakalarni rivojlantirishning samaradorligi 89,7 foizni tashkil etgani ma’lum bo‘ldi.

Muammo bo‘yicha o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari tahlili shundan dalolat beradiki, OTMlar talabalarining iqtisodiy tayyorgarligini rivojlantirishda zamonaviy o‘quv vositalari hamda interfaol usullardan keng foydalanish zarur.

III bob bo‘yicha xulosalar

1. OTMlardagi “Iqtisodiyot nazariyasi” fani darslarida muammoli ta’lim texnologiyasidan yuqori saviyada foydalanish talabalarning tadbirkorlik jarayoni (kasbi) haqidagi tasavvurini kengayishi muhim omil bo‘lishi bilan birgalikda, ularning tadbirkorlik jarayoni (kasbi)ga oid ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

2. Talabalarning tadbirkorlik jarayoni (kasbi)ga oid tasavvurlarini rivojlantirish uchun har bir iqtisodiy voqelik, qonun, qoida va vazifani talabalar tasavvurida aniq jonlashtirish va u asosida mushohada qilishga o‘rgatilishi muhim ahamiyatga ega.

3. Har bir iqtisodiy ma’lumot, kattami yoki kichikmi, uni talaba o‘z tasavvuriga keltira olishi va shu asosida tafakkur qilishi, shu ma’lumotni hisobga olgan holda tadbirkorlik jarayoni (kasbi)ga oid bilimni ishga solib masalaga ijodiy yondashishi muhim ahamiyatga ega.

4. Talabalar murakkab iqtisodiy vaziyatlarda turli-tuman ma’lumotlar, qonuniyatlar, ob’ektlar bilan ish ko‘rganda iqtisodiy vaziyatning barcha qirralarini aniq tasavvur qilishi va ular o‘rtasidagi bog‘lanish qonuniyatlarini yaxshi anglab etishlari, ilmiy mushohada yuritishlari, tadbirkorlik jarayoni (kasbi)ga oid bilimlari kasbiy-iqtisodiy faoliyatiga asos bo‘lib xizmat qilishi zarur.

5. Har bir iqtisodiy fakt, qonun, qoida asosida talabalar ish jarayonida chuqur fikrlay olishlari, shu bilan birgalikda tasavvur qilishga o'rganishlari zarur. Bu hol ularda nafaqat to'g'ri iqtisodiy xulosalar chiqarishga, balki echimini topmayotgan muammolarni bartaraf etishga turtki bo'lib xizmat qiladi.

6. Iqtisodiy voqelik va qonununiyatlardan bevosita foydali xulosalar chiqara oladigan talabalar nafaqat o'quv materialini yaxshi o'zlashtiradilar, balki asosli fikr yuritadigan, har bir gapini o'ylab gapiradigan, amaliy va foydali takliflar berish salohiyatiga ega bo'lishlari pedagogik tajriba jarayonida aniqlandi va bunga ishonch hosil qilindi.

XULOSALAR

1. Iqtisodiy yoʻnalishdagi fanlarni oʻqitishning nazariy asoslari kichik mutaxassislar tayyorlash tizimining tarkibiy qismi hisoblanib, bu omil OTM talabalarining tadbirkorlik jarayoni (kasbi) xususiyatlarini rivojlantirishda, takomillashtirishda, ularni barkamollik mutaxassis sifatida tarbiyalashda hamda kamol toptirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

2. Muammo dolzarbligi tadqiqot davomida turli kollej talabalari bilan iqtisodiy taʼlim-tarbiya ishlari olib borishda, tadbirkorlikka oid bilim, koʻnikma va malakalarni rivojlantirishni amalga oshirish jarayonida yaratilgan modelni hamda iqtisodiy bilim, koʻnikma va malakalarni baholash mezonlarini ishlab chiqishda tajriba-sinov asosida isbotlandi.

3. Tadqiqot natijalari talabalarda tadbirkorlikka oid bilim, koʻnikma va malakalarni rivojlantirishda iqtisodiy taʼlim-tarbiyaning barcha komponentlari kasbiy taʼlim bilan oʻzaro uygʻun va aloqador holda olib borilishi kerakligi haqidagi farazimizning asosli ekanini koʻrsatdi. Tadbirkorlik jarayoni (kasbi)ga amalda erishishning ilmiy asoslangan usullari yaratildi.

4. Tadqiqot jarayonida OTMlari talabalariga tadbirkorlikka oid bilim, koʻnikma va malakalarni rivojlantirish boʻyicha taʼlim-tarbiyaviy taʼsir koʻrsatishning psixologik-pedagogik tashxislash jihatlarini ishonarli materiallar bilan asoslashga va isbotlashga ilk bor harakat qilindi. Olib borilgan tadqiqotlar natijalari quyidagi xulosalarga olib keladi:

- OTMlari talabalarining tadbirkorlik jarayoni (kasbi)ga nisbatan munosabatlari oʻquv-tarbiya faoliyati jarayonidagi oʻzaro muloqotlar mezonini belgilab beradigan iqtisodiy, ijodiy tafakkurlarining shakllanishiga ijobiy taʼsir koʻrsatdi;

- Tadbirkorlikka oid bilim, koʻnikma va malakalarni rivojlantirish OTMlari talabalarining taʼlim-tarbiya jarayoniga samarali taʼsir koʻrsatdi hamda hayot bilan bogʻliq iqtisodiy oʻquv faoliyati motivlarining vujudga kelishini taʼminladi;

- o'quv-tarbiya faoliyatining tashkiliy shakllaridan biri sifatida tadbirkorlikka oid bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirish munosabatlarini ifodalaydigan tadbirlarni davom ettiruvchilar uchun amaliy muhitni rivojlantirishning muhimligi isbotlandi;

- Tadbirkorlikka oid bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirish talabalar o'quv faoliyatiga ijobiy ta'sir etib, ularda ma'naviy sifatlarni gavdalantirdi. Bu sifatlardan ayniqsa, iqtisodiy tejamkorlikni va standartlarni shakllantiruvchi, kasbiy-iqtisodiy bilimlarni mustahkamlovchi ko'nikma va malakalar hosil bo'lishiga yordam berdi.

5. Darsda «Tadbirkorlik jarayoni (kasbi)» dasturi materiallariga bog'lab, tadbirkorlikka oid bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirishga yo'naltiruvchi tushuntirish, cyhbat, kitob bilan ishlash kabi og'zaki metodlarni, ish o'yinlari, rolli o'yinlar, namoyish qilish, ekskursiya kabi ko'rsatmali hamda mustaqil amaliy ishlarni bajarish, o'quv tajriba maydonidagi, oiladagi uy-ro'zg'or ishlari va mehnat darslaridagi amaliy ishlar, ijtimoiy va unumli mehnat, izlanishlar kabi amaliy metodlar qo'llanildi.

6. Chuqur iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarning hozirgi bosqichida mehnat bozori talablariga javob beruvchi kichik mutaxassis-tadbirkorni rivojlantirish g'oyat dolzarb muammo. Chinakam tadbirkorni tayyorlash samaradorligini ta'minlovchi omillardan biri bu - ta'limning iqtisodiy yo'nalishlarini rivojlantirish ekanligiga ishonch hosil qilindi.

7. Amalga oshirilgan tadqiqot ishlarimiz o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimida mohir kichik mutaxassislarni rivojlantirish masalalarining nazariy tahlili quyidagi xulosalarga kelishimizga imkon berdi:

-tahlillar mazkur muammoga doir tadqiqotlar, eng avvalo, iqtisodiy masalalar taraqqiyotning ko'p qirraliligi va ko'p yo'nalishliligi masalalarini qarab chiqishga bag'ishlanganligini ko'rsatdi;

- iqtisodiyotni boshqarish yo'llarini turli mutanosibliklarda olib borishda kasbiy-iqtisodiy ta'lim orqali iqtisodiy masalalarni hal etishdan ko'ra samarali universal yo'l yo'q ekanligini ko'rsatdi.

8. Tadqiqot davomida talabalarga tabaqali yondashildi. Tadbirkorlikka oid bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirish faoliyatida amaliy ko'nikma va malakalarni tarkib toptirishning psixologik-pedagogik asoslari, ta'lim-tarbiyaning turli shakl va metodlari aniqlashtirildi.

10. Tajriba-sinov natijalari, Tadbirkorlikka oid bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirishda ta'lim-tarbiya ishlarini takomillashtirish muammosini o'rganish quyidagi holatlarni sharhlash imkonini berdi:

- tajriba-sinovlar davomida foydalanilgan metodlar o'zini to'la oqladi va ulardan nafaqat ilmiy tadqiqotlarda, balki OTMlari talabalarining iqtisodiy tayyorgarligini rivojlantirishda kasbiy-iqtisodiy tarbiya bo'yicha amalga oshiriladigan ishlarda ham foydalanish mumkin;

-bizning tavsiyalar barcha turdagi noiqtisodiy yo'nalishdagi OTMlarda iqtisodiy yo'nalishdagi fanlarni o'qitish metodikasi, mazmuni va tartibi bo'yicha talabalarning o'zlashtirishlari uchun mos bo'lib, talabalar ongi va faoliyati yo'nalishini, tadbirkorlik jarayoni (kasbi)ga bo'lgan munosabatlarini ijobiy tomonga o'zgartirdi, ijtimoiy faolligini oshirdi;

- tadqiqot jarayonida belgilagan barcha vazifalar ijobiy hal qilindi va olg'a surilgan faraz to'la tasdiqlandi.

Uzoq yillar davomida olib borilgan ilmiy izlanishimiz OTMlari talabalarida tadbirkorlikka oid bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirishning nazariy va amaliy muammolarini hal qilish va mamlakatimiz hududining xususiyatlarini nazarda tutgan holda, tadqiqotlar va kasbiy faoliyatga asos bo'la oladigan nazariy xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini berdi.

15. Olib borilgan tadqiqot natijalari shundan dalolat beradiki, mamlakatimizda moddiy farovonlikni ko'tarish birinchi navbatda yaratuvchilik ishlarini yo'lga qo'yish va iqtisodiyotni chuqur biladigan kadrlar tayyorlash bilan bog'liq. Har bir soha kadrlari iqtisodiy savodxon bo'lganidagina bozor o'z takomilini topadi. Tadbirkorlikka oid bilim, ko'nikma va malakalarni barqaror etish, avvalo, yuksak saviyadagi kichik mutaxassislar kadrlar tayyorlash jarayonining ayrim jihatlari va komponentlariga tegishli bo'lgan nazariy-emperik

ma'lumotlarni bir tizimga keltirish imkonini beradi. Qolaversa, malakali mutaxassislarning tarbiyalanishi jarayoniga e'tiborni bundan keyin ham kun tartibidan tushirmaslik uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Noiqtisodiy yo'nalishdagi OTMLar talabalarida tadbirkorlikka oid bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirish uchun amaliy tavsiyalar

-noiqtisodiy yo'nalishdagi OTMLar talabalarining iqtisodiy tayyorgarligi darajasini o'rganish;

- talabalarda tadbirkorlikka oid bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirish mazmunini ishlab chiqish;

- talabalarda tadbirkorlikka oid bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirish shakl va metodlarini tanlash;

-talabalarda iqtisodiy tayyorgarligini oshirishga motivatsiyani kuchaytirish (ma'naviy va moddiy rag'batlar);

- talabalarda tadbirkorlikka oid bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirishga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash va ularni kuchaytirish maqsadida amaliy ishlar olib borish;

- talabalarda tadbirkorlikka oid bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirish komponentlarini aniqlash;

-samarali iqtisodiy ta'lim shakllarini tanlash, ish o'yinlari va rolli o'yinlardan foydalanish, ta'limning amaliy yo'nalishlarini kuchaytirish;

-Tadbirkorlikka oid bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirishga oid turli amaliy tadbirlar tashkil etish;

- talabalarda tadbirkorlikka oid bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan maxsus «Tadbirkorlik jarayoni (kasbi)» kursi dasturini va mazmunini ishlab chiqish (fakultativ mashg'ulotlar uchun);

-«Tadbirkorlik jarayoni (kasbi) » kursini o'rganish va mashg'ulotlarni tashkil etish texnologik xaritasini ishlab chiqish;

-talabalarning mustaqil ta'lim olishiga katta e'tibor qaratish va boshqalar.

XOTIMA

1. Iqtisodiy yoʻnalishdagi fanlarni oʻqitishning nazariy asoslari kichik mutaxassislar tayyorlash tizimining tarkibiy qismi hisoblanib, bu omil noiqtisodiy OTM talabalining iqtisodiy savodxonlik xususiyatlarini rivojlantirishda, takomillashtirishda, ularni barkamollik mutaxassis sifatida tarbiyalashda hamda kamol toptirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

2. Muammo dolzarbligi oʻqush davomida turli kollej talabalari bilan iqtisodiy taʼlim-tarbiya ishlari olib borishda, iqtisodiy savodxonlikni rivojlantirishni amalga oshirish jarayonida yaratilgan modelni hamda iqtisodiy bilim, koʻnikma va malakalarni baholash mezonlarini ishlab chiqishdagi tajriba-sinov asosida isbotlandi.

3. Oʻquv natijalari talabalarda iqtisodiy savodxonlikni rivojlantirishda iqtisodiy taʼlim-tarbiyaning barcha komponentlari kasbiy taʼlim bilan oʻzaro uygʻun va aloqador holda olib borilishi kerakligi haqidagi farazimizning asosli ekanini koʻrsatdi. Iqtisodiy savodxonlikka amalda erishishning ilmiy asoslangan usullari yaratildi.

5. Oʻquv jarayonida noiqtisodiy OTM talabalariga iqtisodiy savodxonlikni rivojlantirish boʻyicha taʼlim-tarbiyaviy taʼsir koʻrsatishning psixologik-pedagogik tashxislash jihatlarini ishonarli materiallar bilan asoslashga va isbotlashga ilk bor harakat qilindi. Olib borilgan Oʻquvlar natijalari quyidagi xulosalarga olib keladi:

- noiqtisodiy OTM talabalarining iqtisodiy savodxonlikka nisbatan munosabatlari oʻquv-tarbiya faoliyati jarayonidagi oʻzaro muloqotlar mezonini belgilab beradigan iqtisodiy, ijodiy tafakkurlarining shakllanishiga ijobiy taʼsir koʻrsatdi;

- iqtisodiy savodxonlikni rivojlantirish noiqtisodiy OTM talabalarining taʼlim-tarbiya jarayoniga samarali taʼsir koʻrsatdi hamda hayot bilan bogʻliq iqtisodiy oʻquv faoliyati motivlarining vujudga kelishini taʼminladi;

- o'quv-tarbiya faoliyatining tashkiliy shakllaridan biri sifatida iqtisodiy savodxonlikni rivojlantirish munosabatlarini ifodalaydigan tadbirlarni davom ettiruvchilar uchun amaliy muhitni rivojlantirishning muhimligi isbotlandi;

- iqtisodiy savodxonlikni rivojlantirish talabalar o'quv faoliyatiga ijobiy ta'sir etib, ularda ma'naviy sifatlarni gavdalantirdi. Bu sifatlar, ayniqsa, iqtisodiy tejamkorlikni va standartlarni shakllantiruvchi, kasbiy-iqtisodiy bilimlarni mustahkamlovchi ko'nikma va malakalar hosil bo'lishiga yordam berdi.

6. Darsda «Iqtisodiy savodxonlik» dasturi materiallariga bog'lab, iqtisodiy savodxonlikni rivojlantirishga yo'naltiruvchi tushuntirish, suhbat, kitob bilan ishlash kabi og'zaki metodlarni, ish o'yinlari, rolli o'yinlar, namoyish qilish, ekskursiya kabi ko'rsatmali hamda mustaqil amaliy ishlarni bajarish, o'quv tajriba maydonidagi, oiladagi uy-ro'zg'or ishlari va mehnat darslaridagi amaliy ishlar, ijtimoiy va unumli mehnat, izlanishlar kabi amaliy metodlar qo'llanildi.

7. Chuqur iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarning hozirgi bosqichida mehnat bozori talablariga javob beruvchi kichik mutaxassis-tadbirkorni rivojlantirish g'oyat dolzarb muammo. Chinakam tadbirkorni tayyorlash samaradorligini ta'minlovchi omillardan biri bu-ta'limning iqtisodiy yo'nalishlarini rivojlantirish ekanligiga ishonch hosil qilindi.

8. Amalga oshirilgan O'quv ishlarimiz o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimida mohir kichik mutaxassislarni rivojlantirish masalalarining nazariy tahlili quyidagi xulosalarga kelishimizga imkon berdi:

-tahlillar mazkur muammoga doir O'quvlar, eng avvalo, iqtisodiy masalalar taraqqiyotning ko'p qirraliligi va ko'p yo'nalishliligi masalalarini qarab chiqishga bag'ishlanganligini ko'rsatdi;

- iqtisodiyotni boshqarish yo'llarini turli mutanosibliklarda olib borishda kasbiy-iqtisodiy ta'lim orqali iqtisodiy masalalarni hal etishdan ko'ra samarali universal yo'l yo'q ekanligini ko'rsatdi.

9. O'quv davomida talabalarga tabaqali yondashildi. Iqtisodiy savodxonlikni rivojlantirish faoliyatida amaliy ko'nikma va malakalarni tarkib

toptirishning psixologik- pedagogik asoslari, ta'lim-tarbiyaning turli shakl va metodlarini aniqlashtirildi.

10. Tajriba-sinov natijalari, iqtisodiy savodxonlikni rivojlantirishda ta'lim-tarbiya ishlarini takomillashtirish muammosini o'rganish quyidagilar holatlarni sharhlash imkonini berdi:

- tajriba-sinovlari davomida foydalanilgan metodlar o'zini to'la oqladi va ulardan nafaqat ilmiy O'quvlarda, balki noiqtisodiy OTM talabalarining iqtisodiy savodxonligini rivojlantirishda kasbiy-iqtisodiy tarbiya bo'yicha amalga oshiriladigan ishlarda ham foydalanish mumkin;

-bizning tavsiyalar barcha turdagi noiqtisodiy yo'nalishdagi kasb-hunar kollejlarda iqtisodiy yo'nalishdagi fanlarni o'qitish metodikasi, mazmuni va tartibi bo'yicha talaba larning o'zlashtirishlari uchun mos bo'lib, talabalar ongi va faoliyati yo'nalishini, iqtisodiy savodxonlikka bo'lgan munosabatlarini ijobiy tomonga o'zgartirdi, ijtimoiy faolligini oshirdi;

- O'quv jarayonida belgilagan barcha vazifalar ijobiy hal qilindi va olg'a surilgan faraz to'la tasdiqlandi.

Uzoq yillar davomida olib borilgan ilmiy izlanishimiz noiqtisodiy OTM talabalarida iqtisodiy savodxonlikni rivojlantirishning nazariy va amaliy muammolarini hal qilish va mamlakatimiz hududining xususiyatlarini nazarda tutgan holda, O'quvlar va kasbiy faoliyatga asos bo'la oladigan nazariy xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini berdi.

15. Olib borilgan O'quv natijalari shundan dalolat beradiki, mamlakatimizda moddiy farovonlikni ko'tarish birinchi navbatda yaratuvchilik ishlarini yo'lga qo'yish va iqtisodiyotni chuqur biladigan kadrlar tayyorlash bilan bog'liq. Har bir soha kadrlari iqtisodiy savodxon bo'lganidagina bozor o'z takomilini topadi. Iqtisodiy savodxonlikni barqaror etish, avvalo, yuksak saviyadagi kichik mutaxassislar kadrlar tayyorlash jarayonining ayrim jihatlari va komponentlariga tegishli bo'lgan nazariy-emperik ma'lumotlarni bir tizimga keltirish imkonini beradi. Qolaversa, malakali mutaxassislarning tarbiyalanishi jarayoniga e'tiborni bundan keyin ham kun tartibidan tushirmaslik uchun asosi bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2017 yil, 488 bet.
2. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2016 yil, 56 bet.
3. Mirziyoev Sh.M. “Мы все вместе построим свободное, демократическое и процветающее государство Uzbekistan. Tashkent, “Uzbekistan”, 2016g, 56стр.
4. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash- yurt taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2017 yil, 48 bet.
5. Mirziyoev Sh.M. Обеспечение верховенства закона и интересов человека – гарантия развития страны и благополучия народа. Tashkent, “Uzbekistan”, 2017 g, 48стр.
6. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik- har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2017 yil, 104 bet.
7. Mirziyoev Sh.M. Критический анализ, жесткая дисциплина и персональная ответственность должны стать повседневной нормой в деятельности каждого руководителя. Tashkent, “Uzbekistan”, 2017 g, 104 str.
8. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.
9. Karimov I. A. Barkamol avlod — O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. - T.: Sharq, 1997. -64 b.
10. Karimov I. A. Yuksak malakali mutaxassislar – taraqqiyot omili. - T.: O‘zbekiston, 1995. -326 b.
11. Karimov I. A. Barkamol avlod — O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. - T.: Sharq, 1997. -64 b.
12. Karimov I. A. Yuksak malakali mutaxassislar – taraqqiyot omili. -T.: O‘zbekiston, 1995. -326 b.
13. Karimov I. A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: Xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -T.: O‘zbekiston, 1997. -326 b.
14. Karimov I. A. O‘zbekistonning siyosiy–ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. -T.: O‘zbekiston, 1996. -54 b.
15. Karimov I. A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas’ulmiz. //Vazirlar Mahkamasining 2000 yilda mamlakatni ijtimoiy – iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2001 yilda iqtisodiyotni erkinlashtirish va islohotlarni

chuqurlashtirishning ustivor yoʻnalishlariga bagʻishlangan maʼruza. «Xalq soʻzi» gazetasi, 2001 yil, 17 fevral.

16. Karimov I. A. Oʻzbekiston kelajagi buyuk davlat. -T.: Oʻzbekiston, 1992.-62 b.

17. Karimov I. A. Oʻzbekistonning oʻz istiqlol va taraqqiyot yoʻli. – T.: Oʻzbekiston, 1992.-78 b.

18. Karimov I. A. Oʻzbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yoʻlida T.: Oʻzbekiston, 1995. -238 b.

19. Karimov I. A. Oʻzbekiston buyuk kelajagi sari. - T.: Oʻzbekiston, 1998.-687 b.

20. Karimov I.A. Oʻzbekiston XXI asrga intilmoqda. - T.: Oʻzbekiston, 1999.-48 b.

21. Karimov I. A. Bunyodkorlik - farovon hayot asosi .Oʻzbekiston Oliy Majlisining IV sessiyasida soʻzlangan nutq. - «Oʻzbekiston ovozi» gazetasi, 1995 yil 26 dekabr.

22. Abu Ali Ibn Sino. Tib qonunlari: 3 jildlik. 1-jild. -T.: A. Qodiriy nomidagi meros nashriyoti, 1992. –302 b.

23. Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari: 3 jildlik. 2-jild. -T.: Meros, 1992. - 328 b.

24. Alisher Navoiy. Asarlar. 13-jild -T.: Gʻafur Gʻulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1966. 15,-244 b.

25. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. -T.: Meros, 1993. 16,-144 b.

26. Yusuf Xos Hojib. Qutadgʻu bilig. - T.: Yulduzcha, 1990. 124,- 250 b.

26. Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. 3-jild. -T.: Fan, 1966.-663 b.

27. Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. 4-jild. -T.: Fan, 1973.- 686 b.

28. Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. 5-jild. -T.: Fan, 1973.- 647 b.

29. Апанасов П.Т. Построение системы упражнений с экономическим содержанием в курсе математики средних учебных заведения.: Дисс. на соиск. уч. степ. канд. пед. наук.: -М.: 1997. – 201 b.

30. Abdullaev A., Ergashev A., Aybeshov H., Abdullaeva X. Biznes reja. Amaliy mashgʻulotlar toʻplami. Noiqtisodiy OTM talabalari uchun qoʻllanma. -T.: Oʻqituvchi, 2003. -152 b.

31. Abdullaev A. M., Ismoilov A. A., Ishnazarov A.I. Информатсионные технологии в решении экономических задач. Учебно-методическое пособие. -T.: TGEU, 2005. -72 b.

32. Ahmadxoʻjaev H. T., Mirdadaev K. M., Qozoqov O. S. Menejment va strategiyani boshqarish. Noiqtisodiy OTM talabalari uchun oʻquv qoʻllanma. -T.: Ilm ziyo, 2004. -144 b.

33. Barkamol avlod orzusi // Sh. Qurbonov, H. Saidov, R. Ahliddinov. Toʻldirilgan ikkinchi nashri. – T.: «Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi» davlat ilmiy nashriyoti, 2000.-248 b.

34. Batishev S. Ya. Производственная педагогика. Учебник для работников, занимающихся профессиональным обучением рабочих на производстве. –М.: Машиностроение, 1984. –672 b.

35. Беспалко В.П. Персонализированное образование// Ж. Педагогика, - 1998. - № 2. Б. -12-17.

36. Бобко И.М. Вопросы формирования экономической культуры школьников // Экономическое образование в школах, лицеях и гимназиях / Сборник материалов научно-практической конференции, - Новосибирск, 1994. - 5-6 б.
37. Magzumov P.T. va boshqalar. Talabalarni mehnatga va kasb tanlashga tayyorlash. –Т.: О‘qituvchi, 1991.- 208 б.
38. Mirsaidov M. S. Tadbirkorlik asoslari. Noiqtisodiy OTM talabalari uchun darslik. –Т.: O‘zbekiston, 2002. –272 б.
39. Ma’naviyat yulduzlari: (Markaziy Osiyolik mashhur siymolar, allomalar, adiblar) / Mas’ul muharrir: M. M. Xayrullaev. - Т.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1999.- 400 б.
40. Матвеев. В. Г. Основ экономических знаний. -Т.: Sharq, 1998. – 445 б.
41. Musurmonova O. Ma’naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi.- Т.: О‘qituvchi, 1996.- 191 б.
42. Мелникова Н.В. Проблемы прикладной экономической ориентации курса алгебры средней школы.: Дисс. на соиск. уч. степ. канд. пед. наук. - М., 1980. - 190 б.
43. Международный ежегодник по технологии образования и обучения, 1978-79, London, Nyu-York, 1978. -В. -258.
44. Madrahimov H., Madrahimova R. Suv xo‘jaligi iqtisodi va uni rejalashtirish. Noiqtisodiy OTM talabalari uchun o‘quv qo‘llanma. -Т.: Sharq, 2002. –160 б.
45. Музенитов Ш.А. Экономические задания на уроке. // Ж. Вечерняя средняя школа. - 1980. -№6. -Б. 44-45.
46. Новаски Т. П. Теория и практика самостоятельной работы . -М.: 1985. – 123 с.
47. Нисимчук А.С. Экономическое образование школьников. -М.: Просвещение, 1991. - 160 с.
48. Наджимов Г. Н. Народные традиции и культура. –Т.: Uzbekiston, 1992.- 119 б.
49. Нишоналиев У. Формирование личности учителя трудового обучения. Проблемы и перспективы. –Т.: Фан, 1996.- 88 б.
50. Николаев И.П. Экономическая теория. Учебник. М.: ИноРус, 1998. гл. 13,14 - б.
51. Нисимчук А.С. Экономическое образование школьников: Книга для учителя .-М.: Просвещение, 1991.-160 б.
52. Нишонаева С. Воспитание совершенного человека в развитии педагогической мысли эпохи возрождения Востока: - Автореф. дисс. д. п. н. -Т.: 1998 – 35 б.
53. Набиев Э. сфера услуг в национальном воспроизводстве (теоретические и методологические аспекты). -Т.; 1993. –124 б.
54. Немов Р.С. Введение в научное психологическое исследование с элементами математической статистики. Психология. 3-е изд. Книга 3. - М.: Гуманит. изд. центр ВЛАДОС, 1999. -640 б.

55. Платонов К.К., Голубев Г. Г. Психология. Учебник для индустриально-педагогических техникумов. -М.: Высшая школа, 1983. –173б.
56. Ochilov M. Axloqiy tarbiya -T.: O‘qituvchi, 1992. – 232 b.
57. Полат Е.С. Новые педагогические и информатсионные технологии в системе образования. Учеб, пособие для-студ педвузов и системы повыш. Квал. Педкадров.М.: Изд. сентр “Академия”, 2000. -272 -б.
58. Педагогика. Большая современная энциклопедия. Минск ИООО «Современное слово», 2005, - 676-677 б.
59. Razzoqov A., Toshmatov Sh., O‘rmonov N., Iqtisodiy ta’limotlar tarixi. - Toshkent : Moliya, 2002 . 492 b.
60. Razzoqov A. To‘raxonova H. Beruniyning iqtisodiy g‘oyalari. «Hamkor» 2001 yil, iyul soni.
61. Рябоконева Л. Д. Особенности содержания и методики преподавания в классах экономического профиля.: Дисс. на соиск. уч. степ. канд. пед. наук. - Омск, 1996. - 186 б.
62. Раззоқов А. Бой меросимизни ўрганайлик. // Ж. Иқтисод ва ҳисобот, - 1993. -№3. -Б. 48.
63. Sariqov E., Haydarov B. Iqtisodiy bilim asoslari. O‘qituvchilar uchun qo‘llanma. -T.: O‘qituvchi, 2001.–160 b.
64. Soliev A., Xo‘jaxonov H. Noishlab chiqarish (xizmat ko‘rsatish) sohalari iqtisodi, buxgalteriya hisobi va auditi. O‘quv qo‘llanma. -T.: Mehnat, 1998. -256 b.
65. Salimov V.T., Hamidov Q.S., O‘roqov N.I. Mikroiqtisodiyot. Noiqtisodiy OTM talabalari uchun o‘quv qo‘llanma. -T.: Ijod dunyosi, 2003. –256 b.
66. Sanaev N. Audit. Noiqtisodiy OTM talabalari uchun o‘quv qo‘llanma. -T.: Bilim, 2004.-304 b.
67. Sanaev N., Sanaev /. Audit fani bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar to‘plami. Noiqtisodiy OTM talabalari uchun o‘quv qo‘llanma. -T.: Bilim, 2004.-80 b.
68. Safo Ochil. Mustaqillik ma’naviyati va tarbiya asoslari. -T.: O‘qituvchi, 1997. - 256 b.
69. Селевко Г. К. Современные образовательные технологии. Учебное пособие. -М.: Народное образование, 1998. -256 б.
70. Sobirov X. Bizga meros tijorat. (A. Navoiy asarlarida tijorat masalalarining yoritilishi) // J. Iqtisod va hisobot, -1993. № 9. –В 48 .
71. Сергеева М. Г. Практикум «учебная фирма» как условие формирования профессиональной компетнесии будущих спесиалистов. //Ж. Среднее профессиональное образование. 2004. -№ 9, -11-12 б.
72. Ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari (Trenerlar uchun qo‘llanma). Osiyo taraqqiyot banking O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limini rivojlantirish loyihasi seminar-treningi materiallari. -T.: -2002. -192 b.
73. Temur tuzuklari (o‘zbek, rus, ingliz, fransuz tillarda). /B. Ahmedov tahriri ostida. –T.: G‘ofur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1996. - 344 b.
74. Temur tuzuklari. Forschadan A. Sog‘uniy va H. Karomatov tarjiması.– T.: Sharq nashriyot–matbaa birlashmasi,1991. – 144 b.

75. Tuxliev N. Taksanov A. NatSIONALNAYA EKONOMICHESKAYA MODEL Uzbekistana -T.: Ўqituvchi, 2000. -24 б.
76. Tashmurodov T. Soliq nazariyasi va amaliyoti. Noiqtisodiy OTM talabalari uchun darslik. -T.: Bilim, 2004. -318 b.
77. Терюкова Т. Экономика в школе: мифы и реальность // Ж. ШКОЛЬНЫЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ. - 1998. - №4. - Б.20-24.
78. Тилашев Х. Х. Общепедагогические и дидактические идеи ученых энциклопедистов Ближнего и Среднего Востока эпохи сред невековых. -Т.: Фан, 1989. -96 б.
79. То'raqulov E., Rahimov S. Abu Rayhon Beruniy ruhiyat va ta'lim-tarbiya haqida. - T.: O'qituvchi, 1992.- 80 b.
80. Umumiy psixologiyadan amaliy mashg'ulotlar / V. V. Bogoslovskiy, T. I. Bochkareva va b.; A. I. Shcherbakov tahriri ostida. T.: O'qituvchi, 1984. -336 б.
81. Shodmonov Sh., Jo'raev T. Iqtisodiyot nazariyasi fanidan test savol-javoblari. -T.: DNTAF, 1998. 8-13 b.
82. Hasanboeva O. Tarbiyaviy ishlarni tashkil etish metodikasi.-T.: Respublika o'quv metodik markazi. 1996.-86 b.
83. Хасанов С. Просветителско-педагогические взгляды Харезмских мыслителей. Док. дисс....пед. наук. -Т.: 2000. -325 б.
84. Shermuhamedov S.Sh. Ma'naviy madaniyat va ijtimoiy taraqqiyotning o'zaro ta'siri muammolari. -Farg'ona. -FDU ilmiy asarlar to'plami, 1999.- 38-46 b.
85. Sharma L. P. Boburiylar saltanati. -T.: Ma'naviyat, 1998. -332 b.
- 86 O'zbekiston Respublikasida pedagogik ta'lim konsepsiyasi. - T., O'zPFITI, 1995. - 20 b.
87. Усова П Р. Учебная фирма.|| Ж. Среднее профессиональное образование. 2004. -Б. 34-35.
88. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. Tuzuvchi-mualliflar: K. Xoshimov. S. Ochil. - T.: O'qituvchi, 1995. - 460 b.
89. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining umumta'lim fanlari, Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlari /Tahrir hay'ati: R. H. Jo'raev, J. H. Husanov, X. F. Masudov. -T.: Sharq, 2001.-384 b.
90. O'lmasov A. Iqtisodiy bilim asoslari. Kollej o'qituvchilari hamda iqtidorli talaba lar uchun uslubiy qo'llanma.-T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2003. -184 b.
91. O'lmasov A. Iqtisodiy bilim asoslari. Kollejlari uchun darslik. -T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2002. -176 b.
92. O'lmasov A. Oila iqtisodi.-T.: Mehnat, 1999. -64 b.
93. O'lmasov A. Iqtisodiyot asoslari. Kollej va litseylar uchun o'quv qo'llanmasi. -T.: Mehnat, 1997. - 224 b.
94. O'lmasov A. Amaliy iqtisodiyot : o'quv qo'llanma - T.: Mehnat, 1997. 56-b.
95. Tojiboev A., Asatullaeva M. Iqtisodiy ta'lim tarbiya jarayonida ma'naviy meroslardan foydalanish. // J. Kasb-hunar ta'limi. -2005. -№1. -B. 29.
96. Qodirov A. Iqtisodiy ta'lim asoslari. T.: Mehnat, 1997. - 134 b.

97. Qadimiy hikmatlar. Tuzuvchi: N. Rahimov. -T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1987. –432 b.
98. Курбонов Ш. Э. Социально-педагогические особенности национальной модели и программы по подготовке кадров: -Автореф. дисс. ... д. п. н. –Т.: 2000. -51 б.
99. Qurbonov Sh., Seytxalilov. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi: Pedagogik ilmiy o'quv muammolari va yo'nalishlari. - T.: «Fan» 1999. – 144 b.
100. Quronov M. Maktab ma'muriyati va milliy tarbiya. – T.: Fan, 1997. - 128 b.
101. G'ulomov S. Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma. -T.: Mehnat, 1997 . - 160 b.
102. Foziev E. Oliy maktab psixologiyasi. – T.: O'qituvchi, 1997.- 104 b.
103. Hakimov R. R. Noiqtisodiy OTM talabalarida tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik asoslari. Pedagogika fanlari ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoref. -T.: 2005. -24 b.
104. Xo'jaev N. Iqtisodiy pedagogika. O'quv qo'llanma. –T.: TDIU, 2003. -97 b.
105. Xo'jaev N. Yangi pedagogik texnologiya – T.: TDIU, 2001. 78 b.
106. Xudoyqulov X. Sharq mutafakirlari iqtisod odobi to'g'risida. -T.: 2005. -100 b.
107. Xudoyqulov X. Iqtisodiy tarbiyaning tarixiy ildizlari.// J. Kasb-hunar ta'limi, 2004. №5. B. -20-21 b.
108. Хейлбронер Р., Туроу Л. Экономика для всех. –Новосибирск. Экор, 1994.- 76 б.
109. Ясенко Н. Е. Толковый словарь обществоведческих терминов. М.: -СПб., 1999.147,-345 б.
110. Erbo'taev I. Chakana savdo texnologiyasi. Noiqtisodiy OTM talabarlari uchun o'quv qo'llanma.-T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2003. - 184 b.
111. Экономика в системе межпредметных связей: Нормативно-методические материалы кафедры экономики МИПКРО // Ж. Экономика в школе. - 1997. - №1. – Б. 30-36.
112. Экономика и рынок: Словарь для школьника. /Министерство образования РФ; УрГПИ. - Екатеринбург, 1993. Тузувчилар: М.А. Галайзова, А.Е. Контар, Л.П. Пачикова.

Jumanov Xayitmurot Toshniyozovich

IQTISODIY BILIM ASOSLARINI O'QITISH METODIKASI

O'quv qo'llanma

Bosishga ruxsat etildi. 30.11.2021 y.
Qog'oz bichimi 60x84 1/16. Times New Roman
garniturasida terildi.
Ofset uslubida oq qog'ozda chop etildi.
Nashriyot hisob tabog'i 7.5, Adadi 100. Buyurtma № 89
Bahosi kelishuv asosida

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika
universitetining bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Toshkent shahar Chilonzor tumani,
Bunyodkor ko'chasi 27 uy.